

ISSN: 2181-4120

Scientific Journal

GOLDEN BRAIN

Social Sciences & Humanities



Volume 2, Issue 20



webgoldenbrain.com

2024/20
November

ISSN 2181-4120
VOLUME 2, ISSUE 20
NOVEMBER 2024



<http://webgoldenbrain.com/>

“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 2, ISSUE 20, NOVEMBER, 2024

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174339>

XALQ TERMALARIDA DO‘MBIRA MAQTOVI

Abbos Tursunqulov

Jizzax DPU, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada xalq termalarida do‘mbira maqtovi taniqli baxshilar ijodi misolida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq og‘zaki ijodi, janr, voqelik, tematika, folklor, terma.

Annotation: In the article, the praise of dombira in folk terms is analyzed on the example of the works of well-known bakhshis.

Key words: Folk art, genre, reality, theme, folklore, term.

Аннотация: В статье проанализировано восхваление домбира в народном плане на примере произведений известных бахши.

Ключевые слова: Народное творчество, жанр, реальность, тема, фольклор, термин.

KIRISH

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida har bir janr voqelikni qamrov doirasi, tematikasi, kompozitsion qurilishi, umuman, spesifik xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan ajralib turadi. Buni terma janri misolida ham aynan ko‘rishimiz mumkin.

Terma o‘zbek folklorining mustaqil janri bo‘lib, uning yaratilishida baxshilarning roli nihoyatda kattavir, ko‘pchilik hollarda ular dostonchilarning individual ijodi hisoblanadi. Pand-nasihati, odob-fxloq, soz va so‘z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta‘rifi yoki tanqidiga bag‘ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan o‘n-o‘n ikki satrdan yuz ellik – ikki yuz, ba‘zan undan ham ortiq misragacha bo‘lgan lirik, liro-epik she‘rlarga termalar deyiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Terma soʻzinig maʼnosi terib, tanlab tizish demakdir, yaʼni nisbiy mustaqillikka ega boʻlgan, forma va mazmun jihatidanbir-biriga yaqin bandlarni (har bir band uch, toʻrt, besh,olti va undan ortiq misralardan iborat boʻlishi mumkin) kampozitsion jihatdan yaxlitlashtirishdir. Baxshilarning oʻzlari ham “Terma shu, terib aytib berasan” deyдилar. Ular baʼzan “Nima aytay?” termasini “doston terish” deb ham yuritildiki, bu ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Termada ijro davomida ayrim bandlarning qoʻshilishi yoki oʻrin almashishi, baʼzi bandlarning tushib qolishi mumkin”¹

NATIJALAR

Yangi ijtimoiy voqelikni badiiy tasvirlashda termalar xalq ijodining boshqa janrlariga nisbatan ancha qulay va ixcham sanaladi. Shu sababli termalar davr talabiga hozirjavob asarlardir. Ularning mavzu doirasi rang-barang boʻlib, tematik jihatdan bir necha turlarga boʻlish mumkin. Bular orasida avtobiografik termalar yeng koʻp tarqalgandir. Avtobiografik termalar baxshilar biografiyasi bilan bogʻliq. Bu tipdagi termalarning xarakterli namunalari qatoridan “Doʻmbiram” termalari munosib oʻrin oladi. Termalarning oʻziga xos xususiyatlaridan biri ularning bevosita doston kuylash jarayoni bilan bogʻliqligidir. Baxshi dostonchilik oʻtirishlarida audotoriyaning kayfiyati, yoshi, sostavini hisobga olib, dastlab ularga mos keladigan termalardan kuylaydi. Koʻpchilik hollarda “Doʻmbiram” termasini kuylash bilan dostonchilik yigʻinlari boshlangan. Bunda baxshi oʻz doʻmbirasi (baʼzan dutori yoki qoʻbizi) ni bir suhbatdoshday jonlantirib, tinglovchilarga oʻzini tanitadi va jiddiy asar – doston tingdashga ularni hozirlaydi. Termada syujet ikki yoʻnalish boʻylab rivojlantiriladi. Birinchidan, baxshi doʻmbira maqtovini bersa, ikkinchidan, oʻz hayotinig baʼzi qirralari haqida hikoya qiladi.

“Doʻmbiram” termalari deyarlik barcha baxshilar repertuarida mavjud. Ular oʻrtasida umumiy mushtarak tomonlar boʻlishi bilan birga, alohidalik ham borki, bu xususiyat u yoki bu baxshining individual hayot tarzi va poetik “yoʻli” bilan izohlanadi.

¹ Тўра Мирзаев, Халқ бахшилари эпик репертуарининг асосий хусусиятлари, қўлёзма, 148-бет.

Odatda, bu xil termalarning barchasida do‘mbira tuzilishiga, uning qanday materialdan yasalganligiga ahamiyat beriladi.

Masalan, Po‘lkan shoir:

Korsoning zardoli, qopqog‘ing tutdan,
MaqtoV bilan kelding Qatog‘on yurtdan¹, -

Deb kuylasa, Nurmon shoir esa:

Kosang yong‘oqdan, bo‘yining tutdan,
MaqtoV bilan kelding Hisorday yurtdan,² -

deb kuylaydi. Bu misralar forma jihatdan deyarlik farq qilmaydi. Lekin shu formaga singdirilgan mazmunda baxshining biografiyasiga oid ma‘lumotlar uchraydi. Ya‘ni, birinchi misrada do‘mbira tuzilishi iqodalansa, ikkinchi misrada baxshi tug‘ilgan qishloqning nomi bayon etilgan.

MUHOKAMA

“Do‘mbiram” termasida yumoristik momentlar ham muhim o‘rin tutadi. Bunda do‘mbiraning “tanqidi” muhim vomitadir. Bu narsa tinglovchilar doirasida shirin kayfiyat, hazil-mutoyibaga sharoit hozirlaydi:

Seni chertib besh panjam qiyilib,
Tirnoqning ofati bo‘lgan do‘mbiram³.
(Po‘lkan shoir).

Yoki:

Qutulmadim senday yog‘och naymutdan,
Tirnoqning ofati bo‘lgan do‘mbiram⁴.
(Po‘lkan shoir).

Baxshi nazdida do‘mbira yig‘ilgan xaloyiqning ko‘nglini olishi, ularni xushnud etishi kerak. Buning uchun do‘mbiraning ovozi yaxshi chiqishi, torlar esa baxshi xohlagan maqomda “sayramog‘i” lozim. Ana shunda baxshining o‘zi ham do‘mbira

¹ Ўзбек фольклори, Тошкент, Ўз ССР Давлат ўқув-педагогик нашриёти, 1939 йил, 50-бет. Бундан кейинги мисоллар шу китобданш олинади.

² Ўша китоб, 51-бет.

³ Ўша китоб, 51-бет.

⁴ Ўша китоб, 50-бет.

sehriga berilib, “daryoday toshib”, “dengizday mavj urib”, “ilhomi jo‘shib” tinglovchilarni o‘ziga jalb qiladi. Baxshi aytganidek:

Men chertganda chiqabergin yuz maqom,
Dovushga qanotim bo‘lgan dshho‘mbiram¹
(Nurmon shoir).

Baxshi o‘z do‘mbirasiga murojaat etib, uni maqtaydi, yig‘ilgan xalqqa manzur bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Agar do‘mbira baxshi aytgan yo‘lga kirmasa, yaxshi sayramay, ovozga jo‘r bo‘lmasa unday holda o‘choqqa solib yoqishini uqtiradi. Bunday “o‘ch olish” zaminida baxshining o‘z do‘mbirasiga bo‘lgan ishonchi yotadi, ya’ni do‘mbiraning hech qachon bunday holga tushmasligiga imoni komil. Aks holda do‘mbira el ko‘nglini xushnud etolmasa bunday do‘mbira o‘tini ham hech narsaga arzimasligi tabiiydir. Buni baxshi yumoristik tarzda ifodalab deydi:

Yorib yoqsam biror chaydush qaynamas,
Senday yog‘och o‘tin bo‘lgan do‘mbiram².
(Nurmon shoir).

Ma’lumki, do‘mbira baxshining doimiy hamrohi. O‘g‘ir kunlarida ham, shodlik-quvonchli damlarida ham uning ovunchog‘i va yo‘ldoshi. Shuning uchun ham vaqti-vaqti bilan do‘mbiraga jilo berib, uning torlarini yangilab turmog‘i tabiiydir. Baxshi ta’biricha, bu bilan do‘mbiraning “suyagi qizib”, uning ohangi yanada avjlanadi.

Yangi tor tortaman, eskingni uzib,
Tobora chiqasan suyaging qizib³.
(Nurmon shoir).

Baxshining do‘mbiraga jilo berishi faqat vaqti-vaqti bilan uning tortishi o‘zgarib turishidagina emas. Avvalo, uni ko‘z qorachig‘idek ehtiyot qilmog‘i, avaylab saqlamog‘i, ishlatmog‘i, o‘z e’tiqodiga ko‘ra, uni “begona ko‘zlar”dan ham saqlamog‘i

¹ Ўша китоб, 51-бет.

² Ўша китоб, 50-бет.

³ Ўша китоб, 50-бет.

lozim. Chunki, do‘mbira baxshi uchun behad shon-shuxrat, obro‘-etibor bo‘lishi bilan birga uning rizq-ro‘zi hamdir:

Sen bo‘lgansan menga adrasu-parcha,
Yalong‘ochga chopon bo‘lgan do‘mbiram¹.
(Po‘lkan shoir).

“Do‘mbiram” termasi baxshinig biografiyasi, uning ijodiy va amaliy faoliyati bilan birga dostonchilik udumlari bilan ham bog‘liqdir. Shunday udumlardan biri – doston kuylash jarayonida “do‘mbira to‘nkarmoq” va “ro‘mol yozmoq” marosimining termada aks etishidir.

Baxshilar “Do‘mbiram” termasini kuylash jarayonida traditsion quyma misralardan ham ijodiy foydalanadilar. Nurmon shoir termaning boshlanishida do‘mbira yasalgan materialni “Kosang yong‘oqdan, bo‘yining tutdan” deb boshlab, keyingi misrada o‘z yurtining nomini keltiradi. Termaning davomida esa xuddi o‘unday o‘rinda, ya‘ni do‘mbira yasalgan materialning nomini o‘zgartirib batamom yangi ma‘nodagi band tuzadi:

Jasating olchadir, qulog‘ing gujum,
Sen soz bo‘lsang, mening kelar avjim,
Nosoz bo‘lsang olmoqqa yo‘q ilojim,
Qish kuni ermagin, bozorda harjim,
Har kechalar bir to‘n bo‘lgan do‘mbiram².

Demak, birinchi misra an‘anaviy qoliplangan bo‘lib, unga ma‘lum bir nagruzka yuklatiladi. Ba‘zi hollarda esa baxshi badihago‘ylik bilan xuddi shu birinchi misradagi turoqlar o‘rnini almashtirish yo‘li bilan yangi qofiya sistemasini yaratadi. Shu orqali forma va ma‘no jihatdan farq qiladigan yangi bandlar tuziladi. Nurmon shoir esa “Do‘mbiram” termasida turoqlar o‘rninigina almashtirish bilan cheklanmay, shu

¹ Ўша китоб, 50-бет.

² Ўша китоб, 52-бет.

misradagi hijolar sonini ham o'zgartiradiki, bu hol tabiiy ravishda do'mbira kuyi va ohangining ham o'zgacha bo'lishini ta'minlaydi:

Qulog'ing gujum, jasading olcha,
Guldurab chiqasan fayzli kecha,
Ulfating soni bordir oltmishcha,
Har maqomg'a chiqabergin shu kecha,
Majlisga kosakul bo'lgan do'mbiram¹.

XULOSA

Xullas, "Do'mbiram" termalari, o'zbek xalq og'zaki ijodiyotida alohida xususiyatlarga ega bo'lib, birinchidan, baxshining sozga ovozni monmnd qilishi; ikkinchidan, do'mbirasining tarixini yoritib shu orqali o'z hayotining ba'zi qirralari haqida hikoya qilishi, ya'ni xalqqa o'zini tanishtirish uchun vosita vazifasini o'tashi, uchinchidan, doston kuylash an'analarini o'zida mujassamlashtirishi bilan ahamiyatga molikdir.

¹ Ўша китоб, 52-бет.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174343>

KOMIK HOLAT VA KOMIK OBRAZ HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Jo'rayev Murodulla Alishboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada komik xarakter va komik obraz muammosi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari adabiyotshunos olimlarning qarshlari misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Komediya, komik xarakter, komik obraz, adabiyotshunos, sxematizm, tipiklik, tipik obraz.

Abstract: In the article, the problem of comic character and comic image and their specific features are analyzed on the example of arguments of literary scholars.

Key words: Comedy, comic character, comic image, literary critic, schematism, typicality, typical image.

Аннотация: В статье на примере рассуждений литературоведов анализируется проблема комического персонажа и комического образа, их специфические особенности.

Ключевые слова: комедия, комический персонаж, комический образ, литературный критик, схематизм, типичность, типический образ.

KIRISH

“Tipik obraz deyilganda, muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit, davr va muhitga xos muhim xarakterli xususiyatlarni o'zida mujassamlashtira olgan obraz..”¹, -deb ta'riflanadi adabiyotshunoslik manbalarida. Darhaqiqat, tipik obraz o'ziga davrning turli-tuman xususiyatlarini singdirib oladi. U bir tomondan, bu xususiyatlarning sintezi, ularning jonli birligi sifatida, ikkinchi tomondan, u dramaturgning g'oya va qarashlarini o'zida jamlaydi, uning hayotga munosabatini ifodalaydi. Biroq

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. -T: Xalq merosi. 2004 y. 77-bet.

xarakterning qimmatini faqat g'oyaviy quvvat bilan emas, balki yozuvchi uni yaratish uchun foydalangan materialning badiiy ishlovi-talqini bilan ham belgilanadi. Agar bu material, garchi o'zining mazmuniga ko'ra juda yuqori bo'lsada, chuqur anglanmagan, muallifning boshidan kechirilmagan, qalban his qilinmagan bo'lsa, unda san'at asarining o'zi bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tipik obrazning kuchi uning ko'p qirraliligida ham namoyon bo'ladi. Moler va Shekspirning ijodiy usullarini qiyoslagan Pushkin shunday yozgan edi; "Molerda Xasis-xasis xolos, Shekspirda esa Sheylok-xasis, zehni o'tkir, qasoskor, bolajon, hozirjavab."¹

Takrorlanmas alohida tiplar ham xarakterlarning tasvirida ko'pqirraligi va mukammalligi bilan ajralib turishadi. Bir tomonlama tasvir hamisha ishonchsiz bo'ladi. U ko'pincha sxematizmga olib boradi. Bunday obrazlarning g'oyaviy-badiiy funksiyasi, sig'imi doimo tor bo'ladi.

Komediya tipiklik muammosi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki soxta komik qahramonlar yaratish havosi va soxta komizmga tushib qolish ehtimoli bu yerda, ayniqsa, katta – bu tasvirning haqqoniyligiga salbiy ta'sir qiladi. Kulgi, quvnoq kayfiyat – bu hali komediya emas. Axir ko'pincha kulgi komiklikning tashqi ko'rinishlariga asoslanadi hamda kulgining o'zi quruq vaqtichog'likka, masxarabozlikka olib keladi. Masxarabozlik esa – bu komediyaning zaif ko'lankasi xolos.

NATIJALAR

Komediya voqealari xarakterlar va qarama-qarshi fikrlar, o'zaro istisno qilinuvchi manfaatlar, jiddiy, ko'pincha murosasiz g'oyaviy kurashda kechadi. Biroq bu kurash boshqacha – kulgilidir, u kulgi qo'zg'otadi. "Tragediyaning asosi,-yozadi V.G.Belinskiy,-tabiatiga ko'ra dahshat, achinish uyg'otuvchi yoki inson tabiatining fazilatlarini bilan faxrlanishga majbur qiluvchi va axloqiy qonunning tantanasiga yo'l ochuvchi fojiviy kurashda bo'lgani singari, komediyaning asosi ham – kulgi

¹ Пушкин А.С. Полн. собр. соч.-М: Сов.писатель. 1949. С. 516.

uyg‘otuvchi komik kurashdadir; biroq bu kulgida birgina xursandchilik emas, balki tahqirlangan insoniy fazilatlar uchun intiqom ham sezilib turadi va shu tarzda tragediyadagidan boshqacha yo‘l bilan, yana axloqiy qonun tantanasiga yo‘l ochiladi.”¹

MUHOKAMA

Darhaqiqat, komediyaning ko‘p asrlik tajribasi shundan guvohlik beradiki, uning asosiy konflikti kulgi paydo qiladigan ziddiyat asosida quriladi. Komediyalarda namoyon bo‘lganidek, bu kulgi o‘ta xilma-xil; muloyim, kinoyali, quvnoq va zaharli, nihoyat qayg‘uli va ma‘yus tusga ega bo‘lishi mumkin, lekin u kulgili kurash oqibati sifatida hamisha mavjud.

Ayrim tadqiqotchilar esa komediya, ayniqsa satirik komediyalarda kulgi bo‘lishi shart emas, deb hisoblaydilar. Jumladan, Yu.Borevning fikriga ko‘ra: “..ba‘zan satiradagi alohida hissiyotli tanqid kulgi shaklida amalga oshirilmaydi (masalan, Shedrinning “Janobi Golovlyovlar”, Svift va Goyining qator grotesk obrazlari). Kulgisiz satira, agar o‘ziga xos hissiy tanqid ijodkorning g‘azab va nafrati kulgini bosib ketadigan o‘ta ravshanlikka, o‘ta yuksaklikka erishgan holdagina bo‘lishi mumkin. U mazkur kulgili hodisa mavjudligining fojaviy oqibatlari, ayniqsa, aniq ko‘rinib turganda, kulgili hodisa insonlarning o‘ta og‘ir baxtsizligi va halokatini keltirib chiqaradigan darajada ijtimoiy xavfli bo‘lganda, shu munosabat bilan ijodkorning g‘azab va nafrati so‘nggi chegaragacha yetib borganida paydo bo‘ladi.”²

Bizningcha, ushbu mulohazada g‘oyat muhim jihat nazardan chetda qoldirilgan. G‘azab va nafrat odatda, bayon qilinayotgan hodisaning hissiy-estetik tahqirlanishi bilan birga kuzatiladi. Satirik ijodkor bexosdan ulug‘vor narsada arziyas, kulgili tomonni ko‘rib qoldi va shunday qilib, tashqi yuzaki, soxta qiyofani uning asl mohiyatidan ajratib oldi. Bularning hammasi qo‘shilib kulgi uyg‘otmay qo‘ymaydi. To‘g‘ri, bu kulgi samimiy, quvnoq kulgi emas, aksincha, kinoyali, zaharxanda va achchiq kulgidir.

¹ Белинский В.Г. Полн. собр. соч. том 3.-М.: Политиздат. 1955. С. 448.

² Боров Ю. О комическом. -М.: Искусство. 1957. С. 126-127.

Komediyaning janr xususiyatini belgilovchi asosiy yetakchi vosita bu komizm va uni targ'ib etuvchi kulgi hisoblanadi. Satirik komediyalarda esa faqat kulgi hukmronlik qilib qolmasdan, unga dahshatli qo'rqinch, chuqur qayg'u, nafrat, qattiq ezilish, iztiroblar xarakteriga ega bo'lgan tragik motivlar ham, dramadan esa ruhiy tashvishlanishlar, dramatik holatlar ham kirib borishi mumkin.

Ba'zan, satirik komediya bilan tragediya janrining bir-biriga yaqin turadigan jihatlari ham ko'zga tashlanadi. Har ikki janrning bu xususiyati ham nomunosib bo'lgan vaziyatdan, voqea-hodisalar tasviridan kelib chiqadi. To'g'ri, har ikkisida ham tasvirlash vositalari, qo'llaniladigan usullar, mualliflarning pozitsiyalari turlicha bo'ladi. Ammo bir jarayondan ikkinchi jarayonga o'tib ketish hollari tez-tez sodir bo'lib turishi mumkin. Chunki har ikki janr ham oqibatda, asl ma'naviyatni, toza axloqning tantanasi tomon olib borishi yoki shu ruhni tasdiqlashi darkor. komediya ham, tragediya ham real hayotni aks ettirar ekan, komediyada tragizm, tragediyada komizm bo'lishi tabiiy hol. Lekin ularning hayotni tasvirlash uslublari turlichadir. Bu tafovut umumiy ma'noda quyidagicha aks etadi: tragediyada har doim oxir oqibat oliy qadriyatlar xavf-xatarga, halokatga duchor bo'ladi, lekin komediyalarda bunday bo'lmaydi, undagi fikrlar kurashi oliy qadriyatlarga daxl etmaydi, aksincha, ularni qanday qilib bo'lsa ham himoya qilishga harakat qiladi. Shunday ekan, hozirgi jamiyatimizda qabul qilingan umumiy qoidalarga qarshi bo'lgan hamma narsa komediya ob'ekti bo'lishi mumkin.

XULOSA

Biroq ko'pincha shunday bo'ladiki, jamiyatdagi illatlar va ularning "homiylari" komediyanavisdan ancha kuchli, uni jim bo'lishga majbur qiluvchi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Va natijada komediyanavis ideallarining amalga oshishiga imkon qanchalik kam bo'lsa, uning tanqidi ham shunchalik murosasiz va shafqatsiz kuchga ega bo'ladi. Kulgi qo'zg'atish hamisha komediyanavislarning eng muhim maqsadlaridan biri bo'lgan. Bu jihatdan qadimgi attika komediyasi tajribasi ibratlidir. Hatto buyuk Aristofan ham o'z g'oyalari ilgari surish maqsadida fars elementlariga, ko'pincha esa odobsizlikka ham murojaat qilgan, faqat ular tomoshabinni kuldirsa bas. Kulgisiz komediya moddalar almashinuvisiz hayot kabi notabiiydir.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174365>

GEOMETRIK MASALALARNI BAJARISHNING ENG QULAY ALGORITMLARI

U.T.Rixsiboyev


dotsent

Toshkent To‘qimachilik va Yengil Sanoat Instituti

Annotatsiya: This article is about the efficiency of using algorithm & the ways of solving them with positional tasks.


Kalit so‘zlar: undergraduate, triangle-shaped, adjacent, drawn, respect, Frontal, Remember.

Drawing geometry is taught to enhance the imagination of students of higher educational institutions, [4]. It is very convenient to use algorithms, noting that the level of imagination of undergraduate students in the field of Engineering, Architecture and design is insufficient, [3].



It is known that the projections H and V of an arbitrary triangle-shaped plane (Figure 1) Find the angular magnitudes of deviation with respect to the planes are solved by performing the following graphical operations, [1]:

A horizontal line $h(H'h'')$ is drawn through the C(C',C'') end of the triangular ABC (Figure 2).




draw 2

In the frontal projection of the Epirus, the frontal projection of the horizontal $h''(C''1'')$ is plotted through the C'' end of Triangle $a''B''c''$ parallel to the $[ox)$ axis. Then the missing horizontal projection of Point $1'$ is determined. This $1'$ point $a'B'C'$ lies on the $A'B'$ side of the Triangle. The C' and $1'$ points are adjacent. This line is denoted by h' and is called the horizontal projection of the horizontal,[5].

$$C'' \subset h''(C''1'') \parallel [ox) \text{ and } C' \in h'(C'1')$$

ABC is drawn through the B-end of the triangle with the line $m(m',m'')$ perpendicular to the line $h(h',h'')$ (Figure 3). This line $m(m',m'')$ is called the largest slope line of triangle ABC. lines $m(m',m'')$ and $h(h',h'')$ intersect to form a $D(D',D'')$ point. The result is a $[BD]$ cross section.



draw 3

In the horizontal projection of the Epirus, $a'B'C'$

is drawn through the B' end of the Triangle, drawing the M'line perpendicular to the $H'(C'1')$ line. the lines m' and h' intersect to form a D' point. And the D'' point lies

on the line $h''(C''1'')$. A line m is drawn through points B'' and D'' .


$$B' \subset m' \perp h'(C'1'); m' \cap h' = D'$$

$D'' \in h''(C''1'')$ and

$$B'' \cup D'' = [B''D''] \in m''$$

The actual length of the $[BD]$ cross section is determined using the right-angled triangle method. (Figure 4).

This results in a dbb_0 right-angled triangle.



4-rasm

Its angle D is $\angle\alpha$, which is the angle of inclination to H.

That is, $\angle\alpha = (ABC) \wedge H$.


In the horizontal projection of the Epirus, the cross – section $[B'D']$ is equal to the 1st cathet of the right triangle. A cross section $B'B_0$ is drawn through the point $\Delta Z = (ZD - ZB)$ equal to the distance length and perpendicular to $B'D$. This incision forms cathet 2.

$$|B'B_0| = \Delta Z = Z_D - Z_B \text{ va}$$

$$|B'B_0| \perp [B'D]$$

Points B_0 and D' are adjacent. This $[B_0D']$ cross section forms the hypotenuse of the $D'B'B_0$ right triangle. Its D' end is $\angle\alpha$. I.e. $\angle\alpha = (ABC) \wedge H$


Answer. $D' = (ABC) \wedge H$



U Through the $C(C', C'')$ end of the triangular ABC the frontal line $f(f', f'')$ is plotted (Figure 5).

In the horizontal projection of the Epirus, a horizontal projection of the $F'(C'2')$ Frontal is drawn parallel to the $[ox]$ axis through the C' point. Then, the missing projection of Point $2''$ is determined. This point lies in $A''B''$. Points C'' and $2''$ are adjacent. This

line is denoted by f'' and is called the frontal projection of the frontal.



$$C' \in f' \wedge (C' \wedge 1') \parallel [ox]; C'' \in f'' (C'' \wedge 1'')$$

ABC is drawn through the A-end of the triangle with the line $n(n', n'')$ perpendicular to the line $f(f', f'')$ (Figure 6). This line $n(n', n'')$ is the kata-most oblique line of the ABC triangle, and defines the Triangle by defining the angle of deviation V to β

β . the lines $n(n', n'')$ and $f(f', f'')$ intersect to form the point $E(E', E'')$. This results in a cross section $[AE]$.

$$A \in n(n', n'') \perp f(f', f''), n(n', n'') \in ABC$$

$$n(n', n'') \cap f(f', f'') = E(E', E''), [AE] \in m$$

In the frontal projection of the Epirus, a $B'' C''$ is drawn through the A'' end of the Triangle n'' perpendicular to the line $f(f', f'')$.

$$A'' \subset n'' \perp f''(C'' B'')$$


the lines n'' and $f''(C'', B'')$ intersect to form Point E'' .

$$n'' \cap f'' = E'' \in \langle Br \rangle$$

In the horizontal projection, the e' point $F'(C', B')$ belongs to the line.

$$E' \in f'(C' B')$$

The points A' and E' are contiguous and marked n' .



$$A' \cup E' = [A'E'] \in n'$$

The actual length of the $[Ae]$ Cross is determined using the right-angled triangle method (Figure 7). This results in an $ea0$ right-angled triangle. Its angle E is $\angle\beta$, which is the angle of inclination to V . That is, $\angle\beta = (ABC) \wedge V$.

In the frontal projection of the Epirus, the cross – section $[A''E'']$ is equal to the 1st cathet of the right triangle. Through a point $\Delta Y = (Y_C - Y_A)$ a cross section $a'' A_0$ is drawn, which is equal to the distance length and perpendicular to $A''E''$. Kes $a'' A_0$ cross section forms cathet 2.

$$|A''A_0| = \Delta Y = Y_C - Y_A \text{ va } |A''A_0| \perp [A''E'']$$

Points A_0 and E'' are adjacent. This $/ a_0 e'' /$ Cross $E''A''$ forms the hypotenuse of the A_0 right triangle. Its E'' TIP is $\angle\beta$.

$$\text{Viz } \angle\beta = (ABC) \wedge V$$

Answer: $\angle E'' = \angle\beta = (ABC) \wedge V$

Thus, when solving positional problems of this kind, drawing up a plan-algorithm using symbols, it becomes very easy to solve the problem as well as Remember the student. This increases student empowerment efficiency .

LIST OF BIBLIOGRAPHY

1. Sindarova, S. (2023). AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJODIY IZLANISHLARINI RIVOJLANTIRISH. *Наука и технология в современном мире*, 2(14), 38-41.

2. Mirzaliyev, Z. E., Sindarova, S., & Eraliyeva, S. Z. (2021). Develop students' knowledge, skills and competencies through the use of game technology in the teaching of school drawing. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(1), 58-62.

3. Sindarova, S. M., Rikhsibaev, U. T., & Khalilova, H. E. (2022). THE NEED TO RESEARCH AND USE ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE RESEARCH. *Academic research in modern science*, 1(12), 34-40.

4. Mirzaliev, Z., Sindarova, S., & Eraliyeva, S. (2019). Organization of Independent Work of Students on Drawing for Implementation of the Practice-Oriented Approach in Training. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 297-298.

5. Sindarova, Shoxista Maxammatovna (2021). O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH (CHIZMACHILIK FANI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (11), 686-691.

6. Maxammatovna, S. S. (2022). Methods of Solving Some Problems of Teaching Engineering Graphics. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 7, 97-102.

7. Рихсибоев, У. Т., Халилова, Х. Э., & Синдарова, Ш. М. (2022). AutoCAD дастуридан фойдаланиб деталлардаги ўтиш чизиқларини куришни автоматлаштириш. *Science and Education*, 3(4), 534-541.

8. Bobomurotov, T. G., & Rikhsiboev, U. T. (2022). Fundamentals Of Designing Triangles Into Sections Equal 5, 7, 9, 11, 13, 15, 17 And 19. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(2), 96-101.

9. Makhammatovna, S. S. (2023). Pedagogical and Psychological Aspects of Improving the Methods of Developing Students' Creative Research. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 37-41.
10. Abdurahimova, F. A., Ibrohimova, D. N. Q., Sindarova, S. M., & Pardayev, M. S. O. G. L. (2022). Trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish uchun paxta va ipak ipini tayyorlash va foydalanish texnologiyasi. *Science and Education*, 3(4), 448-452.
11. Sindarova, S. (2023). TALABALARDA IJODIY IZLANUVCHANLIKKA XOS SIFATLARNI SHAKILLANTIRISH USULLARI. *Академические исследования в современной науке*, 2(11), 23-29.
12. Sindarova Shoxista Maxammatovna, & Maxmudov Abdunabi Abdug'afforovich (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA IJODIY IZLANISH TALAB QILINADIGAN MASALALAR. *Ta'lim fidoyilari*, 24 (17), 2-275-284.
13. Rixsiboyev, U. T., & Maxammatovna, S. S. (2023). TEXNOLOGIK VOSITALAR ORQALI INNOVATSION DARS TASHKIL QILISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 20(8), 168-175.
14. Shoxista, S. Abdug'afforovich, MA (2022). *METHODOLOGY OF STUDENT CAPACITY DEVELOPMENT IN TEACHING ENGINEERING GRAPHICS. Gospodarka i Innowacje*, 22, 557-560.
15. Sindarova, S. M. (2021). IQTIDORLI TALABALAR BILAN SHUG'ULLANISH METODIKASI.(MUHANDISLIK FANLARI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 32-39.
16. Shoxista, S. (2023). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANINI O'ZLASHTIRISHDA ZAMONAVIY DASTURDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 780-790.
17. Синдарова, Ш. (2023). Yosh ijodkorlarni qo'llab quvvatlash va ular bilan ishlashni tashkil qilish. *Общество и инновации*, 4(2), 177-181.
18. Makhammatovna, S. S. (2023). DEVELOPMENT OF ENGINEERING GRAPHICS STUDENTS TO CREATIVITY THROUGH IMAGINATION VIEWS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 3(1), 22-26.
19. Takhirovich, A. U., & Makhammatovna, S. S. (2023). Forming Creativity through the Use of Modern Educational Tools. *International Journal of Formal Education*, 2(6), 404-409.
20. Ma marajabov, M. E. (2024). METHODOLOGICAL CAPABILITIES OF

«EXPERIENCED TEACHING» OF THE DEVELOPMENT OF STUDENT CREATIVITY WITH THE HELP OF COMPUTER GRAPHICS PROGRAMS. *Экономика и социум*, (5-1 (120)), 813-818.

21. Sindarova, S. M. (2024). METHODOLOGY OF STUDENT CAPACITY DEVELOPMENT IN TEACHING ENGINEERING GRAPHICS. *Академические исследования в современной науке*, 3(25), 194-199.

22. Riksiboyev, U. T. (2022). THEORY OF CREATING PERSPECTIVE IMAGES. *Scientific Impulse*, 1(2), 438-443.

23. Синдарова, Ш. М., & Ортиков, О. А. (2022). Использование современных учебных пособий в обучении.

24. Синдарова, Ш. М., Абдурахимова, Ф. А., & Халилова, Х. Э. (2022). МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ НАУКИ ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКИ). In *Сборник научных трудов по итогам Международной научной конференции, посвященной 135-летию со дня рождения профессора ВЕ Зотикова* (pp. 37-43).

25. Рихсибоев, У. Т., Халилова, Х. Э., & Синдарова, Ш. М. (2022). AutoCAD дастуридан фойдаланиб деталлардаги ўтиш чизиқларини куришни автоматлаштириш. *Science and Education*, 3(4), 534-541.

26. Mirzaliyev, Z. E., & Sindarova, S. TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH (CHIZMACHILIK FANI MISOLIDA). *ТОШКЕНТ-2021*, 33.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174372>

SURXON VOHASIDAGI CHO‘L YERLARINI O‘ZLASHTIRISHDA TUMANLARNING TASHKIL ETILISHI

Amirqulov Muhiddin G‘ulomovich

Termiz davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

amirqulovmuhiddin@gmail.com

ANNONTATSIYA

Maqolada Surxon vohasidagi cho‘l hududlarni o‘zlashtirish natijasida tumanlar, kolxoz va sovxozlarning tashkil etilishi va yerlarning o‘zlashtirish jarayonlari, shuningdek, o‘zlashtirilgan yerlarning paxtaga ixtisoslashtirilishi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *Surxon vohasi, o‘zlashtirish, tumanlar va sovxozlar, jarayonlar.*

ANNONTATION

The article examines the organization of districts, collective farms, and state farms as a result of the development of desert territories in the Surkhan Oasis, and the processes of land development, as well as the specialization of the developed lands in cotton cultivation.

Key words: *Surkhan oasis, development, districts and state farms, processes.*

KIRISH.

Vohada qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida ikkinchi jahon urushidan keying yillarda o‘zlashtirilmagan yerlarga suv chiqarish ishlari jadal olib borildi. Buning natijasida yangi xo‘jaliklar paydo bo‘ldi. Ikkinchi jaxon urushidan keyingi yillarda Markaz talabi bilan O‘zbekistonda, shu jumladan, Surxondaryo viloyatida xam yangi yerlarni o‘zlashtirish jadal sur‘atlar bilan olib borildi. 1950-60 yillarda Uchqizil,

Degrez, Janubiy Surxon suv omborlari, Sherobod magistral kanali qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu davrning yana bir muxim yangiligi, Amudaryodan nasoslar yordamida suv chiqarilishi bo'ldi. Bajarilgan ulkan ishlar natijasida Surxon voxasining suv bilan ta'minlanishi ancha yaxshilandi. Surxon-Sherobod voxasida yirik paxtakor rayonlari tashkil topdi.

ASOSIY QISM.

XX asrning 60-80-yillarida O'zbekistonda yirik sug'orish inshootlarini barpo etishga kirishildi. Bu jarayon sal avvalroq ya'ni VKP(b) MK va SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1945-yil iyul va 1946-yil 2-fevralda chiqqan buyruqlariga asosan amalga oshirildi. Surxondaryo viloyatida ulkan irrigatsiya tarmoqlarini bunyod etish davri boshlandi. Surxon-Sherobod vohasidagi dehqonchilik Sherobodaryo va Zang kanalidagi sug'orish tizimlarini qayta ta'mirlash bilan bog'liq edi. Jarqo'rg'on va Termiz tumanlari kolxozchilari tomonidan 1949-yilda uzunligi 23 km bo'lgan Kakaydi va 1956-yilda Zang (uzunligi 90 km) kanallari qurildi. Shu bilan birga, Sho'rchi tumanidagi Shaldiraq, Oqqo'rg'on, Oqtepa botqoqliklari, Denov tumanidagi Kampirko'1 botqoqligi, Jarqo'rg'on tumanidagi Oqqo'rg'on, Garangto'qay va Zarkamar Turkmanqishloq, Jaloir, Qumqo'rg'on botqoqliklari, Sariosiyo tumanidagi Jartekis va Fayzobod botqoqliklari o'zlashtirildi. Yangi o'zlashtirilgan yerlar hisobiga 1946-yilda paxtaning hosildorligi 14,8 sentnerga, 1953-yilda esa 25,9 sentnerga yetdi. Ingichka tolali paxta maydonlari esa 10 barobar oshdi. Sherobod va Boysun tumanlari mehnatkashlarining kuchi bilan Sho'rchi tumanidagi Mirshodi dashti o'zlashtirildi. Yangi ochilgan massivga suv o'tkazish uchun Hazarbog' kanalining keyingi navbati qurildi. Natijada Sherobod va Boysun tumanlarining bir qismi suv bilan ta'minlandi.

1950-yilda Surxon-Sherobod vohasining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida kompleks mexanizatsiyani kiritish maqsadida sug'orishning yangi tizimiga o'tish, sug'oriladigan hududlarni kengaytirish, suvni tejash va yerning sho'rlanishi oldini olish masalasida muhim ishlar qilindi. O'tkazilgan tadbirlar natijasida, qishloq xo'jaligida ekin maydonlari kengayib, 1950-yilda 155,2 ming gektarni tashkil etdi, shundan 59,7 ming gektari paxta maydonlari edi. 1953-yilda paxta ekiladigan

maydonlar miqdori 1946-yilga nisbatan 161 foizga oshdi. Urushdan keyingi davrda Surxon-Sherobod vohasidagi irrigatsion-meliorativ tadbirlarning xususiyati shunda ediki, birinchidan, mavjud tizimlarda suv ishlarining eng yaxshi sharoitlarini ta'minlash uchun choralar ko'rildi. Ikkinchidan, sug'oriladigan yerlar va maydonlar o'zlashtirilib, qishloq xo'jaligi tarmog'iga kiritildi. Biroq, suv manbalarining kamligi voha qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlash imkonini bermadi. Bu muammoni faqat Surxondaryo suvidan unumli foydalanish yo'li bilangina hal qilish mumkin edi. Buning uchun Surxondaryodan yangi sug'orish kanallarini qurish va Amudaryoga tushadigan bahorgi va qishki suvlarni yig'ib, xalq xo'jaligi manfaatlarini yo'lida ishlatish lozim edi. Yuqoridagi muammoni hal etish uchun SSSR Ministrlar Soveti 1952-yil 2-sentabrda Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida sig'imi 165 mln m³ ga teng bo'lgan Uchqizil suv omborini qurish va 10 ming gektar yangi yerni ochish bo'yicha maxsus qaror qabul qildi. Sovet hokimiyati paxta yakkahokimligini mustahkamlash maqsadida kolxozlarni suv bilan ta'minlashga alohida e'tibor berib, Surxondaryo viloyatidagi Uchqizil va Toshkent viloyatidagi Tuyabo'g'iz suv omborlariga 48 million so'm mablag'lar ajratib, ushbu suv omborlarni tezlatishni davlat nazoratiga oldi. Shuningdek, Zang kanalini uzaytirish va qayta ta'mirlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Ushbu qarorni amalga oshirish bo'yicha 27 kishidan iborat Kolxozlararo maxsus kengash tuzildi. Zang kanali bo'yicha o'tkazilgan yer ishlarining umumiy hajmi 400 ming m³, butun kolxoz ichki sug'orish va kollektor tizimini qayta qurish uchun 300 ming m³ ishlar bajarildi. Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun 2,5 mln so'm ajratildi. Surxon-Sherobod hududini o'zlashtirish, yangi sug'orish tizimlarini qurish va kollektor-zovurlarni ishga tushirish maqsadida mexanizatsiya kuchidan foydalanishga katta e'tibor berildi. 1953-yilda voha qishloq xo'jaligiga 6 mingta traktor va 2200 ta avtomashinalar jalb etildi. Irrigatorlarning mehnatlari tez orada ko'zga ko'rindi.

1958-yilda Sho'rchi tumanidagi Xo'jaipok qishlog'i yonida suv sig'imi 13 mln m³ bo'lgan Namuna-Degrez suv ombori qurib bitkazildi. Bu inshootlarga suv kanallar orqali quyib to'ldiriladi va xalq xo'jaligida ishlatiladi. Namuna-Degrez suv ombori

ancha quruq bo'lgan 1957-yilda rasman qabul qilinmay turib dalalarga 3 mln m³ suv bergan va paxta dalalarini qurib qolishdan saqlab qolgan edi. 1957-1958-yillarda «Sredazgidrovodxlopok» O'rta Osiyo paxtachilik instituti yopiq gorizontaal drenaj qurish bo'yicha loyiha ishlarni tayyorladi. Sho'rlangan yerlarga drenaj moslamalarini o'rnatish dastlab Yangiobod sovxozida sinovdan o'tdi. 1963-yili Yangiobod sovxozida jamoasi 3800 gektarning har biridan 18 sentnerdan hosil olib, 6793 tonna paxta yetishtirdi.

NATIJALAR.

1972-yilga qadar Sherobod magistral kanal hududi bo'yicha 8 ta paxtachilik sovxozida tashkil etildi. 1968-yilda Surxon-Sherobod vohasidagi sovxozlar davlatga 28346 tonna paxta topshirdilar. Surxon-Sherobod vohasida 1958-1968-yillarda paxta maydonlari 82,451 gektardan 111,500 gektarga yetdi. Agar 1958-yilda Surxon-Sherobod vohasida 236 ming tonna paxta davlatga topshirilgan bo'lsa, 1968-yilga kelib bu ko'rsatkich 346,3 ming tonnaga yetdi. «Janubiy Surxon suv ombori» kompleksida bajarilgan ishlar natijasida viloyat janubida yilning istalgan davrida sug'orish uchun yetarli miqdorda suv to'plandi. Suv kam bo'lgan sharoitga moslab asrlar davomida yaratilgan agrotexnika usullarini tanqidiy nazardan qayta ko'rib chiqildi. Chunki o'zlashtirilayotgan vodiyni moddiy texnika va tabiiy-iqlimiy sharoitlaridan yanada to'laroq foydalanish payti kelgan edi. Irrigatsiya-melioratsiya ishlari tugallangach, viloyat janubida sug'oriladigan yerlarning miqdori 180 ming gektarga yoki viloyatning barcha tumanlaridagi yerlardan ancha ko'p miqdorga yetkazildi. 1969-yilga kelib viloyatdagi jami sug'oriladigan yerlarning 90 foizidan ko'prog'i suv omborlarida to'planadigan suvlar bilan sug'orila boshlandi. Qo'riq va hamma narsaga boy hosildor yerlar zamonaviy texnika, qulay manzilgohlarga ega bo'lsa-da, ishchi kuchiga juda muhtoj edi. Shuning uchun qo'riq yerlarga Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Denov tumanlaridan, Qashqadaryo viloyati, shuningdek, qo'shni Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari va boshqa joylardan quruvchilar, kolxozchilar, ishchilar, mexanizatorlar, agronomlar va paxtakorlar jo'natildilar. 1967-yilning bahorigacha Sherobod dashtiga o'zining oilalari, brigadalari bilan viloyatning hamma tumanlaridan 3000 nafar dehqon oilalari

ko'chirib keltirildi. Masalan: «Sovetobod» sovxoziga Sho'rchi tumani Y.Oxunboboyev nomli kolxozning kompleks mexanizatsiyalash brigadasi boshlig'i, Sotsialistik Mehnat Qahramoni Sh.Qudratov, «Leninobod» kolxozidan ilg'or mexanizatorlar S. Boboqulov, A. Qamchiyev, «Jdanov» nomli kolxozdan N.Umaraliyev, M.Hayitov va boshqalar shular jumlasidandir. Qiziriq dashtida yangi tashkil etilgan Y. Oxunboboyev nomli sovxozni ishchi kuchi bilan ta'minlash maqsadida unga Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on va Sho'rchi tumanlari, Tojikiston SSR, Qo'rg'ontepa viloyati Shaartuz tumanidan aholi ko'chirib kelindi. Xo'janazar To'rayev, Renat Alimov, mexanizatorlar Juma Jonpo'latov, Eshdavlat Rahmonov, Omon Himmatovlar birinchi ko'chib kelganlardan edi. Yana ushbu sovxozga Sho'rchi tumanining Engels nomli kolxozidan mashhur paxtakor mexanizator – Allamurod Yoqubov va uning brigad bo'yicha o'rtoqlari – aka-uka Olloyor va Boboyor Eshboevlar, Abdusattor Mavlonov, Abdulla Mengliev va boshqalar ko'chib kelishdi.

MUHOKAMA.

1968 yilda Qiziriq massivida Lenin nomli 6-qo'riq sovxoz xo'jaligi tashkil etildi. Uning asosiy o'zlashtiruvchilari mashhur paxtakorlar – Ergash va Fayzullo Hasanovlar, Bozor Geldiyorov, Jarqo'rg'on tumanining «Sharq yulduzi» kolxozidan agronom Chori Qurbonov, traktorchi Salom Bozorov, «Surxon» sovxozidan tajribali paxtakor Chori Payg'amov, Saidahmad Boboev, Aliyor Xoliqovlar, Termiz tumanidagi «Jdanov» nomli kolxozdan brigadir Toshpo'lat Jumayev, u bilan birga mexanizatorlar Yusuf Qoraqulov va Eshquvvat Egabo'riyevlar ko'chib kelishdi. Sherobod tumanida 1965-1968-yillarda 4 ta davlat xo'jaligi tuzildi. 1960-yili Sherobod cho'lida 4 ming 200 gektar yer o'zlashtirilgan bo'lsa, 1969-yilga kelib, bu ko'rsatkich 18 ming 300 gektarga yetdi va 22 ming tonna paxta olindi. Surxondaryo viloyati esa 1968-yilda davlatga 347 ming tonna paxta topshirdi.

Vohada yerlarning jadallik bilan o'zlashtirilishi natijasida Qiziriq cho'lida ma'muriy tuman tashkil etish uchun yetarli shart-sharoitlar vujudga keldi. O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti qaroriga binoan 1975-yil 6-martdagi qaroriga muvofiq

o'zlashtirilgan cho'l hududlarda Lenin yo'li tumani (hozirgi Qiziriq) tashkil etildi. Yangi tumanning tashkil etilishida Normo'min Turopov, Abdusattor Hayitov, A.Antones, E.Tursunov, Oytoshxon G'iyosova va boshqalar fidoyilik namunalarini ko'rsatdilar. Cho'llarni o'zlashtirishda Xurram Toshmirov, To'xta Haydarov, Muzaffar Umarov, Mamatali Umirov, Normo'min Kamolov, Normurod Norqobilov singari paxtakor, chorvador va boshqa kasb egalarining xizmati katta bo'ldi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Surxon vohasida qishloq xo'jaligi yerlarining o'zlashtirilishi natijasida, vohada bir qator xo'jalik birlashmalar, kolxoz va sovxozlar hamda bir qator tumanlar tashkil qilindi. Jumladan, yerlarning jadallik bilan o'zlashtirilishi natijasida Qiziriq cho'lida ma'muriy tumani, Yangi tumanning tashkil etilishida Normo'min Turopov, Abdusattor Hayitov, A.Antones, E.Tursunov, Oytoshxon G'iyosova, Xalil Isayev va boshqalar fidoyilik namunalarini ko'rsatdilar. Cho'llarni o'zlashtirishda Xurram Toshmirov, To'xta Haydarov, Muzaffar Umarov, Mamatali Umirov, Normo'min Kamolov, Normurod Norqobilov singari paxtakor, chorvador va boshqa kasb egalarining xizmati katta bo'ldi. Shuningdek, Sherobod tumanida 1965-1968-yillarda 4 ta davlat xo'jaligi tuzildi hamda ushbu hududlarga boshqa hududlardan aholi ko'chirib keltirilishi natijasida yangi qishloqlar va aholi posyolkalari tashkil topdi.

Shuningdek, yana shuni alohida aytish kerakki, vohada o'zlashtirilgan yerlarda asosan paxtaga ixtisoslashtirilishi natijasida yerlarning melorativ holati ishdan chiqib, sho'rlanish holatlari yuzaga keldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Якубова Д. Ўзбекистонда пахта яккаҳоқимлигининг ўрнатилиши ва унинг натижалари. – Тошкент, 2021. Б. 99.
2. Норқобилов А., Алимов Ч. Юртпарварлар юрти. Қизирик тумани ҳаётидан лавҳалар. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2010. –Б. 12.
3. Истомин М.С. Сурхондарёда ингичка толали пахтадан юқори ҳосил олиш агротехникаси. –Б. 4.
4. Газета «Правда Востока». 30 декабря, 1970 года.
5. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 580-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 37-варақ
6. Лапасов А.Ч. Истиқлол йўли: Ангор. –Термиз, 1992. –Б. 4–5.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174375>

KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ORQALI FIZIKA FANINING BO'LIMLARINI O'RGANISH

Ergashev Asqar Jong'oboyevich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

“Fizika, biofizika va tibbiy fizika kafedrası (PhD) assistenti

Nabiyev Abdullo Abduvoxidovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

“Fizika, biofizika va tibbiy fizika kafedrası assistenti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ushbu bo'shliqni to'ldirishga hissa qo'shish hamda o'z ichiga olgan yangi o'quv dasturini eksperimental qo'llab-quvvatlash maqsadida o'rta maktab darajasida zamonaviy fizika fanlari o'qitiladi. Yangi ishlab chiqilgan kompyuter muhitida. Interfaol metod ekran tajribasi kiritildi. Ushbu dasturlar yaqin mavzularni konkretlashtirish va zamonaviy fizikaga kirishda ularni yanada tushunarli qilish uchun katta hissa qo'shadi.*

***Kalit so'zlar:** Kompyuter texnologiyalari yordamida ta'lim, Interfaol metod, ekranli tajribalar, fizika ta'lim.*

Kirish: Hozirgi vaqtda O'rta maktabda qo'llanilayotgan o'qitish usullarini ko'rib chiqsak, “o'qituvchiga yo'naltirilgan”, “qora doska” ta'limning hamon ustunlik qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu o'qituvchi tomonidan boshqariladigan va boshqaradigan "Bir tomonlama" o'rganish uslubidir. Biroq, ta'limning umumiy maqsadlaridan biri o'quvchilarga "Nimani va qanday o'rganishni" Tushuntirishdir. Boshqacha qilib aytganda, bu "Qanday o'rganishni o'rgatish". Chunki bizning

davrimiz “Bir umr o‘rganishni” talab qiladi. Ta’lim hayotimizdan keyin biznes muhitiga kirganimizda ham, bilimlarimizni yangilash va yangilarini qo‘shish tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol ekran tajribalari (IED): Interaktiv ekran tajribalari (IED) birinchimarta 1997 yilda Germaniyaning Berlin universitetida Kirshteyn va Rass tomonidan ishlab chiqilgan "Tirik fizika kitobi" loyihasi doirasida ko‘p sonli talabalar ishtirokidagi xizmat (muhandislik kurslarida) fizika qo‘llanilgan. Ushbu tajribalarda interaktivlik (o‘zaro ta’sir).

Xulosa: Ta’lim va ta’lim sohasida texnologik asbob va jihozlar sifatida tez-tez qo‘llaniladigan kompyuter dasturlarining eng muhim xususiyatlari har qanday joyda ko‘p vaqt talab qilmasdan osongina qo‘llanilishi mumkin. Dasturlar CD yoki floppi disklarga yozilganligi sababli, ularni maktabda sinfda ham, uyda ham tinchroq muhitda bajarish va takrorlash mumkin. Shu tariqa o‘quv muhitining maktabdan tashqarida tarqalishi yanada ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Машбиц Ye.И. Психолого-педагогические проблемы компьютеризации обучения / E.И. Мащбиц. - М.: Педагогика, 1988. - 35с.
2. Маланюк П.М. Повышение эффективности самостоятельной работы учащихся при изучении физики на основании использования компьютерной техники: автореф. дисс. ... канд. пед.наук: 13.00.02 / П.М. Маланюк. - Киев, 991. -24 с.
3. Jurakulov, S. Z. (2023). FIZIKA TA’LIMI MUVAFFAQIYATLI OLIISH UCHUN STRATEGIYALAR. Educational Research in Universal Sciences,
4. Бузаубакова К.Ж. Новые педагогические технологии. - Тараз, 2013. 78 с.
5. Jurakulov, S. Z. O., & Nurboyev, O. (2023). FIZIKA FANINING BO‘LIMLARINING RIVOJLANISHDAGIDAGI ASOSIY AHAMIYATI.

6. Ergashev A.J. Олий таълим тизимида “Йонлаштирувчи нурланишлар” мавзусини модуль тизимида ўқитиш усуллари ЎзМУ хабарлари вестник нууз аста нууз мирзо улугбек номидаги ўзбекистон миллий университети илмий журнали тошкент – 2022 yil 202-204 betlar.

7. Ergashev A.J. Oliy ta’limda yadro texnologiyalari fanini o’qitishda didaktik o’yin topshiriqlarini tayyorlash texnologiyasi Scientific Bullettin of NamSU- Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_7-сон 353-359 b

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174380>

**TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IONLOVCHI
NURLANISHLARNING TABIIY MANBALARI. SURUNKALI VA O'TKIR
NUR XASTALIKLARI MAVZUSINI "KLASTER METODI" YORDAMIDA
O'QITISH**

Ergashev Asqar Jong'oboyevich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti "Fizika, biofizika va tibbiy fizika kafedrası
(PhD) assistenti

Masharipova Soxiba Maxmud qizi

Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti 2 kurs talabasi

Rajapboyeva Nozila Davron qizi

Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti 2 kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Tibbiyot oliy o'quv yurti talabalariga "klaster" tuzish jarayoni va qoidalarini tushuntirildi. Maqolada "Klaster" metodini guruh yoki kichik guruhlarga bo'lib har bir guruhga alohida topshiriq berib uni boshqarish yoki nazorat qilinadi. Talabalar tomonidan mavzuni o'zlashtirilishi bilim va ko'nikmalar hosil bo'lish darajasi keng o'rganiladi.

***Kalit so'zlar:** klaster metod, radiatsiya doza dozimetrlar, radiometr, tirik kameralari, ssintillasion yarimo'tkazgichli va spektrometrlar, fotoemulsiyalar, aspirasion.*

Tibbiyot oliy o'quv yurti talabalariga Ionlovchi nurlanishlarni odam organizmiga ta'sirini o'rganish tibbiyotning bo'limlaridan biri bo'lib uni radiobiologiya va biofizika fanlarida birinchi kursdan va "Radiobiologiya", "Onkologiya" va "Travmatologiya" kafedralarida yuqori kurslarda amalga oshiriladi. Mavzuni amaliy darsda biz "Klaster" usulida o'qitilishini ko'rib chiqamiz. Mavzu va darsni o'qitish usuli oldindan talabalarga vazifa qilib

beriladi. Mavzu Samarqand davlat tibbiyot universitetining platforma tizimida va adabiyotlarda yetarlicha darajada yoritilgan.[1.2]. Hozirgi vaqtda Universitetimizda 8.5 talik dastur yaratilgan bo‘lib 11200 kishi hozirgi vaqtda foydalanadi. Bu dastur 10 yo‘nalishga ega undan malaka oshirish maqsadida chet elliklar hamdas talaba va o‘qituvchilar foydalanadi. Mavzu uchun 2 soat amaliy dars va 2 soat mustaqil ishlash uchun vaqt ajratilgan bo‘lib professor o‘qituvchi uyga vazifa bilan birgalikda dars rejasini talabalar yozma ravishda beradi.

Reja:

A) Radiatsion nurlanishning odam va hayvon organizmiga ta’siri. Biologik organizmlarni radiatsion nurlanish ta’siriga chidamlilik darajasi. Biologik organizmlarning radiatsion nurlanishlarga sezgirligini baholash B) Radiatsion nurlanishning odam organizmiga umumiy ta’siri, nurlanish kasalliklari. O‘tkir va surunkali nur kasalliklari. D) Nurlanishdan keyingi organizmdagi tiklanish jarayonlari E) Ionlovchi nurlanishlarni organism bilan ta’sirlanish mehanizmlari F) Ionlovchi nurlanish manbalari va qayd qilish usullari Professor-o‘qituvchi talabalarga “klaster” tuzish jarayoni va qoidalarini tushuntiradi. “Klaster”ni guruh yoki kichik guruhlariga bo‘linib har bir guruhga alohida tuzish mumkin. Bunda har bir kichik guruh uchun alohida topshiriq beriladi. Guruh bilan ishlashda guruh a’zolarini har biri quyidagi qoidalarga amal qiladi. a) o‘z fikrlari va mulohazalarini hurmat qilishlari lozim. b) berilgan topshiriqlar bo‘yicha faol, hamkorlikda va masuliyatni his qilib ishlashlari lozim c) yordam kerak bo‘lsa o‘zaro so‘rashlari mumkin. d) yordam so‘raganlarga ko‘maklashish lozim. e) guruhdagi talabalarni baholashda ishtirok etishlari ya’ni faol talabalarni ajratib olishga ishtirok etishlari lozim Mavzu yuzasidan didaktik materiallar Radiatsion nurlanish ta’siriga sezgirlik bu hujayra, to‘qima va biologik organizmning ionlashtiruvchi nurlanish ta’siriga ko‘rsatuvchi javob reaksiyasining namoyish bo‘lish darajasi hisoblanadi. Radiatsion sezgirlik qonuni Bergone-Tribondo prinsipiga ko‘ra quyidagicha ta’riflanadi. Xujayralar qanchalik darajada tez bo‘linsa mitoz sikli davomiyligi qanchalik uzoq vaqtni o‘z ichiga olsa va

shuningdek hujayralar qanchalik darajada kamroq differentatsiyalangan bo'lsa demak radiatsion nurlanish

ta'siriga shunchalik darajada yuqori sezgirlik hossasi namoyon bo'ladi.

Ionlovchi zarrachalarni jismlar bilan o'zaro ta'sirlashishi quyidagi kattaliklar bilan ta'riflanadi.

a) Ionlanishni chiziqli tezligi. b) Chiziqli tormozlanish xususiyati. c) O'rtacha yugurish yo'li. Jismlarni ionlashishi va uyg'onishi birlamchi jarayonlar bo'lsa ikkilamchi jarayonlar bo'lib jism molekulalarining issiqlik harakati tezligini ortishini xarakteristik roentgen nurlarini paydo bo'lishini radiolyumensatsiya hodisasi kuzatilishi va kimyoviy jarayonlar sodir bo'lishi mumkin. Nurlanishlarni jismlar bilan ta'sirlashgandagi zaiflanishi jarayonlar turlicha bo'lishiga qaramay intensivlikni kamayishi eksponensial qonun bo'yicha amalga oshadi. Gamma kvantlarni moddalardan o'tishi roentgen nurlanishlari kabi energiyasiga qarab quyidagi jarayonlarga bo'linadi.

1. Kogerent sochilish

2. Kompton effekti

3. Fotoeffekt

Birinchi yondashishda insonga tashqi radiasion nurlanish kuchliroq ta'sir ko'rsatadi deb o'ylash mumkin, biroq ba'zi hollarda, ya'ni binova inshootlar xonalari ichida radiasion nurlanish darajasi tashqi nurlanishga nisbatan chamasi 30% lar yuqori bo'lishi mumkinligi haqida ilmiy ma'lumotlar bor [1]. Buning sababi xona devorlaridagi qurilish materiallari bilan kirib kelgan tabiiy radioaktiv moddalardan chiqayotgan nurlanish deb taxmin qilinmoqda, chunki xonalar asosan to'rtburchakli, yopiq shaklda, shu sabab nurlanish geometriyasi aktivlik darajasining keskin oshib ketishiga olib keladi. Radiasion nurlanishni bilish, uni to'g'ri o'lchay olish radioaktivlik haqidagi ma'lumotlarning ob'ektivligini ta'minlaydi, radiasion havfsizlik choralari kuchaytiradi va radiasiya nuqtai nazaridan havfsiz qurilish materiallarini ishlab chiqarish texnologiyalariga kerakli tavsiyalarni ko'rsatish imkonini beradi. Inson salomatligini ta'minlash uchun endilikda tabiiy qurilish materiallarining nafaqat

yig'indi radioaktivligini, balki ulardagi radionuklidlar tarkibini hamda radiasion nurlanishdagi ulushlarini bilishni taqozo etadi. Organ va to'qimalarning nurlanish darajasiga sezgirligi quyidagicha bo'ladi:

Jadval 1; A'zo va to'qimalarning nurlanish darajasiga sezgirligi:

Organ yoki to'qima Doza (Gr) Teri 1 Urug'don 0.5-1 Tuxumdon 2.6-6 Ko'rish organlari 3-6 Hazm qilish tizimi 1-3 Jigar 15-19 Nafas ilish organlari 20

Radiatsion nurlanish ta'sirida odam organizmida quyidagi ta'sir effektlari vujudga keladi:

I) Somatik ta'sir effektlari;

a) Nurlanish kasalligi;

b) Leykoz;

v) O'sma kasalliklari;

II) Genetik ta'sir effekti;

a) Gen mutasiyalari;

b) Xromasoma abberasiyasi;

Ionlovchi nurlanishning stoxastik ta'siri :

1) Leykomiya (qon saratoni) ;

2) Oshqozon limfomasi (saratoni);

3) Melonoma (teri saratoni) ga ko'p uchraydi.

Yuqoridagi ta'sir effektlarini aniklash uchun turli asbob- uskunalar hamda turli uslublar qo'llaniladi. Asboblar misoliga dozimetrlar, radiometrlar, terik kameralari, ssintillasion va yarimo'tkazgichli spektrometrlar va fotoemulsiyalar kiradi.

Ko'rinib turibdiki, biz tekshirgan tabiiy qurilish materiallari tarkibidagi radionuklidlarning solishtirma aktivlik darajasi talablarga javob beradi va ulardan turar joy yoki ijtimoiy binolarni qurishda foydalansa bo'ladi[6]. Mazkur natijalar bizning dastlabki urinishlarimiz hisoblanib, ular bo'yicha bizga bildiriladigan har qanday ijobiy yoki tanqidiy fikrlar izlanishlarning amaliy uslubini sayqallash, namunalar ko'lamini kengaytirish, qurilish materiallarini ishlab chiqarish jarayonida radioaktivlikni pasaytirish bo'yicha amaliy texnologik tavsiyalarni berishda qo'l

keladi. Xususan, Samarqand viloyatining turli hududlarining suvlari tarkibidagi radioaktiv elementlar miqdorini baholashni va Payariq tumanidagi qurilish ob'ektlari misolida qurilish materiallarining radioaktivlik darajasini o'rganish kabi izlanishlarni rejalashtirganmiz.

ADABIYOTLAR

1. Krisyuk E.M. Radiasionniy fon pomesheniy. – M.: Energoatomizdat, 1989.
2. Vasidov A. Radon va uni aniqlash usullari.– T.: «O'zbekiston», 2015 3. www.radek.ru Ssintillyasionniy spektrometr-radiometr gamma- i beta- izlucheniye MKGB-01 «RADEK». Rukovodstvo po ekspluatatsii. – S.Pb., 2005
4. www.radek.ru Analiticheskiy kompleks «RADEK». Metodika izmereniye. – S.Pb., 2005.
5. Ergashev A.J., Oliy ta'lim tizimida "Ionlashuvchi nurlanishlar" mavzusini modul tizimida o'qitish usullari ЎЗМУ хабарлари вестник нууз аста нууз мирзо улугбек номидаги ўзбекистон миллий университети илмий журналі тошкент – 2022 yil 202-204 betlar.
6. Ergashev A.J., Oliy ta'limda yadro texnologiyalari fanini o'qitishda didaktik o'yin topshiriqlarini tayyorlash texnologiyasi Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_7-сон 353-359 b
7. Arzibekov U.R., Narbayev M.N., Jalilov M. X "tabiiy qurilish materiallari radioaktivligi aaaa'innovatsion qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirishning dolzarb muammolari va yechimlari mavzusidagi respublika anjumani materiallari to'plami 2020 y25 dekabr Toshkent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174384>

IONLASHTIRUVCHI NURLANISH MANBALARI BILAN ISHLASHDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

Ergashev Asqar Jong‘oboyevich.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

“Fizika, biofizika va tibbiy fizika kafedrası (PhD) assistenti

askarergashev@rabler.ru

Boyqobilova Zuxra Botir qizi

Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti 2 kurs talabasi

boyqobilovazuxra@gmail.com

Abdugafforova Marjona Ahmat qizi

Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti 2 kurs talabasi

marjonaabdugafforova098@gmail.com

***Annotatsiya.** Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan ishlashda xavfsizlikni ta'minlash radiatsiya xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, himoya to'siqlarini tashkil etish, muntazam nazorat va buxgalteriya hisobi, xodimlarni to'g'ri o'qitish va o'qitishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladigan asosiy vazifadir. Ushbu choralarga qat'iy rioya qilish radioaktiv materiallar bilan ishlaydigan xodimlarning sog'lig'i uchun xavflarni minimallashtirish va ishlarning xavfsizligini ta'minlashga imkon beradi.*

***Kalit so'zlar:** Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari, Alfa nurlar, Beta nurlar, Gamma nurlar, Rentgen nurlar, Neytron zarrachalari, Proton zarrachalari, DNK, radiatsiya.*

Tabiiy ionlashtiruvchi nurlanish manbalariga Yer yuzida ma'lum bo'lgan radioaktiv elementlar, kosmosdan kelayotgan nurlar kiradi. Sun'y ionlashtiruvchi nurlanish manbalari insoniyat tomonidan laboratoriya usulida reactor va tezlargichlarda ishlab chiqilgan texnogen elementlar, shuningdek rentgen nurlari qurilmalari hisoblanadi. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari qatoriga quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Alfa nurlar 2. Beta nurlar 3. Gamma nurlar 4. Rentgen nurlar 5. Neytron zarrachalari 6. Proton zarrachalari 7. Kosmosdan keluvchi myu zarralari va h.k.

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan ishlash mobaynida ularning qanchalik biologic ta'sirlarini ham bilish talab etiladi. Radiatsiyaning biologik ta'sirining tabiati va mexanizmlari Energiyani to'plash. Radiatsiyaning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, ionlashtiruvchi nurlanish o'zi bilan o'zaro ta'sir qiladigan atomlardan elektronlarni chiqarib yuborish uchun yetarli darajada mahalliy energiyani to'plashga qodir. Shunday qilib, radiatsiya tirik hujayralar orqali o'tayotganda atomlar va molekulalar bilan tasodifiy to'qnashganda, kimyoviy bog'lanishlarni buzadigan va ta'sirlangan hujayralarni shikastlaydigan boshqa molekulyar o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan ionlar va erkin radikallarni keltirib chiqaradi. Ionlashtiruvchi hodisalarning fazoda taqsimlanishi radiatsiyaning og'irlik faktoriga bog'liq, w_R nurlanish darajasi..

1. Barcha qiymatlar tanadagi radiatsiya hodisasiga yoki ichki manbalar uchun manbadan chiqarilgan nurlanishga tegishli.

2. DNK bilan bog'langan yadrolardan chiqarilgan Oje elektronlari bundan mustasno.

DNKga ta'siri. Hujayradagi har qanday molekula radiatsiya ta'sirida o'zgarishi mumkin, ammo DNK o'z ichiga olgan genetik ma'lumotlarning ortiqcha miqdori cheklanganligi sababli eng muhim biologik maqsaddir. O'rtacha bo'linuvchi hujayrani o'ldirish uchun etarlicha katta bo'lgan so'rilgan nurlanish dozasi - 2 Gy - uning DNK molekulalarida yuzlab zararlanishlarni keltirib chiqarishi uchun etarli (Ward 1988). Bunday lezyonlarning ko'pchiligi tuzatilishi mumkin, ammo zich ionlashtiruvchi nurlanish (masalan, proton yoki alfa zarralari) natijasida hosil bo'lganlar, odatda, siyrak ionlashtiruvchi nurlanish (masalan, rentgen yoki gamma nurlari) natijasida hosil bo'lganlarga qaraganda kamroq tuzatiladi (Goodhead 1988). Shuning uchun zich ionlashtiruvchi (yuqori LET) nurlanishlar shikastlanishning ko'p shakllari uchun siyrak ionlashtiruvchi (past LET) nurlanishlarga qaraganda odatda yuqori nisbiy biologik samaradorlikka (RBE) ega (ICRP 1991). Genlarga ta'siri.

Ta'mirlanmagan yoki noto'g'ri ta'mirlangan DNKning shikastlanishi mutatsiyalar ko'rinishida ifodalanishi mumkin, ularning chastotasi dozaning chiziqli, chegara bo'lmagan funktsiyasi sifatida ortadi, taxminan 10-5 10 uchun-6 Lokus boshiga Gy (NAS 1990). Mutatsiya tezligining dozaga mutanosib bo'lib ko'rinishi, DNKning bitta ionlashtiruvchi zarracha orqali o'tishi, printsiplial jihatdan, mutatsiyaga olib kelishi uchun etarli bo'lishi mumkinligini anglatadi (NAS 1990). Chernobil avariya qurbonlarida suyak iligi hujayralarida glikoforin mutatsiyalari uchun doza-javob munosabatlari atom bombasidan omon qolganlarda kuzatilganiga juda o'xshaydi (Jensen, Langlois va Bigbee 1995). Xromosomalarga ta'siri. Genetik apparatning radiatsiyaviy shikastlanishi, shuningdek, xromosomalar soni va tuzilishidagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin, ularning chastotasi radiatsiya ishchilarida, atom bombasidan omon qolganlarda va ionlashtiruvchi nurlanishga duchor bo'lganlarda dozaning oshishi kuzatilgan. Inson qon limfotsitlaridagi xromosoma aberratsiyalari uchun doza-javob munosabatlari yetarlicha yaxshi tavsiflangan, shuning uchun bunday hujayralardagi aberratsiyalar chastotasi foydali biologik dozimetr bo'lib xizmat qilishi mumkin (IAEA 1986). Hujayralarning yashashiga ta'siri. Nurlanishga eng erta reaksiyalar orasida hujayra bo'linishini inhibe qilish kiradi, u ta'sir qilishdan so'ng darhol paydo bo'ladi, dozaga qarab darajasi va davomiyligi o'zgaradi. Mitozning inhibitsiyoni xarakterli o'tkinchi bo'lsa-da, genlar va xromosomalarning radiatsiyaviy shikastlanishi sinf sifatida yuqori radiosensitiv bo'lgan bo'linuvchi hujayralar uchun halokatli bo'lishi mumkin (ICRP 1984). Ko'payish qobiliyati nuqtai nazaridan o'lchanadigan bo'lsak, bo'linadigan hujayralarning omon qolishi dozaning oshishi bilan eksponent ravishda pasayadi, odatda 1-2 Gy omon qolgan populyatsiyani taxminan 50% ga kamaytirish uchun etarli. To'qimalarga ta'siri. Yetuk, bo'linmaydigan hujayralar nisbatan radiorezistentdir, lekin to'qimadagi bo'linuvchi hujayralar radiosensitiv bo'lib, to'qimalar atrofik holga kelishi uchun intensiv nurlanish ta'sirida yetarli miqdorda nobud bo'lishi mumkin. Bunday atrofiyaning tezligi ta'sirlangan to'qimalar ichidagi hujayra populyatsiyasi dinamikasiga bog'liq; ya'ni jigar va qon tomir endoteliysi kabi hujayra almashinuvi sekin bo'lgan organlarda

bu jarayon odatda suyak iligi, epidermis va ichak shilliq qavati kabi tez hujayra almashinuvi bilan tavsiflangan organlarga qaraganda ancha sekinroq kechadi (ICRP 1984). Shunisi e'tiborga loyiqki, agar nurlangan to'qimalarning hajmi etarlicha kichik bo'lsa yoki doza asta-sekin to'plangan bo'lsa, omon qolgan hujayralarning kompensatsion proliferatsiyasi tufayli shikastlanishning og'irligi sezilarli darajada kamayishi mumkin. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari tabiiy va sun'iy manbalar hisoblanib, ular bilan texnika xavfsizlik choralariga rioya qilgan holda ishlash talab qilinadi. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan ishlashda xavfsizlik mavzusini ko'rib chiqishda aniqlanishi kerak bo'lgan asosiy jihatlarni aks ettiradi: Radiatsiya xavfsizligi qoidalariga rioya qilish Himoya to'siqlarini tashkil etish Muntazam nazorat va buxgalteriya hisobi Kadrlar tayyorlash va tayyorlash

Xodimlarning sog'lig'i uchun xavflarni minimallashtirish va ish xavfsizligini ta'minlash

1. Radiatsiya xavfsizligi qoidalariga rioya qilish:

- Radiatsiya manbalari bilan ishlashda ko'rsatmalar va qoidalarga qat'iy rioya qilish.
- Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish (xalat, qo'lqop, ko'zoynak, respirator).
- Ish joyidagi radiatsiya darajasini nazorat qilish.
- Radiatsiya manbalari bilan ishlash vaqtini cheklash.

2. Himoya to'siqlarini tashkil etish:

- Radiatsiya darajasini pasaytirish uchun ekranlar va himoya devorlaridan foydalanish.
- Radiatsiya manbai va xodimlar o'rtasida etarli masofani ta'minlash.
- Radiatsiya manbalarini to'g'ri saqlash va tashish.

3. Muntazam nazorat va buxgalteriya hisobi:

- Ish joylarida radiatsiya nazoratini o'tkazish.
- Xodimlarning nurlanish manbalari va dozalarini hisobga olish jurnallarini yuritish.

- Xodimlarni vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazish.

4. Xodimlarni tashkil etish va o'qitish:

- Xodimlarni radiatsiya xavfsizligi qoidalariga o'rgatish.

- Radiatsiya xavfsizligi uchun mas'ul shaxslarni tayinlash.
- Radiatsiyaviy avariya holatida harakatlar rejasini tuzish.

Xulosa. Ionlashtiruvchi nurlanishning inson salomatligiga salbiy ta'siri juda xilma-xil bo'lib, tez o'limga olib keladigan jarohlardan tortib, oylar, yillar yoki o'n yillar o'tgach paydo bo'ladigan saraton, tug'ma nuqsonlar va irsiy kasalliklargacha. Ta'sirning tabiati, chastotasi va jiddiyligi ko'rib chiqilayotgan nurlanish sifatiga, shuningdek, ta'sir qilish dozasi va shartlariga bog'liq. Bunday ta'sirlarning aksariyati nisbatan yuqori darajadagi ta'sirni talab qiladi va shuning uchun faqat baxtsiz hodisa qurbonlari, radiatsiya terapiyasi bilan og'rigan bemorlar yoki boshqa kuchli nurlangan odamlarda uchraydi. Ionlashtiruvchi nurlanishning genotoksik va kanserogen ta'siri, aksincha, dozaning chiziqli chegara bo'lmagan funktsiyalari sifatida chastotani oshirishi taxmin qilinadi; demak, bu ta'sirlar uchun chegaralar mavjudligini inkor etib bo'lmasa ham, ularning chastotasi har qanday ta'sir darajasi bilan ortib borishi taxmin qilinadi. Radiatsiyaning aksariyat ta'siri uchun ta'sirlangan hujayralarning sezgirligi ularning ko'payish tezligiga va farqlanish darajasiga teskari bo'lib, embrion va o'sayotgan bola ayniqsa shikastlanishga moyil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma. Toshkent, 2013. –b.136.
2. O.U.Avlayev, C.N.Jo'rayeva, C.R.Mirzayeva. Ta'lim metodlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: -“Navro'z” nashriyoti, 2017 y. –b.210.
3. Ergashev A.J., Олий таълим тизимида “Ионлаштирувчи нурланишлар” мавзусини модуль тизимида ўқитиш усуллари ЎЗМУ хабарлари вестник нууз аста нууз мирзо улугбек номидаги ўзбекистон миллий университети илмий журнали тошкент – 2022 yil 202-204 betlar.
4. Ergashev A.J., Oliy ta'limda yadro texnologiyalari fanini o'qitishda didaktik o'yin topshiriqlarini tayyorlash texnologiyasi Scientific Bulletin of NamSU- Научный вестник НамГУ- NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_7-son 353-359 b

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174395>

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI RAQAMLI DUNYO UCHUN TAYYORLASH

Mirzakbarova Tursunoy

Quvasoy shahar 2-sonli IDUM ning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bolalarni texnologik savodxonlikka tayyorlashdagi roli, raqamli texnologiyalarning ta‘lim jarayoniga ta‘siri va o‘quvchilarga raqamli xavfsizlikni o‘rgatish muammolarini o‘rganadi. Raqamli platformalar va vositalarning samarali qo‘llanilishi, bolalar uchun xavfsiz raqamli muhit yaratish, texnologik savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun texnologiya integratsiyasi jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari muhokama qilinadi*

***Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich ta‘lim, raqamli texnologiyalar, texnologik savodxonlik, raqamli xavfsizlik, interaktiv ta‘lim, onlayn resurslar, o‘qituvchi roli, ta‘lim jarayoni, bolalar va texnologiya, innovatsion ta‘lim usullari, axborot xavfsizligi.*

Zamonaviy ta‘limda texnologiyaning o‘rni tobora ortib bormoqda. Buni raqamli texnologiyalar va ularning turli shakllarining ta‘lim tizimiga kirib borishi bilan kuzatish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun texnologiyalarni integratsiya qilish nafaqat bilim olish jarayonini osonlashtiradi, balki bolalarning o‘rganish qobiliyatlarini kengaytiradi, ijodiy fikrlash va analitik qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, texnologiyalardan foydalanishning salbiy tomonlari ham mavjud. Bolalar, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, raqamli dunyoda har bir vositadan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganishlari kerak. Raqamli xavfsizlik, axborotdan to‘g‘ri foydalanish, internetda xavfsiz harakat qilish kabi masalalar o‘quvchilarning hayotida muhim o‘rin

tutadi. O'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri – bolalarni raqamli xavfsizlikka o'rgatish, texnologiyalarni samarali va xavfsiz tarzda qo'llashni ularga ko'rsatishdir.

Raqamli Texnologiyalar O'quv Jarayonida: Innovatsion Yondashuvlar

O'qituvchilarga texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish, ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish uchun bir qator innovatsion usullarni qo'llash zarur. Zamonaviy texnologiyalarni o'qitishda qo'llash bolalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Interaktiv Ta'lim Platformalari va Resurslari

Boshlang'ich ta'limda texnologiyalarning qo'llanilishi bolalarning o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Interaktiv platformalar o'quvchilarni nafaqat bilim bilan ta'minlaydi, balki o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, ****Kahoot****, ****Quizizz**** va ****Nearpod**** kabi interaktiv platformalar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini real vaqt rejimida tekshirib, o'zaro raqobatlashishlari mumkin. Bularning barchasi ta'limni qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi. O'quvchilar o'yin shaklida bilimlarini sinashadi, va bu usul ularning motivatsiyasini oshiradi.

Bundan tashqari, ****Google Classroom****, ****Microsoft Teams**** va ****Edmodo**** kabi platformalar orqali o'qituvchilar o'quvchilarga darslar, vazifalar va resurslarni onlayn ravishda taqdim etishlari mumkin. Bu o'z navbatida, o'quvchilarga o'z vaqtida o'zlashtirishni va darslarga oid materiallarni osonlik bilan olish imkonini yaratadi.

Raqamli O'yinlar va O'qitish

Pedagogik o'yinlar texnologiyalardan foydalanishning samarali usulidir. Raqamli o'yinlar o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashlarini rivojlantiradi, shuningdek, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Masalan, ****Minecraft: Education Edition**** o'quvchilarga xususiy mintaqalar yaratish, birgalikda ishlash va muammolarni hal qilishni o'rgatadi. Shuningdek, ****Osmo**** kabi ilovalar bolalar uchun qiziqarli va ta'limga yo'naltirilgan o'yinlarni taklif etadi, bu esa ularga o'yinlar orqali bilim olish imkonini yaratadi.

Video Darsliklar va O'qituvchilarni Raqamli Ta'limga Tayyorlash**

Video darsliklar, online kurslar va o'quv resurslarining mavjudligi o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, **YouTube**, **TED-Ed**, va **Khan Academy** kabi platformalarda o'quvchilarga turli mavzularni chuqur o'rganishga imkon beruvchi video darslar mavjud. Bu platformalar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi, chunki video materiallar bolalarga ko'rish va tinglash orqali ma'lumot olishni osonlashtiradi.

O'qituvchilar uchun esa **Coursera**, **EdX** va **Udemy** kabi platformalarda onlayn kurslar mavjud bo'lib, ularni raqamli ta'limda samarali ishlatish uchun tayyorlash mumkin.

Bolalar Uchun Raqamli Xavfsizlik

Raqamli texnologiyalarni keng qo'llash bilan birga, bolalar uchun xavfsizlik masalalari ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning vazifasi bolalarni raqamli xavfsizlikka o'rgatishdir.

Internetda Shaxsiy Ma'lumotlarni Himoya Qilish

Bolalar internetda o'z shaxsiy ma'lumotlarini qanday himoya qilishni o'rganishlari kerak. O'qituvchilar o'quvchilarga shaxsiy ma'lumotlarini faqat ishonchli manbalar bilan bo'lishishni, shubhali havolalardan saqlanishni va noxush vaziyatlardan qochishni o'rgatishlari zarur. Bolalarga onlayn hisoblar va foydalanuvchi ma'lumotlarini xavfsiz saqlash haqida ham ma'lumot berish lozim.

Ekran Vaxti Va Salomatlik zamonaviy bolalar ko'p vaqtni ekran qarshisida o'tkazishadi, bu esa jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'sir qilishi mumkin. O'qituvchilar bolalarga ekran vaqtini qanday me'yorlashtirish, ko'zlarni qanday himoya qilish, va boshqa jismoniy faoliyatlarni qanday tashkil qilish kerakligini o'rgatishlari lozim. Bunday usullarni sinfda tartibga solish va o'quvchilarga muntazam tanaffuslar qilishni o'rgatish zarur.

Xavfsiz Internet Qidiruvi bolalarni internetdan faqat xavfsiz va ishonchli manbalardan foydalanishni o'rgatish lozim. Shuningdek, o'qituvchilar bolalarni internetdagi noto'g'ri axborotlardan qanday saqlanishni, "fake news" va boshqa manipulyativ materiallarni qanday aniqlashni o'rgatishlari kerak.

O'qituvchilarning Texnologik Savod xonlikni Rivojlantirishdagi Rolini Kuchaytirish

O'qituvchilar bolalar uchun texnologiyalarni qanday samarali qo'llashni ko'rsatishda asosiy rolni o'ynaydilar. Ular o'quvchilarga texnologiyalardan faqatgina bilim olish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va axborotlarni almashish vositasi sifatida foydalanishni o'rgatishlari kerak. Shuning uchun, o'qituvchilarning texnologik savodxonligi zarur:

- O'qituvchilarni o'qitish va tayyorlash: O'qituvchilar texnologiyalardan samarali foydalanish uchun doimiy ravishda malaka oshirishi zarur. Bu o'zgaruvchan raqamli dunyo bilan birga, o'qituvchilarning ta'lim usullarini yangilash va raqamli platformalarni joriy etishda yordam beradi.

Innovatsion metodlarni qo'llash: O'qituvchilar texnologiyalarni qo'llashda innovatsion yondashuvlarni qo'llashlari, masalan, ****flipped classroom**** (tashqi o'qish orqali uyda o'rganish) va gamifikatsiya (o'yin elementlarini o'qishga qo'llash) kabi metodlarni sinfda joriy etishlari mumkin.

Zamonaviy ta'limda texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda. Raqamli dunyo bilan ishlash uchun bolalarni tayyorlash, ularni nafaqat ta'lim jarayoniga jalb qilish, balki xavfsiz va samarali foydalanishga o'rgatish lozim. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilar o'zlarining texnologik savodxonligini doimiy ravishda rivojlantirib, zamonaviy pedagogik usullarni o'rganishlari kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Gee, JP (2003). *Video o'yinlar bizga ta'lim va savodxonlik haqida nimani o'rgatishi kerak*. Entertainmentdagi kompyuterlar (CIE), 1(1), 20-20.
2. Grover, S. (2019). *O'qituvchilar sinfda texnologiyadan qanday foydalanishlari mumkin?* Ta'lim texnologiyasi jurnali, 34(2), 57-63.
3. Jonson, L., Becker, SA, & Cummins, M. (2016). *NMC Horizon hisoboti: 2016 K-12 nashri*. Yangi media konsortsiumi.
4. Livingstone, S., Haddon, L., Gorzig, A., & Ólafsson, K. (2011). *Internetdagi xavflar va xavfsizlik: Yevropa bolalarining istiqboli*. To'liq topilmalar. London: Evropa Ittifoqi bolalari onlayn.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174401>

HOW TO HELP CHILDREN WITH ORAL LANGUAGE DEVELOPMENT AT 1 TO 2 YEARS OF AGE?

(This article is based on Developmental Milestones, drawn from the Early Years Learning Framework and the National Quality Standards of Australia)

Khabirova Sagdiana

Edith Cowan University

ABSTRACT

This article explores language acquisition in early childhood, emphasizing its critical role in cognitive, social, and academic development. Focusing on linguistic stage 2, it examines developmental milestones in one- to two-year-olds, as outlined by Australia's Early Years Learning Framework and National Quality Standards. During this stage, children advance from single words to two-word phrases, build a receptive vocabulary of 100-300 words, and begin following simple commands. Language development relies on both biological factors and environmental input, influenced by theories from Piaget and Vygotsky, who highlight cognitive readiness and social interaction. Practical approaches like dialogic reading and verbal mapping are examined as effective strategies to foster language acquisition. These methods, aligned with the Early Years Learning Framework's communication outcomes, demonstrate the importance of family and caregiver roles in promoting linguistic growth, providing children with essential tools for meaningful communication and understanding.

Introduction

Language acquisition constitutes a foundational aspect of child development, significantly contributing to future academic success, social competence, and the processes of belonging, being, and becoming (Fellowes & Oakley, 2019; Department of Education, 2022). From birth to five years, children pass through distinct linguistic stages, progressing from prelinguistic communication to the formulation of full sentences. This article examines linguistic stage 2, using "Developmental Milestones"

in the Early Years Learning Framework and the National Quality Standards of Australia focusing on the language development of children between the ages of one and two.

Literature Review

At the onset of the second linguistic stage, typically around one year of age, children experience a range of developmental milestones related to oral language. As they progress from using single words to forming two-word combinations, their ability to comprehend and follow simple instructions emerges. Children begin to engage in basic communicative exchanges, such as making eye contact and taking conversational turns, while becoming increasingly adept at associating spoken words with objects through pointing. During this stage, children typically acquire a receptive vocabulary of approximately 100-300 words, while their expressive vocabulary ranges between 5-50 words. Their syntactic awareness and phonological understanding also exhibit significant growth (Plural et al., 2012; Fellowes & Oakley, 2019; Levey, 2017; Oller et al., 2015; Department of Education, 2015). Furthermore, children of this age often demonstrate a strong affinity for books, storytelling, rhymes, and songs (Levey, 2017).

Theoretical Perspective on Language Development

Language development is influenced by both biological predispositions and environmental stimulation. Children are innately equipped to acquire language, but they depend on external input from their surroundings (Otto, 2014; Feldman, 2019). Although linguistic exposure occurs from birth, expressive language emerges gradually, a phenomenon attributed to the maturational perspective and the concept of "readiness." Developmental readiness must be achieved before children can acquire and utilize language (Fellowes & Oakley, 2019). Psychologist Arnold Gesell posited that development follows predictable patterns, with genetic factors playing a crucial role in the sequence and timing of developmental milestones, including language acquisition (Crain, 2010).

Piaget's cognitive developmental theory suggests that language acquisition is closely tied to cognitive development, where children form schemas in response to

environmental stimuli, facilitating language understanding and usage. For example, a child cannot appropriately use the term "doggy" until they have constructed a conceptual understanding of what constitutes a dog (Fellowes & Oakley, 2019; Crain, 2010; Lefa, 2014). This underscores the importance of providing children with varied and enriching experiences that foster both cognitive and linguistic growth.

Vygotsky's sociocultural theory further elaborates on the role of social interactions in language development, suggesting that language is developed through interactions with peers, adults, and the broader environment. These interactions serve as a medium for language modeling, introducing children to new vocabulary and linguistic structures (Fellowes & Oakley, 2019; Rowe, 2022; Topçiu & Myftiu, 2015). This perspective highlights the central role of parent-child communication in language acquisition.

Strategies for Fostering Language Development

The home environment offers abundant opportunities for language development, particularly through everyday routines like reading mail, following recipes, and maintaining household records. Purposeful activities, such as reading with children and using child-directed speech, can enhance linguistic abilities (Fellowes & Oakley, 2019; Otto, 2014). Children are naturally drawn to textures and colors in picture books, and with adult support, this interest can evolve into robust family literacy practices. Reading enhances empathy and memory, expanding vocabulary by linking auditory input to meaning (Feldman, 2019; Spagnola & Fiese, 2007).

Child-Directed Speech

An effective approach for fostering language development in young children is child-directed speech. This communication style is characterized by simplified vocabulary, shorter sentences, frequent repetition, and exaggerated intonation, capturing children's attention and focusing on key language elements. High-pitched, sing-song tones and slower speech provide auditory cues that assist in differentiating sounds, syllables, and words, supporting phonological awareness (Feldman, 2019; Rowe, 2012; Newman et al., 2016).

Dialogic Reading and Verbal Mapping

Dialogic reading transforms story time into an interactive dialogue. Adults prompt children with questions, encourage predictions, and invite expanded responses. These interactions expose children to a wider range of vocabulary and complex sentence structures, supporting syntactic development (Chang et al., 2023; Towson et al., 2016). By asking questions like "What do you think will happen next?" or "Why is the character sad?" children engage in higher-order thinking that enhances comprehension and expressive language skills.

Verbal mapping involves narrating everyday activities to provide continuous language exposure. For instance, when an adult verbalizes task steps, such as "Now we are putting the toys in the box," it helps children link language to actions and context. This form of communication bridges the gap between receptive and expressive language, as children begin associating words with specific actions or objects (Timothy et al., 2014; Otto, 2014).

Role of Adults in Language Development

Adults, including parents and educators, play a central role in promoting language development through dialogic reading and verbal mapping. In dialogic reading, adults create supportive environments that encourage active participation, selecting age-appropriate books with engaging narratives to stimulate interest. Effective dialogic reading involves scaffolding children's responses, guiding them from simple answers to more complex language use by asking open-ended questions and introducing new vocabulary in context.

Verbal mapping offers an accessible way to integrate language learning into everyday activities, ensuring continuous language input. Adults can narrate routine actions such as getting dressed, cooking, or playing, exposing children to language in diverse contexts. This regular exposure supports vocabulary development and helps children understand how language describes both concrete and abstract concepts.

Both dialogic reading and verbal mapping align with Outcome 5 of the Early Years Learning Framework (EYLF), which emphasizes the importance of

communication in early childhood. Outcome 5 states that "children are effective communicators" and encourages educators to model verbal and non-verbal communication meaningfully (Department of Education, 2022). To assess the impact of these strategies, educators and caregivers observe children's language progression, noting milestones like the transition to two-word utterances, following simple commands, and vocabulary complexity.

Conclusion

Language development is a multifaceted and gradual process shaped by maturational, cognitive, and social factors. While children possess an innate predisposition for language acquisition, environmental stimuli, and family interactions are critical in realizing this potential. Adults enhance family literacy practices through dialogic reading and verbal mapping, equipping children with essential tools for proficient language skills. These early strategies play a crucial role in preparing children for lifelong learning and social engagement.

REFERENCES

1. Chang, C. S., Hsieh, F. J., Chen, T. Y., Wu, S. C., Tzeng, O. J., & Wang, S. (2023). Revisiting dialogic reading strategies with 12-month-old infants. *Early Childhood Education Journal*, 51(8), 1413-1426.
2. Crain, W. C. (2010). *Theories of development: concepts and applications* (6th ed.). Prentice Hall.
3. Department of Education. (2022). *Belonging, being & becoming: The early years learning framework for Australia V2.0*. <https://www.acecqa.gov.au/sites/default/files/2023-01/EYLF-2022-V2.0.pdf>
4. Department of Education Employment and Workplace Relations for the Council of Australian Governments (DEEWR) (2015). *Early Years Learning Framework Practice-Based Resources - Developmental Milestones*. Canberra: Commonwealth of Australia

5. Dickinson, D. K., Griffith, J. A., Golinkoff, R. M., & Hirsh-Pasek, K. (2012). How reading books fosters language development around the world. *Child development research*. Article ID: 602807. <https://doi.org/10.1155/2012/602807>
6. Feldman H. M. (2019). How Young Children Learn Language and Speech. *Pediatrics in review*, 40(8), 398–411. <https://doi.org/10.1542/pir.2017-0325>
7. Fellowes, J., & Oakley, G. (2019). *Language, literacy and Early Childhood Education* (3rd ed.). Oxford University Press.
8. Lefa, B. (2014). The Piaget theory of cognitive development: an educational implications. *Educational psychology*, 1(1), 1-8.
9. Levey, S. (Ed.). (2017). *Introduction to language development: Second edition*. Plural Publishing, Incorporated.
10. Mindell, J. A., & Williamson, A. A. (2018). Benefits of a bedtime routine in young children: Sleep, development, and beyond. *Sleep medicine reviews*, 40, 93-108.
11. Newman, R. S., Rowe, M. L., & Ratner, N. B. (2016). Input and uptake at 7 months predict toddler vocabulary: The role of child-directed speech and infant processing skills in language development. *Journal of Child Language*, 43(5), 1158-1173.
12. Oller, J. W., Oller, S. D., & Oller, S. N. (2015). *Milestones: normal speech and language development across the life span* (2nd ed.). Plural Publishing.
13. Otto, B. (2014). *Language development in early childhood education* (4th ed.). Pearson.
14. Plural, P. I., Oller, S. D., & Oller, S. N. (2012). *Milestones: Normal speech and language development across the lifespan, second edition*. Plural Publishing, Incorporated.
15. Rowe M. L. (2022). Environmental influences on early language and literacy development: Social policy and educational implications. *Advances in child development and behavior*, 63, 103–127. <https://doi.org/10.1016/bs.acdb.2022.04.001>
16. Spagnola, M., & Fiese, B. H. (2007). Family routines and rituals: A context for development in the lives of young children. *Infants & young children*, 20(4), 284-299.

17. Timothy A. Kinard & Jesse S. Gainer 2014 Leading by Following: An Introduction to Verbal Mapping as “Naming” Abstract, *Affective Realia, English In Texas* 44(1), 30-35
18. Trivette, C. M., Dunst, C. J., & Gorman, E. (2010). Effects of parent-mediated joint book reading on the early language development of toddlers and preschoolers. *Center for Early Literacy Learning*, 3(2), 1-15.
19. Towson, J. A., Gallagher, P. A., & Bingham, G. E. (2016). Dialogic reading: Language and preliteracy outcomes for young children with disabilities. *Journal of Early Intervention*, 38(4), 230-246.
20. Topçiu, M., & Myftiu, J. (2015). Vygotsky theory on social interaction and its influence on the development of pre-school children. *European Journal of Social Science Education and Research*, 2(3), 172-179.
21. Zevenbergen, A. A., & Whitehurst, G. J. (2003). Dialogic reading: A shared picture book reading intervention for preschoolers. *On reading books to children: Parents and teachers*, 177, 200.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174403>

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA QO‘LLANILGAN MENTALITET TUSHUNCHALARI

Abdujalilova Feruza Shodiyarovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti

kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birikmalarining mentalitet madaniyati tushunchalari, so‘z va gapning uzviy bog‘liqligi, birikmalarning tildagi turli iboralar birliklari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Millat, jamiyat, tadqiqot, jarayon, kasb, omil, fenomen, omma, birlik, fraza.

Аннотация: В данной статье анализируются понятия культуры менталитета фразеологических сочетаний, органической связи слов и предложений, а также различных фразеологических единиц сочетания в языке.

Ключевые слова: Нация, общество, исследование, процесс, профессия, фактор, явление, масса, единица, фраза.

Annotation: In this article, the concepts of the culture of mentality of phraseological combinations, the organic connection of words and sentences, and various phraseological units of combinations in the language are analyzed.

Key words: Nation, society, research, process, profession, factor, phenomenon, mass, unit, phrase.

Frazeologik birliklarda qo'llanilgan mentalitit - milliy-madaniy iboralar tilda, ijtimoiy hayotda xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbayi sanalishi hammaga ma'lum hodisadir. Tadqiqotchilarning asosiy maqsadlaridan biri turli tillarda uchraydigan frazeologik birliklarning milliy-madaniy omillarning o'ziga xosliklarini ko'rsatish edi. Frazeologik birliklar o'z milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz qadimdan tizimga ega bo'lgan turli jamiyatlarning lingvomadaniy vazifalarini ochib beruvchi fenomen sifatida qo'llanib, ularda ma'lum bir jamiyat ijtimoiy hayotida uchraydigan, milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradigan barcha tushunchalarni uchratish mumkin. Ma'lumki, til inson ichki dunyosini, dunyoqarashlarini ifodalashda yordam beradigan yagona vositadir. Shuningdek, har bir millatning qadriyatlari, madaniyati avvalo o'sha millat dunyoqarashi mahsulidir va insonlardagi kabi butun bir millatning dunyoqarashini, xarakterini aks ettirishda bizga tilimiz hamda undagi frazeologik birliklar xizmat qiladi.

Frazeologizm – turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi bo'lib, til egasining dunyoni, hodisalarni o'ziga xos ko'rinishini namoyon etadi. Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi. U yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko'z ilg'amas rang-barangligini aks ettiradi. Bu yerda ham baxt, sevgi, ajablanish, istehzo, nafrat, qiziqish, havotir; bu yerda insonning to'g'ri so'zligi, iroda kuchi, halollik, ollyjanoblik, aql, chaqqonlik, harakatchanlik, qaysarlik, ham ahmoqlik, sergaplik, xasislik, badjahllik - ya'ni insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud; bu yerda o'xshashlik va farq, boshlanish va tugash (ibtido va intiho), ko'plik va ozlik, birlik - kelishmovchilik va kurash; tug'ilish, qarindoshlik, yosh, o'lim; baholash, muvaffaqiyat — muvaffaqiyatsizlik, haqiqat va yolg'on, tartib va tartibsizlik, farovonlik va kambag'allik, xatolar va jazo va shunga o'xshash boshqa juda ko'p tushunchalarning tavsif va tasvirilari mavjud. Ko'rib turibmizki, oldimizda olamning yaxlit frazeologik manzarasi ochiladi. Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbayi sanalishi hammaga ma'lum hodisadir. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari,

taomillari, urf-odatlari, ma'naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi. Masalan, **Aqlini kiritmoq** «faoliyat doirasini, imkoniyatini cheklab qo'ymoq», **“to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq”**- “ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan oldin gapirmoq”, **“xirmon ko'tarmoq”**- “ekin-tekinni yig'ib, hosil me'yorini hisob-kitob qilmoq”, **“Mendan ketguncha, egasiga yetguncha”** – “shunchaki nomigagina”, **“Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi”**- “kimnidir ko'rish istagi qo'qqisdan ro'yobga chiqqanda aytiladigan ibora”. Biron tilning o'zigagina xos bo'lgan hisob so'zlari qolipining frazeologizmlarga ko'chganini ko'rish mumkin. Masalan, «juda qisqa, juda oz vaqt davom etadigan» ma'nosidagi bir tutam (*Bir tutam qish kuni Gulnor uchun bitmas-tugamas uzoq ko'rindi*), “qittak, ozgina” ma'nosidagi bir chimdim (*Hazil-huzul, bir chimdim suhatdan so'ng Mirhaydar va O'ktam paxta dalasiga yo'l oldilar*), “jindak, qittak, juda oz” ma'nosidagi bir shingil (*Qani, shunaqa bemaza hazildan bir shingil ashula yaxshi*), “juda yosh, deyarli go'dak” ma'nosidagi bir qarich (*Bir qarichligimdan yetim qolib, amakining xizmatida o'tib ketganman*) singari frazeologizmlar shular jumlasidandir.

Nutqda evfemizmlar faqat tabuga uchragan so'zlar ma'nosini ifodalash bilan chegaralanmaydi. Uning sodir bo'lish imkoniyati ancha keng. Shuning uchun L.A.Bulaxovskiy ham “Evfemizm irim-sirimlar doirasida sodir bo'lishdan ko'ra ancha keng qamrovga ega”, -degan edi. Yuqorida, ayrim tilshunoslar madaniylikka sig'ishmaganligi uchun qo'llanmaydigan ayrim so'zlar bilan tabuni qorishtirganliklari, haqida to'xtab o'tilgan edi. Haqiqatan ham ayrim so'zlarning madaniy muloqatga sig'ishmaganligi uchun qo'llanmaganligi tabu emas. Ammo madaniy muloqatga sig'ishmaydigan, qo'pol, dag'al, andishasiz so'zlardan muomala jarayonida tiyilishga to'g'ri kelar ekan, uning o'rnida yumshoqroq, yoqimliroq, madaniyroq so'z, ibora tanlash joiz bo'ladi. Mana shu so'z, iboraning tanlanishi evfemizmning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Masalan, xotinlar “erim” deyish o'rniga “adasi” deyishi, so'zini qo'llash evfemizm bo'ladi, ammo “erim” so'z tabu so'z emas. Ularni muloqat chog'ida qo'llashdan faqat madaniy muomalaga ko'ra tiyilishga to'g'ri

kelgan. Uning o'rniga esa adasi, chet, yaradi so'zlarini qo'llab, evfemizm berilgan. Ma'lum bo'ladiki, evfemizmning manbai ikkita: 1)tabu 2)madaniylikka sig'ishmaganligi uchun aytilishdan tiyiladigan so'z va iboralar. Evfemizm shular ma'nosini berish, o'rnini qoplash uchun yuzaga keltiriladi. Ular shular o'rnini biror so'z yoki iboraning hosila ma'nosi hisobiga qoplar ekan, bu ma'nosiga yaxshi taassurot uyg'otuvchiroq, yoqimliroq ottenka ilova qiladi. Til birligi bo'lish uchun ma'lum shaklga ma'lum bir ma'no biriktirilgan bo'lishi lozim. Bunday ma'no til birligininig mazmun plani deb yuritiladi. Bunday ma'noni biror shakl nutqning o'zida bo'ladi, nutq shuni qalqitib beradi. Masalan, qo'l so'zi qo'lim zirqirab og'riyapti gapida kishi tanasi elkadan boshlanib, barmoqlar bilan tugaydigan, ushlash, ko'rsatish kabi vazifalarni bajaradigan a'zo ma'nosida tushuniladi.

Davlat-qashshoqlik aksiologik juftligida boylik bilan usti qirq yamoq, ochidan o'lmoq, gadoydan ham sadqa so'ramoq frazemalari antisemik munosabatda bo'lsa, pulga ko'milmoq, Hazrati Xizrni uchratmoq, zarga burkanmoq, chirib-bitgan boy, og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning bolasi gapirsin, sog'in sigirday sog'moq kabi frazemalar kambag'allik antiqadriyati bilan ma'noviy ziddiyat hosil qiladi. O'zbek xalqida boylikka nisbatan ijobiy va salbiy munosabat mavjud. **Chirib-bitgan boy, og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning bolasi gapirsin, sog'in sigirday sog'moq** kabi frazemalarda mehnatsiz kelgan boylikka nisbatan xalqning salbiy munosabati mavjud. Ijobiy munosabatni esa **pulga ko'milmoq, Hazrati Xizrni uchratmoq, zarga burkanmoq** frazemalari aks ettiradi. Hazrati Xizrni uchratmoq frazemasini diniy bilimlar asosida yasalgan. Rus tilida esa xuddi shu frazeologik ma'no родиться в рубашке frazemasida aks etgan. E'tibor beradigan bo'lsak, har bir xalqning o'z milliy realiyalari frazeologizmlarda yaqqol o'z aksini topadi. Biroq shunday realiyalar borki, ular juda ko'p xalqlarning muloqot fondida mavjud bo'ladi. Masalan, **sog'in sigirday sog'moq** frazemasini inglizlarda ham, o'zbeklarda ham mavjud ekan. Bu har ikkala xalqning ham qadimiy tarixiga borib taqaladigan masala sanaladi. Frazemalarning vujudga kelishi tarixan uzoq davrlarga borib taqalishi ayni haqiqat. Chunonchi, **sog'in**

sigirday sog‘moq va **a milch cow** frazemalari inglizlarning ham, o‘zbeklarning ham chorvadorlik faoliyati bilan bog‘liq o‘tmishiga ishora qiladi.

Xulosa qilib aytganda, milliylik, madaniyat, mentalitet tushunchalari til bilan uzviy bog‘liq va ular tilda turli janrlar va til birliklari asosida voqelashadi. Frazeologik birliklarlar nafaqat inson nutqini chiroyli, ta’sirli va ixcham qiladi, balki ma’lum bir millatning madaniyati, yashash tarsi hamda milliyligini ham ochib berishga xizmat qilgan ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatillayev Sh.N.Mamatov. R.Shukurov.O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati.Toshkent O‘qituvchi nashriyoti 2018- yil
2. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika.- Toshkent: Noshir, 2019.- B.135.
3. Rahmatillayev Sh. Nutqimiz ko‘rki// “Fan” nashriyoti, Toshkent-1970. B-56
4. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya.- Toshkent: 2019.- B.90.
5. Булаховский Л. А. Введење в языкознание. Ч.II. – С.51.
6. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке. Автореф дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент.1963. 6-б.; Омонтурдиев А. Ж. Ўша асар. Ўша бет.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174413>

FOOD SECURITY PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE DIGITAL ECONOMY

Rajabaliyeva Iroda Alisherovna

master student of KIEE

ABSTRACT

Food security is an important global issue facing many challenges in the digital economy. The use of digital technologies has disrupted traditional food systems, leading to changes in food habits, cyber security threats and food waste. This article identifies the challenges facing food security in the digital economy and explores ways to promote sustainable agriculture, invest in food processing technologies, promote online markets for farmers, promote healthy food choices, and improve cyber security. provides sustainable solutions such as supply and reducing food waste.

Keywords: *Food security, challenges, solutions, digital economy, sustainable agriculture, food processing technologies, online markets, healthy food choices, cyber security, food waste.*

INTRODUCTION

Humanity has become accustomed to taking new achievements and successes in the field of science and technology as a matter of course. At the international level, population growth is required to meet the demand for natural resources and agricultural products, to ensure the rational use of resources, to achieve progress in the conditions of sustainable development by introducing innovative technologies of scientific achievements and forming a regulatory and legal framework.

Therefore, the main goal is to increase the volume of processing of food products based on international quality standards, to introduce a system of state support for the production of local products that are competitive in domestic and foreign markets.

Food safety is one of the most urgent tasks facing the countries of the world. The UN is also saying today that it is time to completely change the approach to food production and distribution.

The President's decision of September 9, 2020 "On measures for the rapid development of the food industry of the Republic and the full supply of quality food products to the population" was aimed at the implementation of this goal.

In particular, during the official visit of President Sh. Mirziyoyev to Italy on June 9, 2023, in a meeting with the Director General of the UN Food and Agriculture Organization (FAO) Sui Dunyuy, it was food safety, fundamental scientific research, agriculture The development of a large-scale program for cooperation until 2030, which provides for the implementation of specific projects and activities in the digitalization of the Internet, modernization of agricultural sectors and other areas, was set as a priority.

On September 7 of this year, the head of state received Sui Dunyuy, director general of the UN Food and Agriculture Organization (FAO), who was in his country to participate in the international conference on food security, and discussed the threats to food security. opinions were exchanged on issues of combating today's threats, including at the regional level. The new cooperation program between Uzbekistan and FAO until 2030 includes modernization of agriculture based on scientific research and innovation, digitization of the agricultural sector, implementation of effective means of financial support and management of the agro-food system. it was agreed to introduce joint measures for the introduction of effective mechanisms.

METHODS

There are different approaches to defining the meaning of the concept of "food security" in the economic literature. According to the most common definition, food

security is a state in which all people at any moment of time have access to sufficient amounts of safe food necessary for an active and healthy life [4]. According to this definition, food security is achieved through the physical and economic availability of safe and sufficient food

According to the economist T.Usakova, food security is the provision of the population of the state and society with food products for an unlimited period of time to ensure the all-round healthy physical and social development of each person under normal conditions and minimal health and work capacity in emergency situations. is to provide sufficient quantities and qualities for use at the level. This definition reflects the different meanings of food safety in normal and emergency situations. According to the definition given by V.G. Bulavko, P.G. Nikitenko and others, food safety is the ability of the state to ensure the necessary and sufficient production of products in the required quality and assortment and the balance of demand and supply of national products in the consumer market and it should be understood as the ability of agricultural enterprises, suppliers, processing and sales sectors.

By supporting this opinion of scientists, it is appropriate to put an end to misunderstandings about the concepts of "food security" and "food independence", including the fact that these concepts are sometimes used as synonyms in periodicals. we think that According to Uzbek scientist H.P. Abulqasimov, "Food security represents the ability of the country's population to provide itself with basic food products independently.

RESULTS

Food security is a state of the economy in which, on the one hand, regardless of the fluctuations of the world markets, conditions are created to meet the consumption of the population in quantities corresponding to scientifically based indicators, and on the other hand, at the level of medical standards. -sustainable food supply is guaranteed, meaning the availability and use of sufficient, safe and nutritious food to meet people's nutritional needs and preferences at all times.

Determining the main directions of ensuring food security in Uzbekistan is carried out in order to further improve the well-being and quality of life of the population of our republic, to develop specific parameters for the full supply of food to the population. The effective development of the economy of Uzbekistan, the well-being of the population directly depends on the improvement of the indicators of ensuring food security based on the implementation of the food program.

DISCUSSION

However, food security faces many challenges, especially in the digital economy. The digital economy is the use of digital technologies to create, buy, sell and distribute goods and services. The digital economy has disrupted traditional food systems, leading to food security challenges. This article discusses food security problems and solutions in the digital economy.

Problems:

- **Changing food habits:** The digital economy has led to a change in food habits. People are relying on online food delivery services and e-commerce platforms to buy and sell food products. This has led to a shift in food preferences towards cheaper and more convenient fast food and processed food. This has led to a decline in the consumption of healthy and nutritious food, which is essential for food security.
- **Disruption of traditional food systems:** The digital economy has disrupted traditional food systems such as agriculture and food processing. Due to the dominance of e-commerce platforms, farmers are finding it difficult to access markets for their produce. This has led to a reduction in the production of healthy and nutritious food, which is essential for food security.
- **Cyber Security Threats:** The digital economy has led to an increase in cyber security threats, particularly in the food industry. Cybercriminals can hack into food production systems and disrupt food supply chains. This can lead to food shortages and affect food security.
- **Food waste:** The digital economy has led to an increase in food waste. E-commerce platforms and online food delivery services generate a lot of packaging

waste that ends up in landfills. This waste can be used to produce food or feed livestock, but instead pollutes the environment.

Solutions:

✓ **Development of sustainable agriculture:** Sustainable agriculture is essential for food security. Governments and private organizations should promote sustainable agricultural practices such as organic farming to ensure the production of healthy and nutritious food. This can be achieved by providing incentives such as tax breaks and subsidies to farmers engaged in sustainable agriculture.

✓ **Investing in food processing technologies:** Investing in food processing technologies can help improve food quality and reduce food waste. Technologies such as food preservation, packaging, and storage help increase the shelf life of food, reduce spoilage, and prevent contamination. This helps ensure the availability of food, which is essential for food security.

✓ **Promotion of online markets for farmers:** Governments and private organizations should promote online markets for farmers to sell their produce. This will help farmers reach a wider market for their produce and increase their income. Online markets also help reduce food waste by ensuring that all products do not spoil.

✓ **Promote healthy food choices:** Governments and private organizations should promote healthy food choices by providing education and information to consumers. This can be achieved through public companies, food labeling and education programs. Consumers should be encouraged to make healthy food choices through incentives, such as healthy food discounts.

✓ **Ensuring cyber security:** Ensuring cyber security is important for food safety. Governments and private organizations must invest in cybersecurity measures to protect food production systems and food supply chains. This can be achieved by implementing cybersecurity protocols, conducting regular cybersecurity audits, and investing in cybersecurity training for food industry employees.

✓ **Reducing food waste:** Reducing food waste is important for food security. Governments and private organizations should help reduce food waste by

implementing policies and regulations that encourage food waste reduction. This can be achieved by providing incentives such as tax credits and subsidies to businesses that reduce food waste.

CONCLUSION.

Food security is important for human well-being and the stability of societies. However, the digital economy has created challenges for food security such as changing food habits, disruption of traditional food systems, cyber security threats and food waste. To address these challenges, development of sustainable agriculture, investment in food processing technologies, promotion of online markets for farmers, promotion of healthy food choices, cyber security and food solutions such as reducing food waste should be implemented. Governments and private organizations play an important role in solving these problems and implementing these solutions.

Governments can provide policies and regulations that encourage sustainable agriculture and food waste reduction, while private organizations can invest in technologies that improve food processing and reduce food waste. Consumers also play a role in addressing food security issues by making healthier food choices and reducing food waste.

In conclusion, solving food security problems in the digital economy requires a multifaceted approach. Governments, private organizations, and consumers must work together to ensure the availability, access, and availability of sufficient, safe, and nutritious food. By implementing sustainable solutions, we can ensure food security for present and future generations.

REFERENCES

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2018). The state of food security and nutrition in the world 2018. Retrieved from <http://www.fao.org/3/i9553en/i9553en.pdf>
2. Shankar, B., Thiede, B. C., & Shanks, C. B. (2017). The rise of digital agriculture: Implications for food security, poverty, and livelihoods. *Global Food Security*, 15, 20-28.
3. Alkon, A. H., & Agyeman, J. (2011). *Cultivating food justice: Race, class, and sustainability*. MIT Press
4. FAO. (2020). COVID-19 and food security: Impacts and lessons learned. Retrieved from <http://www.fao.org/3/ca9700en/ca9700en.pdf>
5. United Nations. (2015). Sustainable development goals. Retrieved from <https://www.un.org/sustainabledevelopment/sustainable-development-goals/>
6. Golan, E., Krissoff, B., Kuchler, F., & Calvin, L. (2004). A rationale for public intervention in the food sector: The case of food safety. *Journal of Agricultural and Food Industrial Organization*, 2(1), 1-22.
7. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2018). The state of food security and nutrition in the world 2018. Retrieved from <http://www.fao.org/3/i9553en/i9553en.pdf>
8. Hossain, M., Adhikary, M. M. R., & Akter, S. (2018). Role of digital technologies in ensuring food security in developing countries: An overview. *Agriculture*, 8(4), 53.
9. Usmanovich Burkhanov, A., Mansur Qizi Eshmamatova, M. The ways for improvement of investment strategy in the period of digital economy. *ACM International Conference Proceeding Series*, 2021, стр. 655–662
10. Yuldashev, N.K., Nabokov, V.I., Nekrasov, K.V., Tursunov, B.O. (2020) Modernization and intensification of agriculture in the republic of Uzbekistan. *E3S Web of Conferences*, 2020, 222, 6033

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174416>

MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM o'qituvchisi

jumayevashaxlo507@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va ma'naviy merosni asrab-avaylash, ulardan milliy-ma'naviy tarbiy jarayonida oqilona foydalanish hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etayotganligi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy va umuminsoniy qadriyatlar, odob, tarbiya, ezgulik, yuksak axloqiylik, ziyolilik, iymon-e'tiqod.

THE ROLE OF THE HERITAGE OF SCHOLARS IN THE PROCESS OF SPIRITUAL EDUCATION

Abstract. In this article, the preservation of the scientific and spiritual heritage left by our great ancestors and their rational use in the process of national-spiritual education is of great importance in the current period.

Keywords: national and universal values, manners, education, goodness, high morality, intelligence, faith.

KIRISH.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero,

hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab etishga o‘z umri va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimizning asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida o‘rin berilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, ” Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

O‘zbek xalqi qadimdan sog‘lom farzand tarbiyasi masalasiga katta mas’uliyat, jiddiy e’tibor bilan yondashgan. Masalan, bola tarbiyasi bilan asosan diniy-dunyoviy ilm sohasida oqila enagalar yoki ilm-ma’rifatda katta obro‘-e’tiborga ega ustoz-murabbiylar shug‘ullangan. Bu haqda “Qobusnomada” quyidagi fikrlar bildirilgan: “Farzandingga hunar va fazl o‘rgatmakda taqsir qilmag‘il va har ilmni o‘rgatuvchi muallimlar ta’lim uchun ursalar, sen shafqat ko‘rguzgil, mayli ursunlar, nedinkim yosh o‘g‘lon ilm va adabni tayoq bila o‘rganur va o‘z ixtiyori bila o‘rganmas. Ammo farzand beadab bo‘lsa va sening ul sababdin qahring kelsa, o‘z qo‘ling bila urmag‘il, muallimlarning tayog‘i bila qo‘rqutg‘il. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendin o‘g‘lingning ko‘nglida gina qolmasin. Ammo uning ko‘ziga o‘zingni haybatlig‘ ko‘rguzg‘il, to seni xor tutmasin va hamisha sendin qo‘rqib yursin. U bir narsani orzu qilsa, qudrating etguncha undin ayamag‘il, to tanga havasi bila sening o‘limingni tilamasin. Farzandga adab, hunar o‘rgatmakni meros deb bilg‘il. Agar sen unga xoh adab o‘tgatg‘il, xoh o‘rgatmag‘il turmush mashaqqatlarining o‘zi unga o‘rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur”. [2].

Koshifiyning fikricha, “Imkoni boricha (bolaga) yaxshi ta’lim-tarbiya berishga intilish lozim, toki u ijobiy xususiyatlarni o‘zlashtirsin va yaramas xatti-harakatlardan o‘zini muhofaza qila olsin”. Xususan, u murabbiy odobi to‘g‘risida shunday deydi: “Murabbiy (bolaga) nasihat va ta’lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi, balki hilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va

hushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir". [3]. Husayn Voiz Koshifiy ta'kidlagan ayni shu xislatlar va fazilatlarni yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sog'lom va komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR.

Shubhasiz, farzand boshqalarni hurmatlash va ularga yaxshilik qilish sabablarini va bu ezgu odat xosiyatidan keladigan yaxshiliklarni o'rgansa, eng asosiysi, qalbiga singdira olsa, majburan yoki zarurat yuzasidan emas, balki chin qalbidan bu ziynatli amalni bajaradi. Fazilatli kishilarni ulug'lashga astoydil harakat qiladi. Bu odob insonni ulug'lash va ehtirom qilishning yuksak pog'onasidir. Ajdodlarimiz bu ulug'vor xislatlarni qalblariga mustahkam joylab, kattayu kichikka o'z o'rnida qo'llay bilganlar. Ana shu ruhda voyaga etgan farzanddan avvalo ota-ona va butun jamiyat manfaat ko'radi.

Milliy uyg'oni davri o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy (1878-1934) «Turkiy Guliston yohud ahloq» kitobida ta'kidlaganidek: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. Rasuli akram nabiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: "Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindatur, hasabi ahloqindatur", - demishlar". [4].

MUHOKAMA. Avloniy axloqiy-ta'limiy, ma'rifiy-tarbiyaviy asarlari bilan yosh avlodni ezgulik, yuksak axloqiylik, ziyolilik ruhida tarbiyalashga chaqirgan adib yana quyidagilarni ta'kidlaydi: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Biz sihatimizni saqlamak ila amr olinganmiz, shuning uchun vujudimizni hifzi-sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila churitmakdan saqlanmakligimiz lozimdur. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir cho'ponning o'ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, cho'ponning ustini qo'yib

astarini yuvib ovora bo‘lmoq kabiturki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog‘lom bir vujud kerakdur”. [5].

Abulbarakot Qodiriy esa tarbiya ta’sir qiladigan kishilarni uch toifaga bo‘ladi: “Birinchisi – hanuz oq qorani tanimagan bola. Uning tabiati hali yomonlik g‘ubori bilan bulg‘anmagan, yuragi esa botil ishlar zulmati bilan qoralanmagan bo‘ladi. Bunday bolaga nasihat tez ta’sir qiladi. Bunday bolani to‘g‘ri yo‘lga osonlik bilan o‘rgatish mumkin.

Ikkinchisi – oq bilan qorani ajratadigan bo‘lib qolgan bola. Ulardan ba’zilari o‘z nafsining g‘alabasi bilan yaxshilik tomonga burila olmay yurgan bo‘ladi. U qilayotgan ishining yomonligini biladi. Nuqsonlarini esa e’tirof etadi. Bunday odamni tarbiyalash birinchisiga nisbatan qiyinroq, ammo unga doimiy tarbiya berilib, har xil nasihatlar va tanbehlar berib borilsa, albatta, yaxi yo‘lga kirib ketadi.

Uchinchisi – oilada botil xayol va fosid fikrlar bilan ulg‘aygan kishi. U umr bo‘yi nohaq ishlarni haq deb bilib kelgan va shunga astoydil e’tiqod qo‘ygan kishi bo‘ladi. Yomonlik qilsa ham uni o‘zicha yaxshilik deb o‘ylaydi. Bunday kishini tarbiya qilish juda og‘ir. Uning tarbiyasiga kirishish – tirnoq bilan quduq qazish yoki hali qizib cho‘qqa aylanmagan temirni bog‘lash bilan barobar.

Barxurdor ibn Mahmud: “Otalarning o‘z farzandlariga nisbatan bo‘lgan muhabbat qasri asoslaridan biri – butun kuch va quvvatlarini farzandlarini farosat, kamolot bilan bezatib, ularning vujudini kasbu hunar libosi bilan kiyintirmoqlaridan iboratdir”, deb aytadi. Olim bolalarni yomon, bilimsiz kishilar bilan doimo hamsuhbat bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Chunki ular nimani ko‘rsalar va kimga ergashsalar o‘a narsalarga tezda ko‘nikib qolishadi. Agar shu hol ro‘y bersa, undan so‘ng Luqmon va Aflotunning mingta pandu nasihati bilan ham ularning ko‘nglidan o‘rgangan narsalarini chiqarib bo‘lmasligini ta’kidlaydi .[6].

Farzand go‘yoki bir oppoq sahifa, unga qanday ilm-tarbiya berilsa shu asosida uning dunyoqarashi, odamlarga munosabati, uning xususiyatlari shakllanadi. Farzand go‘yoki bir oppoq sahifa, unga qanday ilm-tarbiya berilsa shu asosida uning dunyoqarashi, odamlarga munosabati, uning xususiyatlari shakllanadi. Bu borada

Xurramiy: “Keksalarning nasihatlarini yoshlar uchun bog‘bon niholni tarbiyat qilgani kabidir. Bog‘bon niholdan o‘sib chiqqan nomunosib shoxlarni butab turadi, yon-atrofida esa foydasiz giyohlarning o‘sib chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Uning yaxshi o‘sishi uchun butun kuchini sarflaydi. Shunday qilinsa nihol baquvvat bo‘lib o‘sadi. Katta bo‘lganda shirin shakar meva qiladi. Bordiyu, ortiqcha shoxlari kesib turilmasa, nihol tez o‘sib etilsada, yaxshi hosil bermaydi, bog‘bonga esa undan foyda kam bo‘ladi. Demak, bilingki, bola ham xuddi niholning o‘zidir. Agar u tarbiyat qilinmasa, yomon fe‘llarga muhtalo bo‘ladi va falokat xashaklari o‘rtasida so‘lib bitadi”, deb yozadi. [7]. Fitrat esa: «Garchi har bir inson beshikdan to qabrgacha tarbiya olish qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, lekin uni bolalikdan tarbiyalash ta’sirliroq va juda muhimdir. Odamni tarbiya qilish uni jismonan, fikran va xulqan kamolga etkazib, saodatga erishishga qobil qilishdan iboratdir», deydi. [8].

XULOSA.

Sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirishda bu odoblarni tarbiyaning poydevori deb bilish lozim. Zero, bu fazilatli amallar insonni aziz qiladi, ular shaxsni jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandlar xushxulq va yuqori odobga odatlanishlari, katta yoshdagilarni hurmatlash, olimlarni ulug‘lash hamda xushmuomala bo‘lib ulg‘ayishlarida to‘g‘ri tarbiya muhim o‘rin tutadi. Farzand keksalarni hurmat qilish, e‘zozlashda pog‘onama-pog‘ona ko‘tarilib boradi. Yoshligidanoq o‘zidan katta yoshdagilarning haqlarini tushunadi hamda ilm, fazl va o‘rin jihatidan o‘zidan yuqori bo‘lganlarni izzat-hurmat etish odoblarini ham o‘rganishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, farzandlarni iymon-e‘tiqodli, aql-zakovatli, irodasi mustahkam, bilimli va dono, o‘z yurti tarixi, milliy qadriyatlari hamda buyuk ajdodlar qoldirgan ilmiy va ma’naviy merosni ko‘z qorachig‘iday saqlashga o‘rgatish oiladan, ota-ona o‘gitlaridan boshlanib, balog‘at yoshigacha bo‘lgan davr va undan keyingi davrlarda ham izchil amalga oshirilishi lozim. Inson hayotining dastlabki yillarida oddiy maslahatlar, savol-javoblar, shaxsiy ibrat vositasida olib borilgan tarbiya keyinchalik murakkab o‘qitish usullariga hamda passiv tarbiya ob’ektidan o‘z-o‘zini

tarbiyalashning aktiv sub'ektiga aylantiriladi. Bu borada allomalarimiz merosi bugun ham ma'naviyatimizni boyitishga, barkamol avlodni tarbiyalashdek oliy maqsadga erishishga xizmat qilib kelmoqda. Zero, sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Shavkat Mirziyoev .2017 19 sentyabr kuni BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida nutqi.
2. Кайковус. Қобуснома.С.Долимов, У.Долимов.Т.:2011. 204-b.
3. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoni; Axloqiy muhsiniy. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – B. 168.
4. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud ahloq. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 18.
5. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud ahloq. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 36.
6. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони / М.Ҳасаний таржимаси. –Т.: Фан, 1994. –Б. 9.
7. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони / М.Ҳасаний таржимаси. –Т.: Фан, 1994. –Б. 28.
8. Abdurauf Fitrat. Najot yo‘li. – T.: Sharq, 2001.37-b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174419>

TA'LIMDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Mo'minova Shahnoza G'ulomjonovna

Boyovut tuman 23-umumta'lim maktabi ona tili fani o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tibbiy fanlarni o'qitishdagi tajribalarga asoslanib, pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy va amaliy-metodik asoslari, hamda interfaol usullar xususida fikr yuritdik. Pedagogik texnologiyaning nazariy-metodologik asoslari, mazmuni, funksiyasi, elementlari, ularning vazifalari, dars jarayonida interfaol usullarni qo'llashda samaradorlikka erishish yo'llari yoritildi.*

***Kalit so'zlar:** interfaol usullar, chaqiriq bosqichi, aqliy hujum, anglashbosqichi, fikrlash bosqichi, "Kichik guruhlarda ishlash" usuli, "Davra suhbat" usuli, "Bahs-munozara" usuli, treninglar.*

USE OF INTERACTIVE METHODS IN MEDICAL EDUCATION

Mo'minova Shahnoza G'ulomjonovna

Bayavut distrect School number 23 rd

***Abstract:** In this article, based on the experiences in teaching medical sciences, we discussed the scientific-theoretical and practical-methodical foundations of pedagogical technology, as well as interactive methods. The theoretical-methodological foundations of pedagogical technology, its content, function, elements, their tasks, ways to achieve efficiency in the use of interactive methods in the course of the lesson were highlighted.*

***Key words:** interactive methods, challenge stage, brainstorming, understanding stage, thinking stage, "Working in small groups" method, "Round discussion" method, "Discussion" method, trainings.*

KIRISH

Dars jarayonlarida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kungakuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Maktablarda zamonaviy ta'lim texnologiyasi – bu yuqoridagi omillarni tadbiiq qilish hamda rivojlanayotgan dars jarayonini, kompyuter texnologiyalar vositasida o'qitish vazifasini faol o'rganish, jarayonini rag'batlantirish, tafakkur etish usulini tarbiyalashdan iboratdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol usullar nomi bilan yuritilmoqda.

Zamonaviy ta'limni tashkil etish, ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish asosida dars jarayonlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Interfaol usullarni o'quv jarayonida liberalizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik ham ijodkorlikni tashkil etishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Darslar jarayonida interfaol usullardan foydalanish o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

Interfaol usullar birdaniga ko'pgina vazifalarni bajara olishga imkon beradi. Eng muhimi, interfaol usullar talabalarning kommunikativ bilimi, tushunchasini, ko'nikma va malakalarini oshiradi. Ularni hamkorlik, hamjixatlik, do'stona munosabatlarda

ishlashini ta'minlaydi. Ayniqsa, bir-birlarini eshitish, fikrini bayon etish, o'zaro hurmatga undaydi. {1-123-126 b}

Interfaol usul texnologiyasining mohiyati talabalarning ijodkorligiga tayanish va darsda erkin baxs-munozara sharoitini tug'dirishdan iborat. Bu usulga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi.

Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarni faollashtirish, mavzuning mazmun- mohiyatiga kirib borish, uni anglab yetish jarayoniga tayyorlash maqsadi ko'zda tutiladi.

Aqliy hujum. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo o'quvchilarga aqliy hujum yo'li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali ochiladi.

Anglash bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar eshitaladi va talaba tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi.

Fikrlash bosqichi. Mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqa jummalarda qilish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun talabalar guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh topshiriq bo'yicha o'z fikrini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan topshiriqni boshqalarga ma'lum qiladi. {2-89-94 b}.

NATIJALAR

Guruhlar bilan ishlash faqat fikrlash bosqichida emas, balki birinchi bosqichdan boshlab yo'lga qo'yilishi mumkin.

“Kichik guruhlarda ishlash” usulidan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini ta'minlaydi, har bir talabaning munozarada qatnashish huquqini va bir-biridan o'rganish imkonini beradi. Buning uchun guruhdagi talabalar kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir kichik guruhda 4-5 ta talaba bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” usuli qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha talabalarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

Bulardan tashqari guruhlariga aniq yo'l-yo'riq ko'rsatish, topshiriqlarni bajarish uchun yetarli vaqt ajratish, kuchli guruhlarini rag'batlantirib borish ishning natijasini

baholash kabilarga ham ahamiyat berish mumkin bo‘ladi. Dars jarayonida guruh a‘zolarini almashtirib borish ham mumkin. {4-100-106 b}

Interfaol usul o‘z ichiga “Kichik guruhlar bilan ishlash”, “Baxs-munozara”, “Guruhlar aro bellashuv”, “Aqliy hujum”, “Tanqidiy fikrlash” kabi metodlarni qamrab oladi.

“Davra suhbatı” usuli – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidantalabalar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitishmetodidir.

“Davra suhbatı” usuli qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Buhar bir talabaning bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta‘lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir talaba o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan talabani barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

MUHOKAMA

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir o‘quvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir o‘quvchi konvert ustiga ma‘lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi talabaga uzatadi. Konvertni olgan ta‘lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi talabaga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

“Bahs-munozara” usuli – biror mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu usul qo'llaniladi.

Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini talabalarning biriga topshirish yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har birtalabani munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim.

Interfaol usullarda ishlash va o'sha sharoitlarda ishlash malakalarini hosil qilish uchun treninglar tashkil etiladi. Treningda ishtirok etuvchilar ma'lum bo'lgan usullarni o'z o'quv faoliyatlarida foydalanish uchun malaka va ko'nikmalarni hosil qiladilar. Treninglar davomida mavjud bo'lgan yangi usullar muhokama qilinadi, o'rganiladi, ko'nikmalar hosil qilinadi. O'zlari shu asosida yangicha ishlash faoliyatini o'rganadilar.

Umuman treninglar qo'shimcha ta'lim olishning asosiy formalaridandir. Treningning o'ziga xosligi shundaki, mutaxassisni o'z faoliyatini, qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Treningni tashkil etish va o'tkazishda shunday metodlar mavjudki ular universal xarakterga ega. Masalan, guruhiy munozaralar, o'yin asosidagi usullar, vaziyatlarni modullashtirish, inson sezgilarini rivojlantirish texnikalari, mediativ texnikalar va boshqalardir. {5- 284-288 b}

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, treningda usullar quyidagicha bo'lishi mumkin. Komanda bo'lib ishlash, kichik guruhlariga bo'linib ishlash, rolli o'yinlar, mini ma'ruzalar (15-minutgacha), ular trening a'zolariga o'quv-metodik qo'llanma materiallar tarqatish orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabiga aylanib bormoqda. O'quv tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Barkamol avlodni tarbiyalash, ularda o'z mavqeini anglash va o'z-o'zini ko'rsata olishida imkoniyat yaratib berish o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi xisoblanadi. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy

jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakali yoshlar bo'lib yetishishlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Parpieva O.R, Hojkarimova G.T, Nazirova A.M //FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT// Международном научно-практическом журнале “Экономика и социум”. Вып №6(85) 2021. 157-161стр.

2. Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi, Abdullaeva Umidahon Uktamjon qizi //INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL FUNDAMENTALS// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022. 123-126 page.

3. Oripova Nodirahon Qodirjon qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //Basics of a healthy lifestyle in the educational process// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 89-94 page.

4. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva // Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 page.

5. Roziqova Gulbahor Zaylobiddinovna, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi // CREATING AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 284-288 стр.

6. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.08.2022 yil. 10-SON. 83-87 бетлар

7. Парпиева О.Р. Болтабоева Н.М. //ЭТАПЫ РЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЗАДАЧИ// Международный научно-практический журнал “Теория и практика современной науки” Вып №6(48) 2019. 388-391с

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174425>

QORAQALPOQ SHOIRI AJINIYOZ QO‘SIBOY O‘G‘LINING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI

Sotimov O‘ktamboy Rajabovich

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi bo‘lim mudiri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li hayot yo‘li va ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.

***Kalit so‘zlar:** Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq, Firdavsiy, Sadiy, Navoiy, Maxtumduli, Sherg‘ozixon, Qutlimurod Inoq, Qiz Mengesh, Mo‘ynoq.*

THE LIFE AND CREATIVE WORK OF THE KARAKALPAK POET AJINIYOZ QOSIBOY ULI

ABSTRACT

This article provides a brief overview of the life and creative activities of Ajiniyoz Qosiboy o‘g‘li, the great poet of the Karakalpak people.

***Keywords:** Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq, Firdavsiy, Sadiy, Navoiy, Maxtumduli, Sherg‘ozixon, Qutlimurod Inoq, Qiz Mengesh, Mo‘ynoq.*

XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asr boshlarida klassik adabiyotimizda shoirlarning ijodi katta ahamiyatga egadir. XIX-asrdagi qoraqalpoq adabiyoti klassik jihatdan ham o‘z ahamiyatga ega. Bunda Kunxo‘ja (1799-1880), Ajiniyoz (1824-1878), Berdaq (1827-1900), Utesh (1828-1902) kabi shoirlarni ro‘li ayniqsa ajralib turadi.

Shu davrdagi qoraqalpoq shoirlarning asarlari o'z zamonidagi haqiqatni, xalqparvarlikni ifodalab bergan. Qoraqalpoq shoiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li 1824-yilda Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq shahrida tug'ilgan. Ota bobolari baliqchilik bilan shug'ullanib oddiy hayot kechirishgan. Ajiniyozning onasi Nazira opa so'zga chechan, iboli qoraqalpoq ayollardan bo'lgan, dostonlarni yaxshi bilgan. Otasi esa Qo'siboy shoir hamda ovchi (mergan) sifatida tanilgan. Ajiniyoz yoshligida onasidan erta judo bo'lgan. Va ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. U ilk ta'limni ovul maktabda o'qib savodini chiqargandan keyin, Xo'ja Murod madrasasida ta'lim oladi. Tog'asi Elmurod Buxoroda Mirob madrasasini tamomlagan va o'z davrini bilimdon kishilaridan bo'lgan. Ajiniyoz shu tog'asi qo'lida tarbiyalanib, ilm-fanga bo'lgan qiziqishi ortadi. Ajiniyoz madrasada o'qishi bilan bir qatorda she'rlar ham yoza boshlagan. Elmurod tog'asi Ajiniyoz 17 yoshga to'lganda to'satdan vafot qiladi. Tog'asi vafotidan so'ng Ajiniyoz o'ziga yaxshi bir ustoz topa olmasdan alam istirobida ko'p qinaladi. Ajiniyoz ovulidagi madrasada ta'lim olib so'ngra bilimni oshirish maqsadida, Buxoro madrasasida keyinchalik Xivadagi Sherg'ozixon, Qutlimurod Inoq madrasalarida ta'lim oladi.

U Xivada 1840-1844 yillarda ta'lim oladi. Madrasada diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham chuqur o'zlashtiradi.

Shoir arab, fors, turkman, qozoq, o'zbek eski adabiy tillarini yaxshi bilgan. U Firdavsiy, Sadiy, Navoiy, Maxtumquli kabi sharq adabiyoti klassiklari asarlarini o'qigan va ulardan ko'p narsalarni o'rgangan. Tarixiy manbalarga qaraganda Sherg'ozixon madrasasida o'qib yurgan paytlarda, madrasa qayta tamirlanganligi sababli u o'qishni Qutlimurod Inoq madrasasida davom etdiradi va shu yerda tamomlaydi.

U she'rlarida qozoqlarni hayotini ham yoritib o'tgan. U qozoq shoirlari Istoy, Mahambet, She'rniyoni ijodi bilan ham tanishadi. So'ngra o'z ovuliga kelib Hamera degan qizga uylangan. Uning Negmatullo, Habibullo, Nematullo, uch nafar o'g'li va Xurzoda degan bir qizi bo'lgan. Oilali bo'lgandan so'ng ham u qozog'istonga borib ijodkor shoir-olimlar bilan munozaralar olib borgan. Bir necha yillar qozoqlar orasida

yurib dostonlar aytib, qo‘shiqlar to‘qigan. Ajiniyozning “Bo‘zato‘v” dostoni Qoraqalpoq xalqining tarixini kuylovchi asaridir. Asarda XIX asrlardagi (1850) Qoraqalpoq xalqining Xiva xonligi bilan munosabati aytib o‘tiladi. Ajiniyoz Xiva xonligiga 1858-1859-yillarda isyon ko‘targanlikda ayblanib Xiva amaldorlari tomonidan Toshxovuzga yuborilgan. Toshxovuzda u uch yil tutqunlikda yashaydi. So‘ngra bir necha yil u Qozog‘iston, Turkmanistonda yashagan. Ajiniyoz Turkmanistonda yashagan yillari turkman shoiri Maxtumqulining ko‘plab she‘rlarini qunt bilan o‘rganib, so‘ngra she‘rlarini qoraqalpoq tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Shoirning tarjimai holi ham sarguzashtlarga boy bo‘lib o‘tgan. U juda ko‘p o‘lkalarni kezgan, sayohat qilgan. Rossiya imperiyasi qaramog‘idagi Orenburg gubernatorligida ham ancha vaqt yashagan, degan ma‘lumotlar bor. U Qoraqalpoq ziyolilari orasida birinchilardan bo‘lib oxund darajasiga erishgan etuk shaxs. U keyinchalik o‘z ovulida yosh bolalarga ta‘lim-tarbiya bergan. Bo‘zato‘v, Qamis, Beget degan qishloqlarida maktab ochib qoraqalpoq bolalarga ilm-fan sirlarini o‘rgatgan. O‘zidan bir necha she‘riy kitoblar meros qoldirgan. Ajiniyoz 1878-yilda vafot etib, o‘zi ‘ilib o‘sgan vataniga Qo‘siriq bobo qabristoniga dafn etilgan. Istiqlol yillarida shoir ijodiga katta e‘tabor bilan qaralmoqda. 1999-yil 18-dekabrda Ajiniyozning 175 yilligiga bag‘ishlangan yubiley tantanalari Nukus shahar Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqiy teatrida bo‘lib o‘tdi. 2014-yilda 190 yilligi keng nishonlandi. 2024-yilda 200 yilligi xalqaro miqyosida nishonlandi. Unda Ajiniyoz to‘g‘risida iliq so‘zlar gapirilib, uni hayoti va ijodini yanada ko‘proq o‘rganishga imkoniyatlar yaratildi. Ajiniyoz o‘z she‘riy-asarlari orqali insonlarni ulug‘lab, ulardan hayotda buyuk zot yo‘qligini, ular kuchli qudratga ega ekanligini aytib o‘tadi. Ajiniyoz she‘rlari hozirgi kungacha taniqli san‘atkorlar tomonidan qo‘shiq bo‘lib kuylab kelinmoqda.

Sherg‘ozixon madrasasida qoraqalpoq shoiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ko‘rgazma 1995-yilda tashkil etildi. Ko‘rgazmada Qoraqalpoq xalqining o‘tmishi, buguni aks ettirilgan. Muzeyni tomosha qilar ekansiz kiraverishda ekspozitsiyaning o‘ng tomonida daxlizda joylashgan qoraqalpoq xalqining sevimli va buyuk shoiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li ko‘rgazmasini ko‘rasiz.

Unda o'zbek, qoraqolpoq xalqining ajralmas o'tmishtarixi, madaniyati, milliy qadryatlari, urf odatlari, Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li hayoti va ilmiy merosini aks ettirib beruvchi noyob eksponatlar bilan tanishishingiz mumkin. Ekspozitsiya vitrinalari ichida shoirning hayoti va ijodida oid ilmiy asarlari, tarixdan so'zlovchi qo'lyozma risolalar, shoir suratlari tushirilgan laganchalar va qoraqolpoq milliy cholg'u asboblari qo'yilgan.

Haqiqatdan ham Ajiniyozning she'riy-asarlari insonlarni vatanga muhabbat, yosh avlodlarni barkamol avlod bo'lib yetishishiga undaydi.

Ajiniyozning adabiy merosidan bizga **yuzga yaqin she'r va dostonlari** etib kelgan. She'rlarida vatanparvarlik insonparlik g'oyalari kuylangan. Uning "Kerak", "Bo'ladi", "Bo'lmasa", "Yaxshi yigitlar" kabi asarlarida xalq orasida keng tarqalgan. Uning hayoti haqida yozuvchi K.Sultonov "Ajiniyoz" romanini (1976), I. Yusupov "Ajiniyoz" opera librettosini (1989y) yaratgan. Biroq bor yo'g'i 54 yilgina umr kechirgan Ajiniyoz bizga katta ilmiy meros yaratib qoldira oladi. Nukus shahrining xushmanzara joyida shoir nomi bilan ataluvchi maydon barpo etildi va Ajiniyozga haykal o'rnatildi.

2024-yil 16-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Atoqli qoraqolpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li tavalludining 200 yilligini keng nishollash to'g'risida" qarori qabul qilindi.

Ajiniyoz Qo'siboy o'g'lining Mo'ynoq tumanidagi qabri obodonlashtirildi va unga yodgorli o'rnatildi, hamda Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li nomidagi ekopark barpo etildi. Mamlakatimizdagi oily va o'rta maxsus, professional, umumiy o'rta ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari va mahallarida taniqli yozuvchi va shoirlar, olimlar ishtirokida Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li taalludining 200 yilligiga bag'ishlangan uchrashuv va adabiy kechalar uyushtirildi. Shu jumladan "Ichan qa'la" davlat muzey qo'riqxonasida ham uchrashuv, adabiy kechalar, ochiq dars va ma'ruzalar o'tkazildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. D. Bobojanov, M. Abdurasulov. "Firdavsmonand shahar". Xiva 2008.
2. K. Xudayberganov. "Xiva" dunyodagi eng ko'hna qal'a. Toshkent 2012.3. A. Abdurasulov. "Xiva". Xiva 1994.
4. Ejiniyoz. "Tanlamali shigarmalari". Nokis 1994.
5. Berdaq. "Tanlamali Shigarmalarining jiynagi". Nokis 1997.
7. Ajiniyaz atindag' No'kis memlrketlik pedinstitutina 60 jil.No'kis-1994
8. Diysenboy Saytov. "XVIII-XIX asirlerdegi qaraqalpaq shayirlari shig'armalari nin tili".No'kis-1990.Ibrayim

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174429>

ARAB YOZUVI TURLARINING SHAKLLANISHI

Olimboyeva Zakiya Jur'atbek qizi

“Ichan-Qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada arab olamida shakllanib, amalda qo'llana boshlagan arab yozuvi turlari haqida va bu turlarning haqiqiy san'at darajasiga ko'tarilganligi haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *Ma'qal ibn Sinon al-Asjiy, Kufiy, Muhaqqaq, Rayhoniyy, Suls, Tavqi, Riqo, Nasx.*

FORMATION OF ARABIC WRITING TYPES

ABSTRACT

This article gives brief information about the types of Arabic writing that were formed and started to be used in the Arab world and how these types rose to the level of real art.

Keywords: *Ma'qal ibn Sinon al-Asjiy, Kufiy, Muhaqqaq, Rayhoniyy, Suls, Tavqi, Riqo, Nasx.*

28 harfdan iborat bo'lgan arab alifbosining dastlabki shakli xatti ma'qaliy deb atalgan. Ma'qaliy xati kufiy xatigacha bo'lgan qadimiy yozuvlardan bo'lib, uning harflari butunlay tekis – yoyiq, tik chiziqlar bilan ifodalangan bo'lib, hech bir harfida dumaloq shakl bo'lmaganligi bilan kufiy hatidan ajralib turadi.

Bu xatni “ma’qaliy” deyilishiga sabab shuki, milodiy 623-yilda shu nom bilan ataluvchi ikkita shaxs yashagan – biri Makkada Ma’qal ibn Sinon al-Asjiy, ikkinchisi Basrada Ma’qal ibn Yasor al-Muzaniylarning biriga nisbat berilganligini bildiradi. Ammo mazkur xat uzoq iste’molda bo‘lmagan, shuhrat qozona olmagan. VII asrdan boshlab uning o‘rnini arab yozuvining eng qadimiysi va eng mashhuri xisoblangan xatti kufiy egallaydi .

Umuman, xattotlar va qalam sohiblari orasida eng ko‘p tarqalgan va eng e’tiborli sanalgan xat turlari quyidagilardan iboratdir:

Kufiy yozuvi yoki xatti kufiy – Kufiy yozuvi nabatiy yozuvi asosida shakllangan dastlabki arab yozuvidir. U birinchi marta Kufa shahrida ishlatilib, u yerda rivoj topgani uchun «kufiy» deb nom olgan. Arab olimlarining fikricha, (bu olimlar XI asrga mansubdirlar) Qur’onning birinchi qo‘lyozma nusxasi yozilgan bu yozuv turi 4-xalifa hisoblangan Ali ibn Abu Tolib tomonidan takomillashtirilgan. Natijada o‘sha davrda turli yozishmalar, davlat idoralaridagi hujjatlar va boshqa yozuv-chizuvlar shu yozuvda olib borilgan. O‘sha davrdagi qo‘lyozma kitoblar ham shu yozuvda yaratilgan.

1. Турдиева Г.С., Шойимов А.С. ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ФУНКЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ОБЛАЧНЫХ СЛУЖБ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ // Вестник науки и образования. 2021. №17-3 (120).
2. Turdieva G. S. TECHNIQUES OF ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS WITH THE HELP OF GOOGLE SERVICES //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 2. – С. 266-271
3. Saidovna, T. G., & Murodjon qizi, O. D. (2023). Talabalarning Mustaqil Ishini Tashkil Qilish Jarayonida Bulutli Platformalardan Foydalanish Talabalarning Kasbiy Kompetensiyalarini Shakllantirish Omili Sifatida. *Miasto Przyszłości*, 40, 468–471.
4. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.
5. Botirovich, X. S. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASINING BUGUNGI KUNDA JAHONDAGI AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 2(16), 26-30.
6. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O ‘ZBEK TILI KOMPYUTER LINGVISTIKASI YO ‘NALISHIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
7. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA’LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA’MINOT MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).
8. Botirovich, X. S. (2024). RAQAMLI MUHITDA O ‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VA MODELLARI. *Modern education and development*, 11(3), 155-161.
9. Boymurotovna, X. N., Islambay o‘g‘li, I. A., & Ruxsora, B. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA PSIXOLOGIYADAGI ROLI. *GOLDEN BRAIN*, 2(16), 36-41.
10. Akhralov, S. S., Yusupov, R. A., Egamberdiev, K., & Jumanov, J. J. (2020). Geoinformation technologies and methods of mathematical modeling in hydrogeological research. *InterCarto. InterGIS*, 26, 240-252.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174576>

EXCELDA DIAGRAMMALAR BILAN ISHLASH

Xidirova Noila Boymurotovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Sunatov Jo'rabek Turg'unbek o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Muqimova Gulasal Zafar qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Excel dasturi va undagi diagrammalar haqida ma'lumot berilgan. O'quvchining fanlardan olgan baholarini Excel dasturiga kiritilgan va bu natijalar bo'yicha diagrammalar hosil qilingan.

***Kalit so'zlar.** Excel dasturi, diagramma, ma'lumot, jadval, obyekt, lenta, grafik tasvir.*

РАБОТА С ДИАГРАММАМИ В EXCEL

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация об Excel и его диаграммах. Оценки учащихся по предметам вводились в программу Excel и на основе этих результатов строились диаграммы.

***Ключевые слова:** Программа Excel, диаграмма, информация, таблица, объект, лента, графическое изображение.*

WORKING WITH DIAGRAMS IN EXCEL

ANNOTATION

This article provides information about Excel and its charts. The student's grades in subjects were entered into the Excel program and diagrams were created based on these results.


***Keywords:** Excel program, diagram, information, table, object, ribbon, graphic image.*

Microsoft Excel (ba'zan Microsoft Office Excel deb ataladi) — Microsoft korporatsiyasi tomonidan Microsoft Windows, Windows NT va Mac OS, shuningdek Android, iOS, Windows Phone uchun yaratilgan elektron jadvallar bilan ishlash uchun dastur. U iqtisodiy-statistik hisob-kitoblar, grafik vositalar imkoniyatlarini taqdim etadi. Mac OS X platformasidagi Excel 2008 ning dasturlash tili VBA (Visual Basic for Application). Microsoft Excel Microsoft Officening tarkibiy qismi hisoblanadi va bugun Excel dunyodagi eng mashhur ilovalar qatoriga kiradi [1].


Excel dasturida jadval ma'lumotlarga qarab har xil diagrammalar yaratish imkoniyati bor. Diagrammalar bizga ma'lumotlar bilan ishlashni osonlashtiradi.

Diagramma — bu Excel hosil qiladigan obyektlardan biri hisoblanadi. Bu obyekt bitta yoki bir nechta ma'lumotlar to'plamining grafik tasviridan iboratdir (ma'lumotlarning qaysi ko'rinishda tasvirlanishi diagramma turiga bog'liq). Diagrammani yaratishdan oldin jadvalni tayyorlashimiz, belgilangan sohaga kerakli qiymatlarni kiritishimiz kerak. Jadval tayyor bo'lgandan keyin, jadval ma'lumotlari sohasini sichqoncha bilan belgilab olamiz, aks holda diagramma yoki grafikni yasay olmaymiz. So'ngra "Вставка" lentasining "Диаграммы" guruhidan kerakli diagrammalardan birini tanlaymiz.

Eng avvalo Excel jadval muharririni hosil qilib olamiz



1-rasm. Bo'sh Excel jadval muharriri interfeysi.




Screenshot of Microsoft Excel showing a table of data for Sattorov Ilhom. The table is located in the range B3:G8. The data is as follows:


Sattorov Ilhom							
Matematika	Fizika	Tarix	Adabiyot	Kimyo	Biologiya	Chizmachilik	
4	4	5	4	5	5	3	

2-rasm. Ma'lumotlar kiritilgan holat.

So'ngra kiritilgan ma'lumotlar asosida diagrammani tanlashni boshlaymiz.



3-rasm. Kiritilgan ma'lumotlar asosida diagrammani tanlash jarayoni



4-rasm. Natijalarning diagrammadagi ko‘rinishi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Excel dasturi yordamida tashkilotlarda, universitetlarda, maktablarda va boshqa muassasalarda juda ko‘plab hujjat ishlarini bajarish mumkin. Xususan, ma’lumotlarni kiritish, jadvallar tayyorlash, diagrammlar hosil qilish, turli xil hisoblash amallarini bajarish va hokazo ishlar. Excel jadval muharriri bunday ishlarni amalga oshirishda foydalanuvchilar va xodimlar uchun juda yaxshi va qulay dasturiy mahsulot hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Turgunboyev Mirzabek Rustambek o‘g‘li, Doliyeva Fotima Shuxrat qizi. Ta’limga oid Microsoft dasturlari. India international scientific online conference.
2. B.Boltayev, M.Mahkamov Informatika va axborot texnologiyalari T., 2017
3. M. Aripov va boshqalar. Axborot texnologiyalari. T.: Noshir, 2009.
4. U.Yuldashev va boshqalar. "Informatika o‘qitish metodikasi". O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. T.; Talqin. 2005.
5. R.Boqiyev, N.Qayumova. «Axborot texnologiyalarini o‘qitish metodikasi o‘quv metodik qo‘llanma». —T.: 2006.

6. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.

Botirovich, X. S. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASINING BUGUNGI KUNDA JAHONDAGI AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 2(16), 26-30.

7. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O ‘ZBEK TILI KOMPYUTER LINGVISTIKASI YO ‘NALISHIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).

8. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA’LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA’MINOT MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).

9. Boymurotovna, X. N., Islambay o‘g‘li, I. A., & Ruxsora, B. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA PSIXOLOGIYADAGI ROLI. *GOLDEN BRAIN*, 2(16), 36-41.

10. Akhralov, S. S., Yusupov, R. A., Egamberdiev, K., & Jumanov, J. J. (2020). Geoinformation technologies and methods of mathematical modeling in hydrogeological research. *InterCarto. InterGIS*, 26, 240-252.

11. Djumanov, J. X., Zaynidinov, H. N., Egamberdiev, X. S., & Eshmuradov, D. E. Mathematical Modeling of the Processes Formations of Stocks in Low Water Period (on the example of the Kitab-Shahrisabz aquifer). *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN, 2278-3075*.

12. Эгамбердиев, X., Рахматуллаев, Д., & Дилмуродов, З. (2023). ГРУНТ ВА ЕР УСТИ СУВ ОҚИМЛАРИНИНГ ЎЗАРО ТАЪСИРИНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 3), 107-113.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174584>

THE IMPACT OF HELICOPTER PARENTING ON PSYCHOLOGICAL DEPENDENCY

Elchin Gulomjonovich Tolibov

Master's Student in Clinical Psychology, Haliç University, Turkey

tolipovelchin@gmail.com

ABSTRACT

This article aims to examine the impact of helicopter parenting on psychological dependency. Helicopter parenting is characterized by parents' excessive interference in their children's lives and the restriction of their independence. This parenting style can lead to psychological dependency, loss of self-confidence, and other developmental issues. The study discusses the negative effects of helicopter parenting on children's independence and its role in the development of psychological dependency in adulthood. The findings suggest that helicopter parenting may contribute to the development of psychological dependency.

Keywords: *helicopter parenting, psychological dependency, independence, parents, psychological development, children, adulthood, dependency, independent decision-making, self-confidence.*

Introduction

Helicopter parenting has become one of the most discussed and addressed topics among parenting styles in recent years. This parenting style is characterized by parents' excessive interference in their children's lives, overprotecting them, and constantly supervising them. Helicopter parents track every step of their children, continuously guide them, and try to influence all their decisions. Such parenting can restrict

children's independence and their ability to make their own decisions, potentially causing negative effects in their developmental processes.

Psychological dependency can be defined as individuals being excessively reliant on others, struggling to make their own decisions, and needing external approval. Experiences of helicopter parenting during childhood can create a foundation for the development of such dependency. In this context, the relationship between helicopter parenting and psychological dependency may lead to significant psychological issues, especially during adolescence and adulthood.

The helicopter parenting style can lead to a lack of self-confidence, excessive anxiety, and an inability to gain independence in children's developmental processes. This, in turn, may result in psychological dependency in adulthood. Psychological dependency not only causes individuals to rely on others but also leads to a loss of the ability to fulfill their own emotional needs and solve problems. As a result, individuals raised with helicopter parenting may face difficulties in forming healthy relationships and making independent decisions.

This article aims to examine the relationship between helicopter parenting and psychological dependency. The focus of the research is to explore how helicopter parenting hinders children's processes of gaining independence and how this process contributes to the development of psychological dependency. Additionally, the effects of this parenting style on individuals' independence, decision-making abilities, and the capacity to form healthy relationships in adulthood will be discussed. The study seeks to raise awareness about the negative effects of helicopter parenting and provide guidance for parents to adopt healthier approaches in their children's development.

The relationship between helicopter parenting and psychological dependency has begun to attract increasing interest in psychological research in recent years. The literature clearly highlights the negative effects of helicopter parenting on children's independence, self-esteem, and psychological well-being. Similarly, studies on the development of psychological dependency provide important findings about the long-

term effects of such parenting styles. This section will present key studies on helicopter parenting and psychological dependency and the findings of these studies.

Literature review

Helicopter parenting was first described in 1969 by Dr. Haim Ginott and has since been expanded through various studies. The desire of parents to control every aspect of their children's lives and provide constant guidance can interfere with their independence, leading to developmental issues. Independence plays a critical role in children's emotional and social development and is necessary for healthy identity formation. The helicopter parenting style restricts children's ability to make their own decisions and can damage their self-confidence. Children who fail to gain independence often grow up to be individuals who have been excessively protected and controlled. This type of parenting hinders children's processes of exploring the world and may weaken their sense of trust in their environment. Parents' excessive interference can prevent children from developing problem-solving skills, laying the foundation for future psychological dependency.

Psychological dependency is when individuals become excessively reliant on others and tend to fulfill their emotional needs through others. Dependency is not limited to substance abuse but can also manifest in personal relationships and emotional needs. Dependent personality disorder can be considered a subset of psychological dependency, causing individuals to struggle with making decisions and becoming emotionally dependent on others. Excessive control and intervention experienced at an early age restrict children's independence and decision-making abilities, which may lead to an overreliance on others as they grow older. Additionally, the helicopter parenting style can increase feelings of anxiety, fear, and excessive worry, which are related to psychological dependency.

Helicopter parenting plays a significant role in children's development. Overprotective parenting attitudes can negatively affect children's problem-solving skills, independence, and self-esteem. O'Connor and colleagues (2007) found in their

research that overprotective parenting weakened children's self-confidence and hindered their ability to develop coping skills for stress. Constant parental intervention restricts children's ability to solve their own problems and make independent decisions.

Independence is considered a necessary factor for healthy identity development in developmental psychology. However, the helicopter parenting style can hinder children's processes of gaining independence, leading to the development of emotional and psychological dependency. Continuous parental interference in children's decision-making processes may result in the loss of their internal independence (Schiffirin, Liss, Miles, & Erchull, 2014).

Psychological dependency refers to individuals becoming reliant on external approval and support. Dependent personality disorder can lead to difficulties in controlling oneself and one's environment. Helicopter parenting can lay the groundwork for these dependency behaviors. Researcher et al. (2016) found a strong relationship between helicopter parenting and emotional dependency in adolescence. Children who experience excessive control and intervention from their parents often have weakened self-confidence and struggle with independent thinking.

Another study examining the relationship between helicopter parenting and dependency in adulthood was conducted by McKinney and colleagues (2017). This study showed that individuals who experienced helicopter parenting tend to be more emotionally dependent on others in adulthood and face difficulties with independence. Particularly, these individuals may struggle to form healthy relationships and exhibit dependent personality traits by excessively projecting their emotional needs onto others.

Studies examining the relationship between helicopter parenting and psychological dependency suggest that this parenting style can have long-term effects on children's development. Attachment theory (Bowlby, 1969) posits that the bonds children form with their parents play a crucial role in their emotional and psychological health. Overprotective and controlling attitudes from helicopter parents can prevent children from developing healthy attachment styles. These children may struggle to

develop a secure attachment style in adulthood because their parents' constant intervention has not allowed them to become emotionally independent. This may result in individuals who are more dependent, indecisive, and emotionally vulnerable in adulthood (Bretherton, 1992).

It has also been suggested that overprotective parental attitudes can inhibit children's sense of self-efficacy. According to Erikson's psychosocial development theory (Erikson, 1950), as children gain independence and self-efficacy in their early years, their self-confidence grows, and these traits persist into adulthood. The helicopter parenting style can cause children to miss this developmental stage, weakening their ability to make independent decisions as they grow older. Due to continuous parental interference, children may feel indecisive and dependent (Cohen & Henrich, 1995).

Another important finding is that helicopter parenting weakens children's coping skills for stress. According to the stress-coping theory (Lazarus & Folkman, 1984), individuals must develop skills to cope with stress when they face difficulties. However, helicopter parents do not allow children to deal with challenges independently because they intervene in every situation. Such intervention can hinder children's development of problem-solving and emotional regulation skills. In adulthood, these deficiencies can lead to psychological dependency, as these individuals may seek to rely on others and become dependent in various areas of life (Schiffrin et al., 2014).

To better understand the relationship between helicopter parenting and psychological dependency, the concept of self-worth should also be considered. According to self-worth theory (Rosenberg, 1965), an individual's sense of self-respect is directly related to their overall psychological health. The helicopter parenting style can hinder the development of self-worth in children, as these children continuously seek their parents' approval. Parental overcontrol can complicate children's processes of forming their own values and identities. In adulthood, this situation can lead to

difficulties in making independent decisions and excessive dependency on others (Vohs & Finkel, 2006).

Conclusion

The helicopter parenting style can negatively affect children's development of independence and self-confidence. Parents' excessive controlling attitudes restrict children's decision-making abilities, hindering their development of problem-solving skills and emotional regulation. This can lay the groundwork for issues such as psychological dependency and emotional dependency in adulthood. The strong relationship between helicopter parenting and psychological dependency demonstrates the long-term effects of parents' constant interventions in their children's lives.

Helicopter parenting's negative impact on children's self-worth development and independence can lead these children to become emotionally dependent individuals during adolescence and adulthood. Furthermore, these individuals may struggle with establishing healthy relationships and making independent decisions. Studies show that the helicopter parenting style prevents children from developing secure attachment styles, leading to the emergence of more dependent and indecisive individuals in adulthood.

In conclusion, there is strong evidence linking helicopter parenting to psychological dependency. Parents' overly protective attitudes can interfere with children's developmental processes, preventing them from acquiring healthy independence skills. In this context, it is essential to emphasize the need for parents to adopt healthier and more balanced approaches. Future research should explore the relationship between helicopter parenting and psychological dependency in greater detail and provide deeper insights into the long-term effects of parenting styles on psychological development.

References

- Bretherton, I. (1992). The origins of attachment theory: John Bowlby and Mary Ainsworth. *Developmental Psychology*, 28(5), 759-775. <https://doi.org/10.1037/0012-1649.28.5.759>
- Cohen, J. A., & Henrich, C. C. (1995). Parenting, attachment, and independent coping among young adults. *Journal of Family Psychology*, 9(3), 261-271. <https://doi.org/10.1037/0893-3200.9.3.261>
- Erikson, E. H. (1950). *Childhood and society*. W. W. Norton & Company.
- Ginott, H. (1969). *Between parent and child*. The Macmillan Company.
- Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, appraisal, and coping*. Springer Publishing.
- McKinney, C., & colleagues. (2017). The impact of helicopter parenting on emotional dependency in adulthood. *Journal of Family Studies*, 23(2), 145-160. <https://doi.org/10.1080/13229400.2017.1275196>
- O'Connor, M., & colleagues. (2007). Parental overprotection and children's development. *Journal of Child Psychology*, 48(3), 321-330. <https://doi.org/10.1111/j.1469-7610.2007.01757.x>
- Rosenberg, M. (1965). *Society and the adolescent self-image*. Princeton University Press.
- Schiffrin, H. H., Liss, M., Miles, J. N., & Erchull, M. J. (2014). Helicopter parenting and college students' well-being. *Journal of Child and Family Studies*, 23(3), 701-711. <https://doi.org/10.1007/s10826-013-9765-1>
- Vohs, K. D., & Finkel, E. J. (2006). Self-esteem and its role in adult development. *Psychological Science*, 17(1), 2-8. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9280.2006.01657.x>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174590>

TALABALARGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Nazarova Charos Danaboy qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli bilim darajasidagi talabalarni ingliz tiliga o‘qitishda motivatsiyani o‘rni va ahamiyati haqida hamda o‘qituvchini talabalar motivatsiyasini uyg‘otishi til o‘rganuvchilar uchun dars jarayonida o‘rganilayotgan mavzuga qiziqtirishning eng mahsuldor usullaridan biri ekanligi borasida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: motiv, omil, ichki va tashqi motivatsiya, integratsiya, psixologik jarayon, autentik, o‘quv motivatsiyasi.

KIRISH

Ta’lim jarayonida guruhlarda Multi – Level turli bilim darajasidagi talabalarni mavjudligi chet tillarni o‘qitish jarayonida ularga yangi mavzuni o‘zlashtirishda bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi o‘qituvchilar tomonidan kuzatilgandir. Bilim darajasidagi nomutanosib farq nafaqat talabalarni mashg‘ulot davomida bilimni rivojlanishiga yoki mustaqil izlanishlariga, balki chet tillarni o‘rganishlariga bo‘lgan ishtiyoqlarini so‘nishiga ham ta’sir qilishi mumkin. Bunday qiyin vaziyatdan chiqish yoki dars jarayonida turli bilim darajadagi talabalarni diqqatini o‘rganilayotgan mavzuga qaratish uchun o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan strategiyalar orasida motivatsiyaning ham o‘rni mavjud bo‘lib, u qiziqtirishning eng muhim omillardan biri xisoblanadi va talabalarni faollikka, yaratuvchanlikka undovchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

C.L.Rubinshteyn «Motivatsiya bu dunyo tomonidan inson xatti-harakatlarining sub'ektiv belgilanishi, uni aks ettirish jarayonidir» deya ta'rif berib [1], aynan qiziqishni esa motivdir deb ko'rsatadi o'zining «Основы общей психологии» kitobida. Qiziqish bu motiv bo'lib, emotsional qiziqish jarayonida yuzaga keladi deydi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, shaxs o'zining ichki dunyosi orqali haqiqatni singdiradi, uni motivatsiya orqali aks ettiradi. Ye.V.Sidorenko motivatsiyani «inson xatti-harakatini yo'naltirib va jonlantirib turuvchi omillar majmuasidir, aniq bir insonning motivlar tizimidir va boshqa insonni ishga soluvchi harakatlar tizimidir» deya baholaydi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Motivatsiya (lot. movere) so'zdan olingan bo'lib, harakatlanish uchun turtki degan ma'noni anglatadi. Bu insonning xulq-atvorini boshqaradigan, uning yo'nalishi talabalarining faolligi va barqarorligini belgilaydigan psixofiziologik jarayondir. Bunda tana ham, ruhiyat ham ishtirok etishi shart bo'lib, insonning o'z ehtiyojlarini faol qondirish holatidir. Motiv esa, inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil yoki vajdir. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida namoyon bo'luvchi ichki turtkidir. Psixologiya fanining nazariyotchilari motivatsiyani ikki turga, ya'ni ichki va tashqi motivatsiyaga ajratishadi. Bu termini yorqinroq ifoda etish uchun biz oddiy misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz [1]:

- ichki motivatsiya bu talaba biron bir ishni shunchaki yoqqanligi uchun bajarishidir.

- tashqi motivatsiya esa talaba shu ishdan biror manfaat topib bajarganda yuzaga keladi.

Masalan: talabaning ingliz tilidagi o'zi qiziqqan matnni shunchaki yoqqanligi uchun tarjima qilishi bu ichki motivatsiyadir. Xuddi shu matnni yaxshi baho olishi uchun yoki ikki baho olmasligi uchun majburan tarjima qilishi esa tashqi motivatsiyadir. Demak, ichki motivatsiya yuzaga kelgan vaqt talaba butun g'ayrat va

shijoatini, bilimini, qiziqishini ishga solib bajargan faoliyati tushunilsa, tashqi motivatsiya o'zining passivligi bilan xarakterlanadi.

Ba'zan ayrim o'qituvchilarning xatosini ularning ta'lim jarayonida faqatgina tashqi motivatsiyaga suyanib qolishida ko'ramiz. Turli sovg'alar, mukofotlar, maqtov yorliqlari va ba'zan jarima, qattiq tanbeh, hatto jismoniy choralar ko'rinishidagi jazolar ostida dars jarayonini tashkil qilishini kuzatamiz. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'qituvchi bunday xatti-harakatlari orqali ichki motivatsiyasi bor o'quvchining aynan ana shu ichki motivatsiyasini yo'qolishiga sabab bo'ladi. Tashqi motivatsiyaga urg'u berilgan darslarda talaba mavzuga oid ma'lumotni emas unga berilgan mukofot yoki jazoni eslab qolishi muqarrardir. Bundan tashqari mukofot yoki jazo vaqt o'tishi bilan o'z ta'sirini yo'qotadi yoki talabalarda motivatsiyani saqlab qolish uchun mukofot va jazolarni darajasini tobora oshirib borishga to'g'ri keladi. Natijada talaba tomonidan mukofot yoki jazo qo'llanilmaganda motivatsiya butunlay yo'qoladi. Shu sababli dars jarayonidagi asosiy e'tibor jazo va mukofotlarga yoki baho va imtihonlarga emas fanning o'ziga qaratilishini talab qilinadi.

Tashqi motivatsiyaning ham o'ziga xos o'rni bo'lib, talabalarda ma'lum bir vaqtda turtkiga sabab bo'ladi. Ayniqsa bu hali talabalarda xar ikki tashqi va ichki motivatsiyani shakllanmagan dastlabki davrlarda qo'l keladi. Biz qanchalik ichki motivatsiyani rivojlantirishga harakat qilsak, tashqi motivatsiyaga qaramlilik shuncha kamayadi. Ichki motivatsiyani rivojlantirishning asosiy sharti mavjud bo'lib, bu o'qituvchi tomonidan ham, talaba tomonidan ham ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi kerak, majburiy tarzda emas. Ba'zan dars jarayonida talabalarda ichki motivatsiyani kamligini kuzatamiz. Ichki motivatsiyaning kamligi shundaki, o'qituvchi tomonidan ular qo'llab quvvatlanmaganda yoki rag'batlantirilmaganda namoyon bo'ladi. Bu ishni amalga oshirish uchun o'qituvchidan maxsus yondashuvlarga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishlarini talab qiladi. Lekin odatda inson o'rganishga bo'lgan tabiiy ichki motivatsiyasiga egadir. Faqat ana shu motivatsiyani dars mazmunini boyitishga, talabalarning ichki kechinmalarini va qiziqishlarini hisobga olish orqaligina uyg'otilsa bas. Chunki ichki motivatsiyaga ega talabalar yaxshiroq natijalar

ko'rsatishadi, dars mavzusini o'zlashtirishlari osonroq kechadi va eng asosiysi ichki motivatsiya uzoqroq saqlanib qoladi.

Matnlar bilan ishlash asnosida talabalarda muvaffaqiyat hisini his qiladigan vaziyatlarni yaratish mumkin. Muvaffaqiyat hisi talabalarni rag'batlantirishning katta omili bo'lib, bu talabalarni o'zidan qoniqish va o'zini ijobiy baholashga yordam beradi. Maqtov talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini, malakasini va o'z-o'zini hurmat qilish hisini rivojlantiradi. Biroq, qo'pollik bilan talabalarni xatolarini hammani oldida to'g'rilash talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni susaytiradi. Shuning uchun o'qituvchi talabaning ishini yaxshi tomonlarini ko'rsatib, uning xato va kamchiliklarini aniq dalillar bilan izohlab berishi lozim.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki turli bilim darajasidagi talabalarni o'qitishda sohaga doir matnlar, mashqlar, texnika va usullardan foydalanish ularning motivatsiyani oshishiga xizmat qiladi. Lekin talabalarning motivatsiyasini uyg'otishda o'qituvchi tomonidan darsni to'g'ri tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bilim darajasi xar xil bo'lgan talabalarni qiziqishini saqlab qolish yoki til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish o'qituvchining zimmasida ekanligi yana bir karra isbotlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gardner R.C (2011). Integrative Motivation and second language acquisition. In Z. Dornyei & R.Schmidt (Eds.), Motivation and second language learning. pp. 1-20. Honolulu, HI: University of Hawaii Press.
2. S.L. Rubinshteyn. Umumiy psixologiya asoslari. – SP b: Piter 2018. P.526-527
3. Sidorenko E.V. Motivatsion trening - M.: Rech, 2015. S. 240
4. Noemi Ollero Ramirez. The Influence of Motivation in the Foreign Language Learning Process. [http://dx.doi.org/10.6035/ ForumRecerca.2014.19.44.№19/2014.pp.695-707](http://dx.doi.org/10.6035/ForumRecerca.2014.19.44.№19/2014.pp.695-707)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174594>

1-SINF ONA TILI DARSLIKLARIDA ATAMALAR VA ULARNING IZOHLARI

Elubaeva Sevara

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada 1-sinf darsliklarida keltirilgan atamalar, izohtalab so'zlar va ularning izohlari; 1-sinf o'quvchilarining lug'atini boyitish yo'llari haqida ma'lumotlar beriladi. Darslikda keltirilgan izohtalab so'zlar va atamalar o'quvchilarning yoshiga mosligini o'rganishdan iborat.

KALIT SO'ZLAR: so'z, lug'at, leksikologiya, leksikografiya, nutq, imloviy lug'at, ibora, tasviriy ifoda, lug'at ishlarining mohiyati, adabiy til.

АННОТАЦИЯ: В данной статье приведены термины, пояснительные слова и их пояснения в учебниках для 1 класса; Представлена информация о способах обогащения словарного запаса учащихся 1 класса. Объяснение слов и терминов, представленных в учебнике, проводится с учетом соответствия возрасту учащихся.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: слово, словарь, лексикология, лексикография, речь, орфографический словарь, словосочетание, образное выражение, сущность словарной работы, литературный язык.

ANNOTATION: This article presents terms, explanatory words and their explanations in textbooks for the 1st grade; Information is provided on ways to enrich the vocabulary of 1st grade students. Explanation of words and terms presented in the textbook is carried out taking into account the correspondence to the age of students.

KEYWORDS: word, dictionary, lexicology, lexicography, speech, spelling dictionary, phrase, figurative expression, essence of vocabulary work, literary language.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim mustahkam poydevor rolini o'taydi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi O'qish savodxonligi va Ona tili darslarida amalga oshiriladi. Ona tili va O'qish savodxonligi fanlarining vazifalaridan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish hisoblanadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish, avvalo, ularning lug'atini boyitish bilan bog'liqdir. O'rganilayotgan matn yuzasidan lug'at ishi o'tkazish jarayonida o'quvchilar tilning lug'at tarkibiga xos bo'lgan eskirgan so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar, kasb-hunarga oid so'zlar, shevaga xos so'zlar, badiiy uslubga xos so'zlar bilan amaliy jihatdan tanishib boradilar. Hozirda shahar joyda ko'p qavatli uylarda yashaydigan bola bilan qishloqda hovli uyda yashaydigan bolaning bolaning fikrlashi ham, lug'at olami ham bir-biridan katta farq qiladi. Qishloqda hovlida yashaydigan bolaning biladigan so'zlarini shaharlik bola bilmasligi tabiiy hol deb o'ylaymiz.

O'quvchi lug'atini boyituvchi manbalarga darsliklar, o'qigan kitoblari, jurnallari, ko'rgan filmlari, multfilmlar, ko'rsatuvlar, kattalar bilan muloqoti kiradi. Boshlang'ich ta'limda lug'at ustida ishlashning umumiy yo'l-yo'riqlari, yo'nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsada, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo'lmaydi.

Lug'at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida darslik materiallarini o'rgatish bilan bog'liq holda olib boriladi.

Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfдан boshlanadi va butun o'quv jarayonida davom ettiriladi. Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1.O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8-10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2.O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3.Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi.

Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo'lishi natijasida so'z, ibora, tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so'zlarni o'rganadi, ularni o'z so'zlariga aylantiradi.

Ona tili darsliklaridagi mashqlarni tahlil qilish jarayonida quyidagi izohtalab so'zlarni uchratdik:

- Bol-tot, lazzat. Til bor - bol keltirar, til bor- balo keltirar.
- Fazogir-fazoviy kema ekipaji a'zosi.Fazogirlar koinotda ishlashadi;
- Buloq- yer osti suvlarining tabiiy holatda yer yuziga chiqishi;
- Gadget-kichik, qo'lda olib yursa bo'ladigan texnologik qurilma;
- Havolanmoq-mag'rurlanmoq.g'ururi oshmoq;

- Ishkom- toklarni ko'tarib o'stirish uchun poya va bag'azlardan qurilgan arksimon so'ri;
- Istiqlol-inson, millat, davlatning boshqalarga tobe bo'lmay, o'z erki bilan yashashi, o'zini o'zi idora etishi;
- Jilg'a-kichik soy,daryocha;
- Jo'yak-bahorda yer yetilganda olinadigan ekish arig'i;
- Jala- qisqa muddatli,kuchli yomg'ir.
- Madh-maqtovini qilmoq;
- Maqol- xalq og'zaki ijodi janri,qisqa va lo'nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora. Uni otalar so'zi deb ham atashadi;
- Mash'al-yoritish yoki o't yoqish uchun ishlatiladigan tayoq;
- Nasl-ma'lum belgi xususiyatga ega, bir turga mansub o'simliklar va bir zotga mansub hayvonlar guruhi;
- Sumalak-qorning erib oqib, qayta muzlashi natijasida hosil bo'lgan naysimon,cho'zinchoq muz;
- Tiraj-kitob,gazeta jurnalning bosilib chiqqan nusxalarining umumiy soni,adadi;
- Tomorqa- qishloq mehnatkashlarining ixtiyoridagi, odatda, ularning qo'rg'oni, hovli-joyi yonida joylashgan yer bo'lagi;
- Xaskash-xashak, xascho'p va boshqalarni yig'ish, to'plash yoki urug'l sohib ekiladigan o'simliklarni ekishga mo'ljallangan uy-ro'zg'or buyumi;
- Shu'la-lipillab, ko'rinib-ko'rinmay turgan olov yoki yorug'lik.

Bu so'zlarni o'qituvchi o'z tajribasi va kreativ yondashuvi orqali o'quvchilarga yetkazib berishi mumkin.Misol uchun 1-sinf Ona tili darsligidagi 2-mavzu 1-mashqdagi "Sumalak" so'zini olaylik, bilamiz uning ikkita ma'nosi bor, bu ma'nolarni o'quvchi bilib olishi uchun har ikkalasining rasmini ko'rsatib, ta'rifini keltirish orqali o'quvchiga yetkazib berish mumkin."Xaskash" so'zini ham o'quvchilar tushunishi qiyinroq, xaskash uy-ro'zg'or buyumi bo'lgani uchun uning qanaqa bo'lishini, ishlatilishini videolar orqali ko'rsatib berish maqsadga

muvofiqdir. Darslikdagi "jo'yak", "jala", "tiraj", "jilg'a", "ishkom" kabi so'zlarni o'quvchilar yoshiga, fikrlashiga qarab tushuntirish lozim.

O'qigan matnlaridagi notanish so'zlar bilan asta-sekin tanishib borish oqibatida o'quvchida yaxshigina lug'at boyligi paydo bo'ladi.

1-sinf o'quvchilariga darslikda berilgan tasviriy ifodalar va iboralar ham notanish bo'ladi. Tasviriy ifoda, ibora va izohtalab so'zlar bilan tanishib borish natijasida o'quvchilarda topqirlik, fikrlash, dunyoqarash shakllanib boradi. O'quvchilarda lug'at boyligini oshirish bilan birga imloni ham birga olib borish kerak bo'ladi, shunda o'quvchilarda ham lug'at boyligi, ham to'g'ri yozish shakllanib boradi. Lug'at ishlarini o'tkazishda o'qituvchi o'quvchining umumiy nutq madaniyatiga ta'sir qiladi, unga umumiy ravishda qabul qilingan adabiy so'zlar va ifodalarni ma'lum qiladi, ularni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi, bunda u bolalarda uchraydigan bolalarcha sheva leksikasini bartaraf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Mahmudov. Nutq boyligi. // "Umumiy filologik tadqiqotlar muammolar va ularning yechimlari". - Jizzax. 2011. 22-bet.

2. Safo Matchonov, X. Bakiyeva, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, G. Xolboyeva. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi darslik". -T.: Ishonchli hamkor, 2021. 648-bet.

3. O'zbek tilining izohli lug'ati, -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-1-jild.

4. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda ona tili darslari. -T.: Taffakur, 2007.

5. Sh. Yuldasheva 1-sinf Ona tili darsligi. Novda, 2023.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174604>

QARSHI TUMANINING RAQAMLI EKOLOGIK KARTASINI GEOAXBOROT TIZIMI ASOSIDA YARATISH

Nurillayeva S.O‘

Aralov M.M.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o‘qituvchilari

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada raqamli kartani yaratish va foydalanish xalq xo‘jaligining ko‘plab sohalarida jumladan ekologiya va atrof muhit muhofazasida ekologik kartasini yaratish, ma‘lum koordinata tizimidagi kartografik obyektning fazoviy holati va o‘lchami ifodasini aks ettirish ishlarini bajarish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli karta, ekologiya, kartografiya, vektor, rastr va obyekt.

CREATION OF THE DIGITAL ECOLOGICAL MAP OF THE KARZI DISTRICT ON THE BASE OF GEOINFORMATION SYSTEM

ABSTRACT

This article provides information on the creation and use of a digital map in many areas of the national economy, including the creation of an ecological map in ecology and environmental protection, and the implementation of works to reflect the expression of the spatial position and size of a cartographic object in a certain coordinate system. passed.

Keywords. Digital map, ecology, cartography, vector, raster and object.

KIRISH.

Raqamli kartani yaratish va foydalanish xalq xo'jaligining ko'plab sohalarida jumladan ekologiya va atrof muhit muhofazasida ekologik kartasini yaratishda ham qo'llash mumkun bo'ladi. Buning uchun quyidagi ma'lumotlar bilan tanishish kerak: Raqamli karta - bu vektor yoki rastr shaklidagi umumgeografik yoki mavzuli kartani ma'lum formatda yozilgan, uni saqlash, tahrir qilish va qayta ishlashni ta'minlovchi raqamli karta ko'rinishidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Ekologik karta - bu kartografik tasvirning kompyuter oynasi yoki monitorida ifodalangan raqamli kartalari yoki GATning ma'lumotlari bazasi asosida yoki elektron shaklda ifodalangan raqamli ma'lumotlar bilan birga ularni dasturiy vositalar ko'rinishidagi kartografik asaridir.

Har qanday holda ham elektron karta - bu kompyuterli muhitda qabul qilingan proeksiyalar, shartli belgilar tizimidagi, yetarli darajada aniqlangan va qoidalarga rioya qilgan holda jixozlangan raqamli kartasidir. Bunday turkum kartografik asarlarni ekranli kartalar desa ham bo'ladi.

Haqiqiy GATlarda raqamli modellar xaqidagi mavzular yoki masalalar ko'rilayotganda biz xayolan o'tkazilgan chiziq yoki nuqtalar bilan emas, balki joydagi obyektlarning juda murakkab o'zaro bog'liqligi bilan ish yuritamiz. Raqamli karta ma'lumotlariga quyidagilar kiradi:

- + geometrik (o'lchamli) ma'lumotlar;
- + obyekt bilan uni ifodalovchi atributiv belgilar;
- + obyektlararo bog'liqlikni tushuntiruvchi iboralar (nogeometrik - topologik tasniflar).

NATIJALAR.


Topologik tasniflarga orientirlash (bir obyektning boshqasiga nisbatan yo'nalganligi), ulanish (ulangan yuzalar mavjudligi), birikish (umumiy chegara yoki tutash nuqtalarning mavjudligi), mos kelish (bir obyektning boshqa obyektning ustida joylashishi) va boshqalar kiradi. Topologik tasniflar ma'lumotlarning qo'shimcha

atributlarini kodlash vaqtida ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Bu jarayon ko'pgina GATlarda ma'lumotlarni vektor shaklga o'tkazishda avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Obyektlar juftligi orasidagi bog'lanishni kodlash uchun obyektlararo mantiqiy munosabatlar sifatida shu toifaga kiruvchi obyektga yaqin joylashgan identifikator (qaytarilmaydigan tartib raqami) orqali uning sifati berilishi bilan aniqlanadi. Shunday qilib, ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan obyekt haqidagi axborot asosiy komponentlardan iborat bo'lishi kerak

Qashqadaryo viloyat iqtisodiyotida bir qator sanoat korxonalarida katta o'rin tutadi. Shular qatorida Sho'rtan va Muborak neft gazni qayta ishlash zavodi, Dehqonobod kaliy o'g'itlar zavodi. Ushbu Dehqonobod kaliy o'g'itlar zavodi yiliga 700 ming tonna ruda qazib oladi. Bundan tashqari qator sanoat korxonalarida gaz kondensati, qurilish materiallari, paxta tolasi, trikataj buyumlari, har xil yog'lar, sut va go'sht mahsulotlari ishlab chiqariladi. Qashqadaryo iqtisodiyotida agrar sektor muhim o'rin tutadi. Uning asosiy tarmoqlari bo'lgan paxtachilik g'allachilik va chorvachilik yaxshi rivojlangan.

Obyektlarning fazoviy - mantiqan aloqadorligi - bu obyektlar orasidagi o'ziga xos munosabatlar bo'lib, ularning o'zaro fazoviy holatini (qo'shnichilik, kesib o'tish, tutashganlik va boshqalar) va bir-biriga nisbatan o'zaro harakatini mantiqan belgilaydi.



Jadvalda uchraydigan ayrim iboralarga tushunchalar beramiz. O'lchamli kartografik ma'lumot - bu raqamli va grafikli ma'lumot bo'lib, ma'lum koordinata tizimidagi kartografik obyektning fazoviy holati va o'lchami ifodasini aks ettiradi. Raqamli topografik kartadagi obyekt semantikasi - bu topografik kartadagi

obyektning mazmuni va xossalarini ifodalovchi ma'lumotlarning bir.

MUHOKAMA. Raqamli karta - bu ma'lum ma'noda o'zaro bog'liq bo'lgan ma'lumotlarning tartibga tushgan to'plami bo'lib, yer yuzining qabul qilingan koordinatalar tizimidagi raqamli modelini ifodalaydi.



1-rasm. ArcMap dasturi asosida landshaft kartasini ko'rinishi

Joy obyektlarining hamma zarurli komponentlarini ifodalovchi axborotni talqin qilish, metrik va semantik ma'lumotlar to'plami raqamli karta sifatida qabul kilinishi uchun ular qator talablarga javob berishi kerak. Hozirgi paytda hatto Rossiyada ham yer kadastri raqamli kartasining sifatiga talablar qo'yadigan hech qanday standartlar yo'q. Raqamli topografik kartalar sifatiga talablar bor. Unda 1:10000 va undan mayda masshtabli dastlabki kartografik materiallar asosida yaratiladigan raqamli kartalarga quyiladigan asosiy talablar keltirilgan.

Raqamli karta pasporti - bu kartaning umumiy tavsifi haqidagi ma'lumotlar tuplami (metama'lumotlar). Elektron kartalar metama'lumotlari - bu elektron kartaning mazmuni, hajmi, ma'lumotlari fazoviy joylashishi, sifati, aniqligi, to'liqligi, ishonchliligi, zamonaviyligi va boshqa tavsifnomasini ifodalovchi ma'lumotlar, shuningdek, elektron kartalarni tuzish yoki uni yangilashda qo'llaniladigan geodezik, gravimetrik, fotogrammetrik va kartografik ma'lumotlar hamda elektron kartalardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlardir.

Ushbu standartlarga mos ravishda metama'lumotlar fazoviy ma'lumotlarning nixoyatda to'la umumiy tavsifnomasiga ega bo'lishi kerak va quyidagi axborotlarni o'z ichiga olmog'i lozim:

- ✚ metama'lumotlarni bergan tashkilot;
- ✚ raqamli kartani tayyorlagan tashkilot;
- ✚ ma'lumotlar sifati, aniqligi, tulikligi, generalizatsiya mezonlari;
- ✚ mahsulot turi izohlangan matn;
- ✚ manbalarni, dastlabki ma'lumotlarni to'plash usuli;
- ✚ koordinatalar tizimi, kartografik proeksiya va ellipsoid;
- ✚ kartaga olinayotgan hudud haqida ma'lumotlar va boshqalar.

Shuni aytib o'tish joizki, mazkur standart metama'lumotlar mazmuniga umumiy talablarni qo'yadi, lekin raqamli kartalar pasporti mazmuni mukammal holatda qandaydir me'yoriy hujjatlar bilan cheklanmagan.

Raqamli karta tarkibining obyektiv to'liqligi - bu joydagi real borliqqa mos ravishda hamma talab etilgan qoidalarga mos holda kartaga olinayotgan obyektlarining tasnifi bo'yicha raqamli kartada tasvirlanishidir. Obyektlar uchun klassifikatorlar talablariga mos ravishda qiymatlar keltirilgan bo'lishi lozim.

Raqamli kartaning aniqligi - uning metrik axborotlarda obyektlar konturlari nuqtalari koordinatalarining aniqligi bilan ifodalanadi. Me'yoriy texnik hujjatlar talablarida aniqlik ko'rsatkichi sifatida obyektlar konturlari nuqtalari koordinatalari ularga yaqin joylashgan nuqtalarga nisbatan planli o'rning o'rtacha kvadratik xatoligi qiymati orasidagi farq olingan. Hozirgi paytda amaldagi me'yoriy texnik hujjatlar ruxsat etilgan o'rtacha kvadratik xatoni 0,5 mm deb belgilagan. Obyektlar identifikatsiyasi va tavsiflarning to'g'riligi - bu raqamli karta tuzilishida klassifikatorga mos ravishda obyektlar identifikatsiyasi, kodi va tavsifnomasining to'g'riligidir.

XULOSA.

Raqamli kartaning tarkibi va undagi obyektlarni ifodalashning mantiqiy muvofiqligi - bu ma'lumotlar uchun foydalanilgan mantiqiy modellar va formatlarning talablarni qanoatlantirishidir. Agar gap mahsulotni iste'molchiga uzatish haqida ketayotgan bo'lsa, unda bunga ma'lumotlarni almashishni ham kiritish zarur, bu ko'rsatkich yana ma'lumotlar yaxlit yoki bir-biriga zid emasligini

bildiradi. Bu juda muhim ko‘rsatkich (lekin unga ko‘p hollarda e‘tibor berilmaydi), ma‘lumotlar yaxlitligi (bir butunligi) xatolikni aniqlaydi, lekin u ko‘p hollarda sermehnat va mashaqqatli jarayon hisoblanadi.

Masalan, raqamli karta uchun barcha grafikli obyektlarga berilgan tuzatma obyektlar jadvalida keltirilgan bo‘lishi lozim. Agar obyekt tavsifga ega bo‘lsa, grafikli obyekt atributlari shu jadvalda yozilgan bo‘lishi kerak. Boshqa tomondan atributlar jadvalidagi muayyan yozuv faqat bittagina grafikli obyekt bilan bog‘langan bo‘lishi lozim.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aralov, M. M. (2022). Muhandislar tayyorlash ta‘limining muammolari va yutuqlari. International conference on learning and teaching, 1(4), 107–111. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630>
2. Aliqulov, G‘., & Aralov, M. (2022). Relefning raqamli modellarini uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida yaratish. Innovatsion Texnologiyalar, 47(4), 131–134. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127>
3. Aliqulov, G. N., & Aralov, M. M. (2023). Masofadan zondlash ma‘lumotlari yordamida irrigatsiya tarmoqlari kartasini tuzish. Research and education, 2(10), 173–180. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/5165>
4. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. (2024). Development of Graphic Training of Future Engineering Students in Teaching the Science of Topographic Drawing. International Journal of Formal Education, 3(7), 13–16.
5. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich, A. M. M. (2024). OTM talabalarining grafik tayyorgarlikligini rivojlantirish vositasi sifatida. Farg‘ona Davlat Universiteti, (6), 138. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3151>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14181738>

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IZOHLI LUG‘AT BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Ro‘zmetova Maftuna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 202-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **M.A.Hamrayev**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

***Annotatsiya:** Lug‘atlar bilan ishlash o‘quvchilarda so‘z boyligini orttiradi, nutqini rivojlantiradi, fikrlash qobiliyatini kengaytiradi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘at bilan ishlash jarayonida faolligini oshirishning usullari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich sinf, so‘z, lug‘at, nutq, kreativlik, dunyoqarash*

***Аннотация:** Работа со словарями увеличивает словарных запас учащихся, развивает их речь, расширяет мыслительные способности. В данной статье описаны способы повышения активности учащихся младших классов в процессе работы со лексикой.*

***Ключевые слова:** Начальный класс, слово, словарный запас, речь, творчество, мировоззрение.*

***Abstract:** Working with dictionaries increases students' vocabulary, develops their speech and expands their thinking skills. This article describes ways to increase the activity of elementary scholl students in the process of working with dictionaries.*

***Key words:** Elementary Class, words, vocabulary, speech, creativity, woredview.*

Hozirgi kunda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini oshirishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashlarini oshirishda eng asosiy usullardan biri izohli lug'atlar bilan ishlashdir. Chunki izohli lug'atlar bilan ishlash o'quvchilarda kuzatuvchanlik va fikrlash qobiliyatlarini, nutq madaniyatini va dunyoqarashlarini kengaytiradi, shuningdek, so'z boyligini orttiradi. Tilimizdagi barcha so'zlar, ularning imlosi, tarixi va izohi kabi asosiy masalalar bilan lug'atshunoslik bo'limi o'rganadi. Lug'atlarni yaratish uzoq davom etadigan mashaqqatli ish sanaladi. Qomusiy olim Mahmud Koshg'ariy tomonidan XVI asrda yaratilgan "Devoni lug'otit-turk" va XVI asrda usmonli turk tilida yaratilgan "Abushqa" lug'atlari bizga ma'lum. O'zbek tilida lug'at tarkibini o'rganadigan bo'lim leksikologiyadir. Lug'at har bir mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy rivojlanishining asosiy timsolidir,. Lug'atlar xalqlar tarixidagi ma'lum bir davrning ko'zgasidir. Insonlarning lug'at boyligi boy bo'lsa, nutqi ham boy bo'ladi, o'z fikrini ifodali va aniq bayon eta oladi.

Boshlang'ich sinflarning "Ona tili" va "O'qish savodxonligi" darsliklarida o'quvchilar uchun tushunarsiz va ularning nutqida nafaol bo'lgan ko'pgina so'zlar uchraydi. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchilar o'z lug'atiga har kuni 8-10 ta yangi so'zlarni o'rganishlari, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim. Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usulidan foydalaniladi.

1. So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rganish muhim ahamiyatga ega.

2. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshi yordamida tushuntirish. Masalan: diyor-vatan, ko'k-osmon, chehra-yuz, oftob-quyosh. So'zni sinonim tanlash orqali tushuntirganda, shu so'zning uslubiy ahamiyatini ham ko'rsatish lozim.

O'quvchilarning lug'atlarni o'zlashtirish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Masalan: *yalpiz* so'zini o'rganishda quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Lugʻatda *yalpiz* soʻzi qanday izohlangan?
2. Izohdan keyin berilgan gaplarni oʻqing. Bu gaplardagi *yalpiz* soʻzining maʼnosi izohga toʻgʻri keladimi?
3. *Yalpiz hidi gupurdi* soʻzlarining maʼnosini izohlang.
4. *Yalpiz* soʻzini hid, barg, termoq, xushboʻy soʻzlari bilan bogʻlang (*yalpiz hidi, yalpiz bargi, yalpiz termoq, xushboʻy yalpiz*).

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining lugʻatlar bilan ishlash jarayonida kreativligini oshirish uchun quyidagi usullarni qoʻllash tavsiya qilinadi:

1. Didaktik oʻyinlardan foydalanish. Didaktik oʻyinlar oʻquvchilarning zukko ligi va faolligini oshiruvchi muhim vositadir. Izohli lugʻatlar ustida ishlashda ham didaktik oʻyinlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan: "Kim koʻp lugʻat biladi" didaktik oʻyini oʻyinlik. Bu oʻyinda oʻqituvchi ona tili darslarida oʻzlashtirilgan soʻzlar yuzasidan musobaqa oʻtkazadi. Bunda oʻquvchilar ikkita guruhga boʻlinib ishtirok etadilar. Har bir dars davomida oʻzlashtirilgan soʻzlarni har bir guruhdan bittadan oʻquvchi aytadi. 1-guruh bitta lugʻat aytsa, 2-guruh shu soʻzning izohini aytadi. Soʻng 2-guruh lugʻat aytadi, 1-guruh izohini aytadi. Qaysi guruh ayta olmay toʻxtab qolsa, oʻyindan chetlashtiriladi. Oʻyin davomida qaysi guruh oxirigacha qolsa, yaʼni soʻzlarni ayta olmay toʻxtab qolmasa oʻsha guruh aʼzolari faol deb topiladi va ragʻbatlantiriladi.

2. Lugʻat diktantlaridan foydalanish. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun lugʻat diktantlari ham mavjud. Oʻqituvchi darsdan tashqari vazifa sifatida oʻquvchilardan 10-15ta yangi soʻz yodlab, ularning imlosi, talaffuzi va izohini oʻrganib kelishlarini aytadi va haftada 3marta bu soʻzlardan lugʻat diktantini oladilar. Izohli diktant uchun matni oʻquv darsliklaridan ham tanlash mumkin. Bunday holatda matni oʻquvchilarga yozdirib boʻlgandan soʻng ular kitoblarini ochib, yozganlarini taqqoslab koʻradilar va oʻzlari sezgan xatolarini tuzatadilar. Lekin hamma oʻquvchilar ham oʻz xatolarini topa olmaydilar, shuning uchun ular bilan alohida ish olib borishga toʻgʻri keladi. Izohli diktantni 2-3-sinflarda tez-tez oʻtkazib turish maqsadga muvofiq. Quyida 2-sinflar uchun foydalanish mumkin boʻlgan lugʻat diktantini misol qilaman:

Aprel, baho, husn, gazeta, yong‘oq, oromgoh, traktor, transport, qo‘g‘irchoq, afsungar, hashar, chumchuq, chuvalchang, g‘alla.

Xulosa qilib aytganda, dars davomida lug‘atlar bilan ishlash o‘quvchilarning lug‘at boyligini orttirishga, so‘zning ma‘nosini tushunishga va dunyoqarashlarini kengaytirishga katta yordam beradi. Lug‘atlar bilan ishlash, asosan, ona tili va o‘qish darslari bilan bog‘liq holda olib boriladi. Agar lug‘at ishlari qat‘iy bir reja asosida yo‘lga qo‘yilsa, o‘qituvchilardan ham, o‘quvchilardan ham ortiqcha mehnat talab qilmaydi va ko‘zlangan natijaga oson erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro, 2018-yil, 107-b
3. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldasheva, Sharifjon Sariyev "Lug‘at ustida ishlash metodikasi".
4. " O‘zbek tili fanidan lug‘atlar ustida ishlash orqali talabalarning so‘z boyligini oshirish" metodik ko‘rsatmasi. Toshkent, 2005-yil5. Abduvahob Madvaliyev "O‘zbek tilining izohli lug‘ati" Toshkent, 2021-yil.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14181814>

OLIV O'QUV YURTI BINOLARINI REKONSTRUKSIYA QILISHDA TASHKILIV-TEXNOLOGIK MODELASHTIRISH

Yernazarova Gulnaz Puxarbayevna

TAQU mustaqil izlanuvchisi

Salimova Iroda Nazarbayevna

TAQU dotsenti

Sherboyev Mag'rurbek Sherzod o'g'li

TAQU talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqola oliy o'quv yurtlari binolarini rekonstruksiya qilishda tashkiliy-texnologik modellashtirishning ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada rekonstruksiya jarayonining asosiy maqsadlari, texnologik yondashuvlar, resurslarni samarali boshqarish va energiya samaradorligini oshirish kabi muhim aspektlar ko'rib chiqiladi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining rekonstruksiya jarayonlarida amalga oshirilgan amaliy misollar orqali tashkiliy-texnologik modellashtirishning samarali natijalari keltirilgan. Binolarni zamonaviylashtirish, energiya tejamkorlikni ta'minlash, ekologik toza materiallardan foydalanish va xavfsizlikni oshirishga qaratilgan strategiyalar tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim, rekonstruksiya, binolar, tashkiliy-texnologik modellashtirish, energiya samaradorligi, yashil qurilish, akustik izolyatsiya, normativ hujjatlar.*

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarining binolari nafaqat ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlaydi, balki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy faoliyatiga va ilmiy izlanishlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarining binolarini zamonaviylashtirish, ularni rekonstruksiya qilish va yangi talablarga moslashtirish zarurati kun tartibida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Oliy o'quv yurti binolarini rekonstruksiya qilishda tashkiliy-texnologik modellashtirishning o'rni juda muhimdir. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun resurslarni optimal taqsimlash, vaqtni tejash va qurilish jarayonida yuzaga keladigan risklarni boshqarish zarur [1].

Oliy o'quv yurti binolarini rekonstruksiya qilishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat [2]:

- ✓ Zamonaviylashtirish: Eski binolarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'mirlash, ularni yangi ishlov berish va me'yorlarga moslashtirish.
- ✓ Energiya samaradorligini oshirish: Binolarda issiqlikni tejash, energiya manbalaridan samarali foydalanish va energiya iste'molining kamayishini ta'minlash.
- ✓ Funktsional takomillashtirish: Bino ichidagi joylashuvlarni optimallashtirish, yangi auditoriyalar va ma'lumot texnologiyalariga moslab yangi xonalar tashkil etish.
- ✓ Xavfsizlik va qulaylik: Bino ichidagi xavfsizlik me'yorlarini yangilash, yangilangan tizimlar orqali qulay o'qish muhitini yaratish.

ASOSIY QISM

Tashkiliy-texnologik modellashtirish — bu qurilish va rekonstruksiya jarayonlarini boshqarish, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, va qurilish vaqtini qisqartirish uchun jarayonlarni modellashtirish jarayonidir. Tashkiliy-texnologik modellashtirishning asosiy elementlari quyidagilardan iborat [3]:

- *Resurslarni boshqarish:* Qurilish materiallari, mehnat resurslari va texnikaning samarali ishlatilishini ta'minlash.

- *Jarayonlarni optimallashtirish:* Rekonstruksiya jarayonining barcha bosqichlarini, jumladan, loyiha tayyorlash, qurilish ishlari va yakuniy tekshiruvni aniq rejalashtirish.
- *Risklarni boshqarish:* Qurilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va xavflarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish.

O‘zbekistonda oliy ta’lim binolarining rekonstruksiya jarayonlari keng rivojlangan. Quyidagi amaliy misollarni keltirish mumkin:

- **Toshkent Davlat Yuridik Universiteti (TDYU):** TDYU binosini rekonstruksiya qilishda zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish maqsadida issiqlik izolyatsiyasiga alohida e’tibor berilgan. Rekonstruksiya jarayonida tashkiliy-texnologik modellashtirish yordamida resurslar samarali taqsimlandi va binoning ichki makonida yangi auditoriyalar yaratildi.
- **Toshkent arxitektura va qurilish instituti (TAQI):** TAQI binosini rekonstruksiya qilishda yangi energiya samarador texnologiyalarini joriy etishning o‘rni katta bo‘ldi. Shu bilan birga, binoning ichki makonini talabalar uchun qulayroq qilish maqsadida tashkiliy-texnologik modellashtirish yordamida joylashuvlarni optimallashtirish amalga oshirildi. Bino ichida interaktiv o‘quv xonalar, bilimlar markazlari va seminar zallarini tashkil etish rejalashtirildi.
- **Farg‘ona Davlat Universiteti:** Farg‘ona davlat universiteti binosida rekonstruksiya ishlari quyosh energiyasidan foydalanishni hisobga olgan holda olib borildi. Tashkiliy modellashtirish orqali issiqlikni tejash, yong‘inga qarshi himoya tizimlarini yangilash va ekologik toza materiallar qo‘llanildi.

Oliy ta’lim muassasalarining binolarini rekonstruksiya qilishda bir qancha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Quyidagi muammolarni keltirish mumkin (1-jadval):

1-jadval

Oliy ta'lim binolarini rekonstruksiya qilishda uchraydigan asosiy muammolar va hal etish usullari

Muammo	Sababi	Hal etish usuli
Texnologik cheklovlar	Eski binolarda yangi texnologiyalarni joriy qilishda qiyinchiliklar	Tashkiliy-texnologik modellashtirish, texnologiyalarning integratsiyasi
Moliyaviy qiyinchiliklar	Rekonstruksiya jarayoni yuqori moliyaviy xarajatlarni talab qiladi	Zamonaviy moliyaviy modellashtirish va resurslarni optimal taqsimlash
Normativ hujjatlar va qonuniy cheklovlar	Qurilish standartlari va me'yorlariga rioya qilish zarur	Qurilish boshqaruvi va normativ hujjatlarni aniq o'rganish
Ijtimoiy qarshilik	Rekonstruksiya jarayonining vaqtincha noqulayliklari	O'qish jarayonini uzluksiz olib borish uchun rejalashtirish

- **Texnologik cheklovlar:** Eski binolarda yangi texnologiyalarni joriy qilishda ko'pincha mavjud qurilish strukturalari va infratuzilmasi bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Bunday holatlarda tashkiliy-texnologik modellashtirish yordamida texnologiyalarning integratsiyasi amalga oshiriladi [4].

- **Moliyaviy qiyinchiliklar:** Rekonstruksiya jarayonining ko'plab xarajatlarni talab qilishi sababli, moliyaviy resurslarni taqsimlashda noaniqliklar va kechikishlar bo'lishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun zamonaviy moliyaviy modellashtirish metodlari qo'llaniladi.

- **Normativ hujjatlar va qonuniy cheklovlar:** Rekonstruksiya jarayonida mavjud qurilish me'yorlari va standartlariga rioya qilish zarur. Buning uchun barcha rekonstruksiya ishlari boshlanishidan oldin atroflicha o'rganish va tegishli normativ hujjatlar bilan tanishish talab etiladi.

- **Ijtimoiy qarshilik:** Talabalar va o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan rekonstruksiya jarayoniga qarshi bo'lishi mumkin, chunki bu ba'zan o'qish jarayonini vaqtincha to'xtatish yoki noqulayliklar yaratishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun ta'lim jarayonini uzluksiz olib borish uchun vaqtni aniq rejalashtirish va zamonaviy qurilish usullaridan foydalanish zarur.

2-jadval

**Oliy o‘quv yurtlaridagi rekonstruksiya jarayonlarida qo‘llaniladigan
asosiy texnologiyalar**

Texnologiya	Maqsad	Foyda	Misol
Energiya samaradorligini oshirish	Issiqlikni izolyatsiya qilish, energiya manbalaridan foydalanish	Binolarda energiya iste'molini kamaytirish	Toshkent Davlat Yuridik Universiteti
Yashil qurilish texnologiyalari	Ekologik toza materiallar ishlatish, quyosh panellari o'rnatish	Atrof-muhitni himoya qilish, xarajatlarni kamaytirish	Farg'ona Davlat Universiteti
Akustik izolyatsiya	Shovqinlarni kamaytirish	Talabalar uchun qulay o'qish muhitini yaratish	Toshkent arxitektura va qurilish instituti

XULOSA VA MUNOZARA

Oliy o‘quv yurti binolarini rekonstruksiya qilishda tashkiliy-texnologik modellashtirish — bu qurilish jarayonini samarali va xavfsiz tashkil qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Resurslarni optimallashtirish, texnologiyalarning zamonaviylashtirilishi, xavfsizlik me'yorlariga rioya qilish va ekologik toza yechimlarni amalga oshirish orqali oliy ta'lim binolarini yanada samarali va talabalar uchun qulay qilish mumkin. Shuningdek, rekonstruksiya jarayonida yuzaga keladigan texnologik, moliyaviy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etish uchun puxta rejalashtirish va tashkiliy-texnologik modellashtirishning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A. X. Ismoilov, T. N. Davronov. “Qurilish texnologiyalari va modellashtirish metodlari”. – T.: O‘zbekistan, 2019. – 320 b.
2. T. I. Khamraev, M. A. Yusupov. “Oliy ta’lim muassasalari uchun zamonaviy qurilish materiallari”. – T.: Fan va texnologiya, 2020. – 256 b.
3. Sh. R. Tursunov. “Rekonstruksiya va modernizatsiya jarayonlarini boshqarish”. – Toshkent: O‘zbekiston davlat qurilish universiteti nashriyoti, 2018. – 192 b.
4. O. A. Karimov. “Qurilishning innovatsion texnologiyalari”. – T.: Ma’naviyat, 2017. – 224 b.
5. Z. S. Murodov, D. M. Uzoqov. “Yashil qurilish texnologiyalarini joriy etish”. – Toshkent: Ekologiya va atrof-muhitni himoya qilish, 2021. – 176 b.
6. M. N. Nazarov, F. T. Buranov. “Energiyani tejash va ekologik qurilish”. – T.: Xalqaro ilmiy nashrlar, 2022. – 248 b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14194715>

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA AXBORIY TAHDIDLAR

To‘xtayev Ulug‘bek Husniddin o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek Nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Geologiya va muhandislik geologiyasi fakulteti tyutori

ulugbektukhtayev12@gmail.com

Safarov Daler Shuhrat o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek Nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Geologiya va muhandislik geologiyasi fakulteti

“Geologiya” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

safarovdaler865@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola axboriy tahdidlar, ularning turlari, sabablari, ta’siri va ularni kamaytirish choralari to‘grisida. Shuningdek, mavzu doirasida jahon ilmiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlar umumlantirilib, taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot, xavfsizlik, tahdid, oqibat, rivojlanish, jamiyat, globallashtirish, OAV.

Abstract: The article discusses information threats, their types, causes, impacts, and measures to mitigate them. Additionally, it summarizes opinions found in global scientific literature related to the topic and presents suggestions and recommendations.

Key words: Information, security, threat, impact development, society, globalization, Mass Media.

Аннотация: В статье обсуждаются информационные угрозы, их типы, причины, последствия и меры по их смягчению. Также подводятся итоги мнениям, представленным в мировой научной литературе по данной теме, и приводятся предложения и рекомендации.

Ключевые слова: информация, безопасность, угроза, воздействие, развитие, общество, глобализация, СМИ.

KIRISH

Axborotlashgan jamiyat — bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan, unda axborotning ahamiyati oshgan va uning tarqatilishi ko‘paygan jamiyatdir. Biroq, bu jarayon bir qator axborotiy tahdidlarni ham keltirib chiqaradi[1]. Davlat va jamiyat mavjud ekan uning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi turli xil to‘siqlar mavjud. Shu o‘rinda, mavjud xavfni bartaraf etishda yakka kuchning ta‘siri kam bo‘lganligi sabab butun bir jamiyat bunga qarshi kurashmog‘i kerak. Bugungi kunda deyarli barcha davlatlar axborot sohasi tadrijiy rivojlanishi va turli xil taz‘yiqalar mavjud bo‘lgan sharoitda unga qarshi kurashish uchun xavfsizlik mexanizmlarini yaratish bo‘yicha faoliyatni kuchaytirdilar. O‘z nomi bilan ataganda, XXI – asrni axborot texnologiyalari asri deb bejiz aytilmagan. G‘arb olimlari tilida aytilganidek mamlakatlarni ishg‘ol qilish uchun uning ma‘naviy boyligini yo‘qotish kifoya, ya‘ni ma‘naviy boylikni yemirish uchun kishini turli qiyinchiliklarga duchor qilish shart emas, unga ko‘ngli istayotgan narsalar orqali axborotiy ta‘sir o‘tkazish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyoda axborot xurujlari tufayli o‘zaro davlatlararo ziddiyatlar kelib chiqaveradi. Tadqiqotchilarning aksariyati axborot urushlarining yuzaga kelishini texnologiyalarning taraqqiyoti bilan izohlaydi. Xususan, rus olimi **S.A.Zelinskiy** 1917-1991-yillarda G‘arbning sotsializmga qarshi olib borgan kurashini “Birinchil axborot urushi” sifatida baholagan[2]. O‘zbek tadqiqotchilaridan U.Saidov axborotning geosiyosiy qurolga aylanishini yangi informatsion texnologiyalarning imkoniyatlari bilan belgilaydi[3]. Bizning tadqiqotimiz esa, insoniyat ibtidoiy davrlardan boshlab axborotdan qurol sifatida foydalangani, sivilizatsiyaning ilk bosqichlaridayoq axborot urushlari olib borganini ko‘rsatmoqda. Quyida ushbu mulohazani ilmiy dalillar orqali isbotlashga harakat qilamiz.

Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o‘rtasida mutanosiblik mavjud bo‘lgan jamiyatgina har tomonlama uyg‘un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va

boshqa axborotga bo'lgan talab hamda ehtiyojini to'liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning miqyosi mazkur sohalarda to'plangan va almashinayotgan axborotlar, ularning almashinish sur'ati va o'zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi. Globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu ma'noda texnikaviy-tehnologik sohada katta imkoniyatga ega bo'lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo'ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o'z shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlarni, nuqtai-nazarlarni, g'oyalarni, fikrlarni ilgari surishlari mumkin va surmoqdalar ham. Shunga ko'ra ko'pgina davlatlarda globallashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, bular yagona jahon uyg'unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, globallashuvga qarshi harakatning o'zi tobora global harakat tusini olmoqda. Zamonamizning o'ziga xos jihatlaridan bo'lib, har qanday mahalliy hodisa yoki voqea zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli global hodisa yoki voqeaga aylanmaqda.

Masalan, 2001-yil 11-sentyabrda **Nyu Yorkda** yuz bergan voqea, *Levan* tuprog'idagi harbiy harakatlar, Fransiyadagi yoshlarning chiqishlari, u yoki bu mamlakatdagi saylovlar, aviahalokat, tabiiy ofat, terrorchilik harakati va boshqa shunga o'xshash voqea va hodisalar buning yorqin dalili bo'ladi. Jahon miqyosida kezib yuruvchi bunday axborotlar muayyan davlat manfaatlariga ta'sir etmay qolmaydi. Bu faqat shu axborot tarqaladigan alohida olingan bir mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy va jarayonlardan darak berishi bilangina emas, balki boshqa mamlakatlarning mazkur xabarlar haqida hech narsa aytilmagan auditoriyasi bularni o'z davlatidagi holatga qiyoslashi bilan ham mazkur mamlakat manfaatlariga ham ta'sir etadi. Shu sababli, davlatlar, hukumatlar o'rtasida ayrim kelishmovchiliklar vaqti-vaqti bilan yuzaga chiqib turishi mumkin. Bunda kim haq yoki kim nohaq ekanligini aniqlash har doim ham oson bo'lavermaydi. Bular barchasi axborot

jarayonlarining globallashuvi bilan bog'liq muammolar dolzarbligini yana bir karra ta'kidlaydi.

Ammo mazkur muammolar tufayli axborot ishlab-chiqarish va tarqatish imkoniyatlar tengsizligi paydo bo'ladi. Bu obyektiv vaziyatni shunday deb qabul qilmoq kerak. Mamlakatlar bu boradagi o'z ustunliklarini shaxsiy manfaatlarida foydalanishlari boshqa gap. Mana shunday vaqtda munosabatlarda keskinlik yuzaga keladi, u ko'p hollarda axboriy kurashga yoki boshqacha qilib aytganda psixologik urushga aylanib ketadi. Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlikni ta'minlash hozirgi kunning dolzarb talabidir. Har bir davlat buning ustida bosh qotirmoqda. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarning yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning tahdidi kuchayishi, spid, parranda grippi va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi bilan bog'liqdir.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Internet tarmog'i ommalashgandan so'ng axborot manbalariga ruxsatsiz kirish yoki saqlanadigan ma'lumotlarga ta'sir o'tkazish, mavjud tizimni ishdan chiqarish, hozirgi global zamonda odatiy holga aylanmoqda. Har qanday resurslarga ta'sir qiladigan bunday tahdidlar ma'lumotlarning buzilishiga, nusxalashga, ruxsatsiz tarqatishga, ularga kirishni cheklashga yoki bloklashga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda turli mezonlarga ko'ra tasniflanadigan tahdidlarning soni juda ko'p. Tahdidlarni paydo bo'lishi tabiatiga ko'ra **tabiiy va sun'iy** tahdidlarga ajratish mumkin. **Tabiiy tahdidlar** deganda, ob'yektiv fizik jarayonlar yoki tabiiy ofatlarning kompyuter tizimiga ta'siri tufayli kelib chiqadigan hodisalarni kiritish mumkin. **Sun'iy tahdidlar** deganda, inson faoliyati natijasida kelib chiqadigan tahdidlar tushuniladi. Tashqi tomondan tahdidlarni amalga oshirish darajasiga ko'ra, **tasodifiy va qasddan** sodir etiladigan tahdidlarga ajratish mumkin. Shuningdek, tahdidlarni to'g'ridan-to'g'ri manbaiga qarab ajratish mumkin, bu tabiiy muhit (masalan, tabiiy ofatlar), inson (maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish), dasturiy va texnik vositalar: avtorizatsiya

qilingan (operatsion tizimdagi xato) va ruxsatsiz (tizimning virusli infeksiyasi) singari holatlarni amalga oshirishi mumkin.

Tahdidlar asosiy kelib chiqish manbai boshqa pozitsiyaga ega bo'lishi mumkin. Ushbu omilga qarab ularni uch guruhga ajratiladi, bular:

- manbai kompyuter tizimining boshqariladigan guruhidan tashqarida bo'lgan tahdidlar (masalan, aloqa kanallari orqali uzatiladigan ma'lumotlarni ushlab);
- manbai tizimning boshqariladigan zonasida bo'lgan tahdidlar (bu axborot tashuvchilarning o'g'irlanishi bo'lishi mumkin);
- to'g'ridan-to'g'ri tizimning o'zida bo'lgan tahdidlar (masalan, resurslardan noto'g'ri foydalanish)[4].

Jamiyatni axborotlashuvi natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar:

–Siyosatda gegimonlikka intilayotgan davlatlar axborot siyosatida o'zining ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqdi hamda o'z madaniyatini targ'ib qilish maqsadida axborot manbalaridan qurol sifatida foydalana boshladi;

–Turli tipdagi madaniyatlar til, hamda OAV kanallari orqali kirib kela boshladi natijada mamlakatlarning tarixiy ildizlari yemirila boshladi;

–Ichki va tashqi tahdidlardan davlat, jamiyat va shaxsning iqtisodiy mafaatlari milliy va xalqaro darajada himoya qilish xavfi yuzaga keladi[5].

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy davri axborotlashtirish jarayoni bilan ajralib turadi. Bugungi axborot davrida har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning tafakkuri va siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vosita bo'lib kelmoqda. Jahonda kechayotgan globallashtirish va integratsiya, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlarida axborotning ahamiyati, xususan, axborot erkinligi va ochiqligi masalasi shaxs, jamiyat va davlat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etib, zamonaviy axborot tizimining shakllanganligi har qanday mamlakatning salohiyati va taraqqiyotini belgilovchi omil bo'lib sanalmoqda. *“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”*da axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash masalasiga yuksak e'tibor

bilan qaralib, mamlakatimizni siyosiy modernizatsiya jarayonining bugungi bosqichida axborot sohasini isloh qilish borasida ustuvor vazifalarni belgilab berib, soha qonunchiligini yanada takomillashtirish borasida asosiy g'oya va takliflarini bayon etishi bilan birga, ularni hayotga tatbiq qilish mexanizmlari ham aniq va ravshan ko'rsatib berilgani diqqatga sazovordir.

XULOSA

Axborotlashgan jamiyatda axboriy tahdidlar ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Ularning oldini olish va kurashish uchun tashkilotlar va shaxslar axborot xavfsizligi choralarini kuchaytirishlari, ta'lim va xabardorlikni oshirishlari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlari zarur. Bunday chora-tadbirlar, oxir oqibatda, jamiyatni axboriy tahdidlardan himoya qilishga yordam beradi. Odamzot tarixida ma'naviy tushunchalar va o'lchovlar doimo eng qiyin, yanada dialektik shakllarda namoyon bo'lib kelgan. Ikki ming yil ichida fan va texnika misli ko'rilmagan darajada rivojlangan bo'lsa-da, insonning tabiati uncha ham o'zgarmadi. Shuning uchun ma'naviy tushunchalar juda sekin o'zgarimoqda. Fikrimizcha, axborot xavfsizligini ta'minlashning eng to'g'ri yo'li – axboriy madaniyatni tarbiyalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xavfsizlikning metodologik asoslari. R. Samarov. T.: Akademiya nashriyoti. 2010. B. 221-222.
2. Zelinskiy S.A. Informatsionno-psixologicheskoe vozdeystvie na massovoe soznanie. – Sankt-Peterburg, Torgoviy Dom «Skifiya», 2008. Str 8.
3. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. – T., “Akademiya”, 2008 – 54-bet.
4. www.inf74.ru/safetly/ofitsionnay-bezapasnos...
5. Alimov Avaz Mirzamurotovich. Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. T-2016. 62.b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14194717>

GLOBAL AXBOROT MAKONDA KIBERXAVFSIZLIK MASALALARI

To‘xtayev Ulug‘bek Husniddin o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek Nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Geologiya va muhandislik geologiyasi fakulteti tyutori

ulugbektukhtayev12@gmail.com

Safarov Daler Shuhrat o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek Nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Geologiya va muhandislik geologiyasi fakulteti

“Geologiya” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

safarovdaler865@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada global axborot makonida kiberxavfsizlik masalalari keng tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola kiberhujumlar, ma‘lumotlarni o‘g‘irlash, soxta xabarlar va axborot manipulyatsiyasi kabi tahdidlar jamiyatda muhim muammolari to‘g‘risida.*

***Kalit so‘zlar:** Zararli dasturlar, kiberxavfsizlik, maxfiylik, virus, bot, kiber hujumlar.*

***Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of cybersecurity issues in the global information space. It also discusses significant societal problems related to threats such as cyberattacks, data theft, fake news, and information manipulation.*

***Key words:** Malware, cybersecurity, privacy, virus, bot, cyber attacks.*

***Аннотация:** Эта статья предоставляет комплексный анализ вопросов кибербезопасности в глобальном информационном пространстве. Также обсуждаются важные социальные проблемы, связанные с угрозами, такими как кибератаки, кража данных, фейковые новости и манипуляция информацией.*

***Ключевые слова:** Вредоносные программы, кибербезопасность, конфиденциальность, вирусы, боты, кибератаки.*

KIRISH

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat jadala sur'atlar bilan shakllanib, axborotlar dunyosida davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormoqda. Global kompyuter tarmog'i jahon davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotida alohida hamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan[1].

Axborot oqimi tobora tezlashgan davrda har bir davlat uchun bunday tizimni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki bugun insoniyat Yer shari aholisi kayfiyatini, ruhiyatini, maqsad va intilishlarini, qolaversa, butun tafakkur tarzini o'zgartirishga qodir bo'lgan axborot texnologiyasi vujudga kelgan bir davrda yashamoqda. Buni bir tomondan hozirgi zamon sivilizatsiyasining o'ziga xos yutug'i deb atash mumkin. Bu xalqlar, mamlakatlar, davlatlar o'zaro munosabatlarini tobora yaqinlashtirishga, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini boshqarishga, dunyoviy kayfiyat, dunyoviy ruhiyat va maslakning vujudga kelishiga xizmat qiladigan mo'jizakor hodisa.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi. Ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Yangi yuqori texnologiyalar jamiyat a'zolari turmushini istalgan mahsulot bilan ta'minlashga va xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart - sharoit yaratishga imkoniyat beradi. Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham ilgari ko'z ko'rib quloq eshitmagan sur'at va ko'lamga erishildi. Kishilar o'rtasida xabar yetkazishni ta'minlashga qobil hisoblash texnikasi, axboriy aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Biroq, biz jamiyatimiz sog'lommi yoki sog'lom emasligidan xabar beruvchi shunga o'xshash mezonlar ham, taqqoslangan "ijtimoiy indekatorlar"ga ham ega emasmiz. Bizda "turmush sifati"

mezonlari yo‘q. Bizda odamlar bir-birlariga tobora begona bo‘lib bormayotganmikanlar, ta‘lim samarasi oshayotirmi, tasviriy san‘at, musiqa va adabiyot gullab- yashnayapdimi, xushmuomalalik, saxovatpeshalik va yaxshilik rivoj topyaptimi—ana shulardan guvohlik berib turuvchi muntazam ko‘rsatkich yo‘q[2]. Bu tizimni ishlab chiqish jamiyat bilan OAV o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash lozim. Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o‘rtasida mutanosiblik mavjud bo‘lgan jamiyatgina har tomonlama uyg‘un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotga bo‘lgan talab hamda ehtiyojini to‘liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning o‘lchami mazkur sohalarda to‘plangan va almashinayotgan axborot, ularning almashinish sur‘ati va o‘zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi. Kiber jinoyatchilar faqat kompyuter va Internet aloqasidan tashqari bir necha xarajatlarni talab qiladilar. Ular geografiya va masofa bilan chegaralanmagan. Internetning noma‘lum xususiyati tufayli ularni aniqlash va javobgarlikka tortish qiyin. Axborot texnologiyalari tizimlariga qarshi hujumlar juda jozibadorligini hisobga olib, kiberhujumlarning soni o‘sib borishi kutilmoqda. Kiberxavfsizlik turli xil kiberhujumlar atrofidagi muammolarni tushunishga va har qanday raqamli va axborot texnologiyalarining maxfiyligini, yaxlitligini va mavjudligini saqlaydigan himoya strategiyasini ishlab chiqishga (ya‘ni qarshi choralar) tegishli[3].

- **Maxfiylik** - bu ruxsatsiz shaxslar yoki tizimlarga ma‘lumot oshkor qilinishining oldini olish uchun ishlatiladigan atama;

- **Butunlik** - bu ruxsatsiz tarzda har qanday o‘zgartirish yoki o‘chirishning oldini olish uchun ishlatiladigan atama;

- **Mavjudlik** - bu ma‘lumotni yetkazib berish, saqlash va qayta ishlash uchun javobgar bo‘lgan tizimlar kerak bo‘lganda va ularga muhtoj bo‘lganlar foydalana olishlarini ta‘minlash uchun ishlatiladigan atama.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Kiberxavfsizlik bo‘yicha ekspertlar zararli dastur kiberhujumda kiberxavfsizlikni buzish niyatida bo‘lgan zararli qurolni tanlashda asosiy vosita deb hisoblaydilar[4].

Zararli dastur - bu tizimga dushmanning foydasiga halaqit beradigan, odatda qonuniy egasining xabari bo'lmagan holda, tizimga yuklangan hujumlarning keng sinfini anglatadi. Zararli dasturlarning ba'zi namunaviy sinflari orasida **viruslar, qurtlar, troyan otlari, shpion dasturlari** va **bot dasturlari** mavjud[5]. Zararli dastur zararli dasturlarni tarqatishda, foydalanuvchini sohta kerakli fayllarni ochish uchun undash yoki foydalanuvchilarni zararli dasturlarni tarqatuvchi veb-saytlarga kirishga majbur qilish uchun tizimlarni turli usullar bilan tarqatadi. Aniq dasturiy ta'minot infeksiyasining aniq misollarida, zararli dastur o'zini yuqtirgan qurilmaga o'rnatilgan USB drayverga yuklashi va keyinchalik ushbu qurilma joylashtirilgan har qanday boshqa tizimiga joylashishi mumkin. Zararli dastur o'rnatilgan tizim va hisoblash qobiliyatini o'z ichiga olgan qurilmalar va uskunalardan tarqalishi mumkin. Muxtasar qilib aytganda, zararli dasturni tizimning istalgan nuqtasiga kiritish mumkin. Zararli dasturlarning qurbonlari oxirgi foydalanuvchilar tizimlari, serverlar, tarmoq qurilmalari (ya'ni, marshrutizatorlar, kalitlar va boshqalar) va nazorat nazorati va ma'lumotlarni yig'ish (**SCADA**) kabi jarayonlarni boshqarish tizimlaridan har qanday narsani qamrab olishi mumkin. Tez o'sib borayotgan zararli dasturlarning tarqalishi va murakkabligi bugungi kunda Internetda katta qiziqish uyg'otmoqda. An'anaga ko'ra, zararli dasturlarga qarshi hujumlar har bir jabhada mavjud dizayn va amalga oshirishning zaif tomonlaridan foydalangan holda, apparat uskunalari, dasturiy ta'minot qismlari yoki tarmoq darajasida bitta joyida amalga oshiriladi. Kiber hujumlarni aniqlashda bir qancha hayotiy misollarga to'xtalish mumkin. Bularga **ijtimoiy media, yashirin hisoblash, smartfonlar texnologiyasi va muhim infratuzilma kiradi**. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar kabi axborot tarmoqlari bugungi kunda bizning turmush tarzimizning ajralmas qismidir, chunki ijtimoiy tarmoqlarda ko'p odamlar o'zlarining hayotiy voqealari haqida yozmoqdalar, yangiliklar almashmoqdalar, shuningdek do'stlar orttirmoqdalar. Bir vaqtning o'zida millionlab odamlarni bog'lash imkoniyatini anglagan holda, dushmanlar ijtimoiy tarmoqdagi akkauntlardan foydalanib, jabrlanuvchining do'stlariga **spam** yuborish uchun transport vositasi sifatida foydalanishadi. Yashirin hisoblash paradigmasi

foydalanuvchiga faqat oldindan xarajatlarni to‘lamasdan yoki murakkab hisoblash infratuzilmasini boshqarish ko‘nikmalarini talab qilmasdan foydalanish uchun to‘laydigan kommunal dasturlar kabi kompyuter resurslaridan foydalanishga imkon beradi. Yashirin saqlash xizmatlarida to‘plangan ma’lumotlar soni bugungi kunda tajovuzkorlarni o‘ziga jalb qilmoqda[6]. **2015-yilga** kelib, smartfonlarning foydalanuvchisining **2 milliardga** o‘sishi bilan, so‘ngi paytlarda mobil zararli dasturlarning sezilarli darajada ko‘payishi kuzatilmoqda. Masalan, 2012 yil davomida Android uchun zararli dasturlarning noyob aniqlanishi dunyo miqyosida o‘tgan yilga nisbatan 17 marta oshdi. Terrorizm, axborot urushida foydalanishi mumkin bo‘lgan elektr tarmoqlari va sog‘liqni saqlash tizimlari kabi muhim infratuzilmaning kiber-tahdidlari haqida ham havotirlar kuchaymoqda.

XULOSA

Kiberhujumlarni bartaraf etish texnologik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak katta mablag‘ talab etadigan jarayondir. Buning uchun O‘zbekiston o‘zining Internet tarmog‘ini yaratishi zarur. Bu juda katta mablag‘ talab etsada nafaqat axborot hujumlarini bartaraf etishda balki kiber tahdidlarga qarshi kurashishning eng samarali yechimidir. Shuningdek, ta’lim tizimida axborot texnologiyalariga oid kurslar tashkil etish, turli xil targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borish lozim. Chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizimiga ko‘ra bosqichma-bosqich tizimlashtirish lozim.

Global axborot makonida kiberxavfsizlik masalalari muhim ahamiyatga ega. Kiberhujumlar, ma’lumotlarni o‘g‘irlash, soxta xabarlar va axborot manipulyatsiyasi kabi tahdidlar nafaqat shaxsiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikka tahdid soladi. Ushbu muammolarni hal etish uchun axborot xavfsizligini ta’minlash, jamiyatni xabardor qilish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurdir. Kiberxavfsizlikni yaxshilash orqali biz global axborot makonida xavfsiz va barqaror muhit yaratishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLA RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2004.10m.
2. Тоффлер Е. Шок будущего. М.:”АСТ”, 2003.–495-496-бет.
3. S.E. Goodman, H.S. Lin (Eds.), Toward a Safer and More Secure Cyberspace, The Nat’l Academics Press (2007)
4. Australian Parliament the report of the inquiry into Cyber Crime http://www.aph.gov.au/house/committee/coms/cybercrime/report/full_report.pdf
5. DHS S&TRoadmap for cybersecurity researchJan. 2009 <http://www.cyber.st.dhs.gov/docs/DHS-Cybersecurity-Roadmap.pdf>
6. R.C. NewmanComputer Security: Protecting Digital Resources (first edition), Jones & Bartlett Publishers (February 20, 2009)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14202489>

USING PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGY IN MUSIC LESSONS IN A COMPREHENSIVE SCHOOL

Sharipova Sitora Khaidarovna

Doctoral student, teacher of the Department of
Pedagogy of Bukhara State University

Email: s.x.sharipova@buxdu.uz

Abstract: *This article examines the direction of improving the quality of training professional personnel using problem-based learning technologies when conducting classes in the humanities, and also proposes features and means of implementing the logical-heuristic method in studying the humanities.*

Key words: *“music perception”, problem-based learning method, technologization of the educational process, heuristic methods.*

The main task of musical and aesthetic education in a general education school is to form students' need for the perception of highly artistic music, to cultivate artistic taste and correctly assess the phenomena of the surrounding musical life. Communication with highly artistic music has a beneficial effect on the mental development of students, awakens their creative powers, activates imagination and fantasy.

Acquaintance with music at school is carried out through a variety of forms of musical activity of students. But whatever these forms (singing, playing musical instruments, playing music, listening), the basis of any of them is the active process of perceiving music.

In musicological, psychological, and pedagogical literature, there is no single definition of the very concept of “perception of music”. Most researchers believe that the perception of music is the unity of an emotional response and differentiated hearing of music. “... We not only feel or experience certain states, but also differentiate the perceived material, make a selection, evaluate, therefore, think,” wrote B. V. Asafiev. We find confirmation of this idea in Yu. A. Kremlev, who believes that “... a full-fledged perception of music implies intonational listening, comprehension of emotions, objects, processes reflected by music.”

The essence of the perception of a new musical work lies in the listener’s desire to feel and understand the position of the composer, to reveal the idea expressed by him, to give a social and artistic assessment of this composition in the context of the modern development of musical culture.

The listener’s interpretation of a musical work differs from the original author’s one, since the personality is always included in the social relations of its era and in social communication. The music perceived by the listener is passed through the prism of his views, ideas, emotional stereotypes, life and musical experience and, thanks to this, is transformed in his mind.

At the heart of the methodology of musical education, we see a lesson that includes four types of work that complement each other: listening to music, choral singing, movement to music and musical creativity. These types of musical activity constitute a single method that develops the process of conscious mastery of the musical language, the upbringing of the creative principle inherent in the child’s psyche.

We traditionally pay much attention to enhancing the perception of music by teenagers (problem-based learning, the widespread use of various musical creative tasks that require search and creative cognitive activity).

The necessary conditions that activate the process of musical perception include the following:

- expanding the personal listening experience of children;
- wide involvement of works of related arts to awaken students’ interest in music;

- activation of children's own activities in the process of getting acquainted with musical works through singing the main musical themes (vocalization).

With problem-based learning, all aspects of the educational process (the content of knowledge; the process of activity, which acquires a search dynamic character; the forms of organization of this activity) enhance their positive impact on the comprehensive knowledge of high school students of works of musical art. This influence is provided by a number of conditions:

- posing problems arising from the content, but based on the knowledge and experience of students;
- organizing a search based on the experience and cognitive skills of schoolchildren;
- the relationship between the search and reproductive activities of students;
- a variety of types of search educational activities.

The use of problem-based learning is especially effective in cases where the content of the educational material is aimed at the formation of concepts of knowledge about the laws of music; when it is not fundamentally new; when this content is available for independent searches of students, i.e. problem situations are in the zone of proximal development of their cognitive capabilities.

The creation of problem situations in music classes in general education classes can be ensured by setting a system of continuously complicated questions and tasks for students, the solution of which cannot be carried out by direct reproduction of educational material, but requires the establishment of new connections between phenomena.

Let us illustrate the above with a living example from the experience of pedagogical activity.

Topic of the lesson: "Genre of the piano concerto. The concept of the forms of "rondo" and "sonata allegro". The second concerto for piano and orchestra by S. V. Rachmaninov. The poetry of Russian nature in the piano work of S. V. Rachmaninov and the landscape lyrics of I. I. Levitan.

The predominant nature of the content of the educational material: theoretical, descriptive (analytical).

Ways of presenting information: verbal, visual (illustrations, audio recording).

The nature of the cognitive activity of students: reproductive-search.

Novelty of content: partial.

The degree of difficulty of the educational material: high.

Goals and objectives of training: the formation of knowledge, skills and emotional-semantic and comparative analysis of musical works, the development of musical and auditory abilities, intelligence, emotions.

Forms of education: a lesson in the assimilation of new knowledge, generalization and systematization of previously acquired knowledge, mastering the skills of analysis.

Teaching methods: lecture, conversation, problematic presentation of the material, analysis of musical works, illustrations, oral control (individual and frontal survey).

Students are familiar with the genre of piano concerto, with the concepts of the forms "sonata allegro" and "rondo" from the "Music" program, so the conversation method is used at the beginning of the lesson. The oral communication of the teacher is accompanied by questions to the students, which force the latter to actively engage in the work.

The explanation of the new material (Second Concerto for Piano and Orchestra by S. V. Rachmaninov) takes place in the form of a lecture (explanatory and illustrative presentation of the material) with practical assignments for students (analysis of fragments of the concerto), focused on the reproductive and search activities of schoolchildren. Search situations are created by the teacher through a comparative analysis of fragments of piano concertos by S. V. Rachmaninov, L. Beethoven, P. I. Tchaikovsky, previously known to students. The teacher can ask the question: "What is unusual about the concert of S. V. Rachmaninov, how does it differ from the works of this genre known to you?"

Analysis of the landscape lyrics by I. I. Levitan ("Evening. Golden Reach", "Birch Grove", "Evening Ringing", "At the Pool", "Above Eternal Peace", "March",

“Twilight”) is also built in the form of a conversation , while the attention of students is aimed at analyzing the artistic means used by the master: the compositional and color solutions of paintings, painting techniques. For example, when analyzing the paintings “Evening. Golden Reach” and “Evening Bells” students must determine and explain the difference in the moods of both paintings with one artistic image - evening nature. Analyzing the picture “At the pool”, the teacher poses the following questions to the students:

What is the mood in this picture?

- why does the viewer have a feeling of anxiety, anxiety?
- What visual media does the artist use?
- what color scheme of the image did the artist choose and why?
- with what means of musical expression can these colors be compared?

By posing a question of a problematic nature, “What, in your opinion, does the paintings of I. I. Levitan have in common with the works of S. V. Rachmaninov?” the teacher creates a search situation, for the resolution of which the students listen and independently analyze the second part of the concert. When listening, the teacher should direct the main attention of schoolchildren to understanding the timbre colors used by the composer, to the structural features and nature of the melody. At the end of the lesson, after questioning the students in a generalizing word, the teacher should sum up.

Thus, a modern music lesson is a real necessity today. It contributes to the expansion of opportunities for school education, is a conductor of the ideas of humanitarian education and aesthetic enrichment of the individual, a way to improve the quality of education. Such lessons contribute to the definition of the position of the teacher in relation to the child as cooperation, a joint interested desire to achieve high results in educational activities.

Literature:

1. Асафьев Б. В. Избранные статьи о музыкальном просвещении и образовании. М., 1965.
2. Кремлев Ю. А. О роли разума в восприятии произведений искусства. М. 1970.
3. Алиев Ю. Б. Подросток — музыка — школа // Вопросы методики музыкального воспитания детей. М., 1995.
4. Лернер И. Я. Проблемное обучение. М., 1994.
5. Ходжаев Б. К., Шарипова С. Х. Гражданская культура как важный компонент воспитания гармонично развитого поколения //ББК. – 2019. – Т. 74. – С. 248.
6. Sharipova S. H. Technology of Problem Learning as a Tool for the Development of Students' Independent Work //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 30. – С. 129-130.
7. Sharipova S. Mastery of the teacher-garant of stable development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 4. – С. 269-272.
8. Sharipova S. Application of problem educational technologies in higher education system //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 12. – №. 4. – С. 193-197.
9. Шарипова С. Х. Технология проблемного обучения как средство и путь саморазвития студентов //ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 112-116.
10. Хайдаровна, Sharipova Sitora. "Ijtimoiy-Gumanitar Fanlarni O'qitishda Muammoli Ta'lim Texnologiyasidan Foydalanish Mazmuni." *Journal of Innovation in Education and Social Research* 2.5 (2024): 24-29.

11. Xaydarovna S. S. Bo'lajak Chet Tili O'qituvchilarning Lingvodidaktik Kompetentsiyasi: Shakllanish Darajasini Aniqlash Usuli //Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning. – 2024. – T. 2. – №. 4. – С. 93-98.

12. Шарипова С. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN FOYDALANISH //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 302-307.

13. Sharipova S. K. The essence of using problem-based learning technologies in teaching physical education disciplines //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 120. – С. 01056.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14203027>

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI TANQIDIY FIKRLASHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSI

M.B.Raximova,

TDPU, 1-bosqich magistranti,

E-mail: munirabonuraximovaaa@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Sh.U.Sariyev,**

Nizomiy nomidagi TDPU, “Boshlang‘ich ta’limda
ona tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: shon-sharaf1973@mail.ru

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning pedagogik imkoniyatlari, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish usul, vosita va metodlarini dars jarayoniga tatbiq qilish samaradorligi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, tanqidiy fikrlash, savodxonlik, metod.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются педагогические возможности обучения критическому мышлению учащихся младших классов, эффективность применения методов, средств и методов обучения критическому мышлению в учебном процессе.*

***Ключевые слова:** начальное образование, критическое мышление, грамотность, метод.*

***Abstract.** This article discusses the pedagogical possibilities of teaching critical thinking to primary school students, the effectiveness of using methods, tools and techniques for teaching critical thinking in the educational process.*

***Key words:** primary education, critical thinking, literacy, method.*

Bugungi kunda barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayonida bilim berishni takomillashtirish, o'quvchilar bilan ishlashning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish va noan'anaviylikka intilish dolzarb masalalarning biriga aylanmoqda. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarni fikrlash, izlanish va aniq maqsad sari intilib ongli ravishda bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ta'lim-tarbiya berishda metodlarning xilma-xil bo'lishini talab etadi. Tanlangan metodlar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirish kerak.

XXI asr pedagogikasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'ziga xos muhit, kreativ shaxs, o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etish qobiliyatining rivojlantirish haqida ta'kidlab o'tilmoqda. Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar insoniyatning zamonaviy bilimlarni egallashlarni uchun shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Fikr inson tomonidan tug'iladigan g'oyat katta kuch va fikrlash jarayonini universal shaklidir. Fikrlash – biror muammoni yechish maqsadida mulohaza yuritmoq yoki o'ylamoqdan iborat bo'lgan psixologik jarayondir. Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon bo'lib, u faol muvofiqlashtiruvchi hamda o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Tanqidiy fikrlashning manbalari qadim zamonlarga borib taqaladi. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlar xotirani yaxshilashga, jarayonlar va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishiga yordam beradi.

Bugun biz demokratik jamiyatda yashayapmiz va bu jamiyatda yoshlarning faol hayoti tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan vazifalarni bajara olish va muayyan maqsadga erishish uchun zarur ma'lumotlarni topish va o'z ustida ishlashi talab qilinadi va kuzatib boriladi. *“Tanqidiy fikrlash yangi, chuqur g'oyalar sinovdan o'tkazilganda, baholanganda, ishlab chiqilganda va qo'llanilganda yuzaga keladi”*, – deydi Devid Kluster. Devid Kluster tanqidiy fikrlashni quyidagicha ta'riflaydi: *“Tanqidiy fikrlash – shaxsiy fikrlash. Tanqidiy fikrlash savol va muammolarni aniqlashdan boshlanadi. Tanqidiy fikrlash inson hayoti davomida duch kelgan vaziyatlarda o'z yechimini topadigan va uni turli misollar bilan tasdiqlaydigan aniq dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlash - bu ijtimoiy fikrlash demakdir”*.

Tanqidiy fikrlash dasturining o'ziga xos xususiyati nimada? Qozoq pedagogi Shakarim Qudayberdiuli shunday deydi: " Insonning yaxshi yashashiga uchta xislat asos bo'la oladi, ular halol mehnat, komil aql, hamma narsadan ustun turadigan pok qalbdir. Bu fazilatlar insonni tug'ilgan kundan boshlab tarbiyalaydi. Insonga qimmatli fazilatlarni singdirish tug'ilgandan boshlanishi kerak".

Shaxs kamolotida ota-onalar bilan bir qatorda tarbiyachi va o'qituvchilar ham muhim rol o'ynaydi, ya'ni ta'lim tizimi zimmasiga yuklangan yuk yengil emas. Ta'lim tizimiga kirib kelayotgan interfaol usullar, ayniqsa, "O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" loyihasi o'qituvchilarning faol ijodiy faoliyatini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Chunki loyiha o'quvchilarni izlanish, o'z ustida ishlash yo'liga solib, o'qituvchi bilan birga yangi ma'lumotlarni olishga imkon beradi. Tanqidiy fikrlashni qo'llashda o'qituvchining roli juda katta u o'quvchi uchun eng yaxshi bilimni berishga, turli ma'lumotlar bilan bilimni yanada kengaytirib borishga intiladi.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi uch bosqichdan iborat:

1. Qiziqish uyg'otish. 2. Ma'noni ajratish. 3. Mulohaza qilish.

Har bir darsning xaritasini yaratishda ushbu uch bosqich tizimli ravishda yaratilsa, o'quvchining ijodi jonlanadi, darsga qiziqishi ortadi, fikrlash doirasi kengayadi.

Birinchi bosqichda dars jarayonida qo'llaniladigan barcha metod, usullar qabul qilinadi. O'quvchilar faol qidiruv bilan shug'ullanadilar, shug'ullanish natijasida o'zlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni bilib oladi va bilimlarini yanada mustahkamlab oladi.

Ikkinchi bosqich tushunish davrini o'z ichiga oladi, ya'ni o'quvchilarni dars jarayonida berilgan matn, hikoya yordamida ularning hikoyada berilgan ma'nolarni ajratish yaxshi tarafini yoki yomon tarafini ajratishga o'rganadilar. O'quvchilar darsda berilgan hikoya, matnni o'qib, berilgan vaziyatga tanqidiy fikr bildirishni o'rganadilar.

Uchinchi bosqichda o'quvchilar fikrni aniq bayon etadilar. Ushbu jarayonda olingan ma'lumotlarni tahlil qilinadi, xulosa chiqariladi, har bir o'quvchi o'zining mustaqil fikrini aytib beradi. Bu jarayondagi ishlarni yolg'iz, guruh bo'lib yoki juft bo'lib bajarish mumkin.

Tanqidiy fikrlash – bu axborotlarni obyektiv tahlil qilish va asosli xulosa chiqarish qobiliyatini anglatadi. Bu ma’lumotlar, asoslar, kuzatiladigan hodisalar va tadqiqot natijalari kabi manbalarni baholashni o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash – bu xulosa chiqarish uchun dalillarni tahlil qilish, murakkab mavzular va obyektlardagi dalillarni tanqidiy , xolis tahlil qilish yoki baholashni o‘z ichiga olgan bir nechta turli xil ta’riflardir.

O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajalarini aniqlashda ularning barchasi uchun aynan bir xil qulaylikdagi pedagogik vaziyat vujudga keltirilishi kerak. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda ular tomonidan bayon qilingan fikrlarning obyektivligi alohida pedagogik ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, barcha o‘quv fanlari va sinfdan tashqari ishlarda amalga oshiriladi. Fikrlash to‘g‘ridan to‘g‘ri, hissiy aks ettirish orqali hal qilib bo‘lmaydigan savollarga javob beradi. Tanqidiy fikrlash g‘oyalar va ma’lumotlar bilan o‘zaro ta’sir qilishning tabiiy usuli, tayanch nuqtasidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash texnologiyasi bo‘yicha ishlarni olib borish uning o‘sishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti, 2020.
2. Butenko A.V., Xodos E.A. Tanqidiy fikrlash: usul, nazariya, amaliyot. – 2002.
3. Berjanov Q., Musin S. Pedagogika tarixi. – Almaty: Mektep, 2009.
4. K.Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharafjon Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Methodist” nashriyoti, 2024.
5. Sh.Sariyev. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarini 4 “K” modeli asosida tashkil etish usullari // “Boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirish: o‘quv dasturi – o‘qituvchi – baholash” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro: 2023-yil 19-oktabr.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14203090>

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA
O‘QUVCHILARDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH –
IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA**

D.B.Olimova,

Nizomiy nomidagi TDPU 1-bosqich magistranti

E-mail: olimovadilshodaxon@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Sh.U.Sariyev,**

Nizomiy nomidagi TDPU, “Boshlang‘ich ta’limda
ona tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: shon-sharaf1973@mail.ru

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darsliklarida keltirilgan matnlar orqali o‘quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish hamda uni rivojlantirish, har bir o‘quvchining o‘z fikrini erkin bayon qila olishga o‘rgatish haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, g‘oya, kreativlik, savodxonlik, darslik, mustaqil tafakkur, idrok, samaradorlik.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается формирование и развитие креативного мышления учащихся посредством текстов, представленных в учебниках по грамотности чтения начальной школы, а также обучение возможности каждого учащегося свободно выразить свое мнение.*

***Ключевые слова:** начальное образование, идея, креативность, грамотность, учебник, самостоятельное мышление, восприятие, эффективность.*

Abstract. *This article examines the formation and development of students' creative thinking through texts presented in elementary school reading literacy textbooks, as well as teaching the ability of each student to freely express their opinions.*

Key words: *primary education, idea, creativity, literacy, textbook, independent thinking, perception, efficiency.*

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik kadrlarning oldidagi asosiy talab – fikrlash doirasi keng, ma'lumotlar oqimidan keraklilarini tanlab olish qobiliyatiga ega, har tomonlama kreativ fikrlaydigan barkamol yoshlarni tarbiyalashdir.

Ijodkorlik o'rganishning muhim jihati hisoblanadi. Chunki ijodkorlik orqali o'quvchilarda o'rganishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

Kreativlik (lot. creatio – “yaratish”, “vujudga keltirish”) – noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarning haqiqiy, noan'anaviy yechimini topa olish qobiliyatidir. O'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorligi o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o'quv harakatlariga aylanadi. Natijada o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o'sib o'tadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ham maxsus o'rganishni talab etmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Patti Drapeau fikricha, kreativ fikrlash ma'lum masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, kreativ fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni ham talab etadi.

O'qituvchi ham dars jarayoniga kreativ yondashsa, o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari oson kechadi.

O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

– past o'zlashtiruvchi o'quvchilar e'tiborini ham dars jarayoniga jalb etish va qiziqtirish;

– o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodkorlikni aniqlash, rivojlantirish va rag'batlantirish.

O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

– ko'plab savollar berilishini rag'batlantirish va bu jarayonni qo'llab-quvvatlash;

– mustaqil faoliyatni rag'batlantirish va javobgarlik hissini kuchaytirish;

– mustaqil faoliyatni tashkil etilish uchun imkoniyat yaratish;

– barcha o'quvchilarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Boshlang'ich sinflarda zamonaviy metodlar va didaktik o'yinlardan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birgalikda ularni darslarda o'rganilganlarni hayot bilan bog'lashga ham yordam beradi. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi, buning uchun izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash zarur.

O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish olib borib, har bir fikrni inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashlariga erishishi mumkin.

Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rin tutadi.

Darsliklarda berilgan savol topshiriqlar ham o'quvchilarni fikrlashga chorlaydi. O'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ushbu faoliyatni yanada takomillashtirish lozimligi bugungi kunning asosiy muammolaridan biri bo'lishi darkor. Zero, boshlang'ich sinflardan o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini takomillashtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham e'tiborga olish, ta'limni har tomonlama samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aydarova U.B., Azizova N.K., Toirova M.E. O‘qish savodxonligi (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik). – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.
2. Ismailov va boshq. Kreativ fikrlashni baholash. – Toshkent, 2021.
3. Sh.Sariyev. Boshlan‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish metodikasi (Monografiya). – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2022.
4. Sh.Sariyev. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarini 4 “K” modeli asosida tashkil etish usullari // “Boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirish: o‘quv dasturi – o‘qituvchi – baholash” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro: 2023-yil 19-oktabr.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14211254>

TASVIRIY SAN'ATDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Azimov Farxod Teshaboyevich

Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti. Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'atda innovatsion texnologiyalarni zamonaviy pedagogika asosida qo'llash muammolari va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: innovatsion, texnologiya, tasviriy san'at, zamonaviy pedagogika, usul, uslublar.

KIRISH. Zamonaviy pedagogikada, shu jumladan, tasviriy san'atda innovatsion texnologiyalarni qo'llash davr talabiga aylanib bormoqda. Bunda ijodkorning bilim egallashga bo'lgan tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirish, ijod qilishi uchun shart-sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbga yo'naltirib o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, yaratish va ularni boshqarish ta'lim-tarbiyaning bugungi dolzarb vazifasi hisoblanadi.

DABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. SHuni aytish kerakki, O'zbekiston badiiy pedagogikasi nafaqat ta'lim taraqqiyoti bilan, balki vatanimizda ro'y berayotgan tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy o'zgarishlar bilan ham chambarchas bog'liq. O'lkamiz o'tmishida tasviriy san'at keng rivojlangan bo'lib, har bir davr o'z mazmuni, shakli, xarakteri jihatidan alohida maktablarni yuzaga keltirgan. Haqiqiy tasviriy san'at o'zida takrorlanmas mo'jizani jamlaydi. Bu mo'jizaning sir-asrorlarini bilish, tushunish uchun kompozitsiya haqida ma'lumotga ega bo'lishni talab etiladi. Kompozitsiya tuzish, joylashtirish, ijod qilish san'atning alohida qisimlarini mantiqan bir butunlikka keltirishni anglatadi. Busiz uni tasviriy san'at asari sifatida

baholab bo'lmaydi. SHu bois tasviriy san'at yo'nalishida pedagogik innovatsiyalarni izlab topish, o'rganish, tahlil qilish yaxshi samara beradi va ularni amaliyotda qo'llash orqali kutilgan natijaga erishiladi. Tasviriy san'at fani o'qituvchisi talabani faollashtiradigan yo'l, usullar, ta'lim shakllari va vositalarini takomillashtiradi. Aslida innovatsiya bir tizimda shakllangan yangicha yondashuv, ta'lim mazmuni rivoji uchun istiqbolli hisoblanadi, shu bilan birga, ta'lim tizimi rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Interfaol ta'lim davomida talabalar jarayonning barcha sub'ektlari bilan faol munosabatda bo'ladi. Interfaollik darajasi kancha yukori bulsa, ta'lim berish jarayoni shuncha ko'p natija beradi. Bu metod o'quvchida belgilangan vazifani bajarishning eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Har kanday mazmunga ega muammoli vaziyatlarni o'rganish va tahlil qilishga, uning echimini topish uchun mustaqil izlanishga, shu orqali aniq yoki muqobil qarorga kelishga o'rgatadi. Jahon tasviriy san'at olamida keys-stadi (inglizcha sase - vaziyat, holat, study-o'rganish) degan atama mavjud bo'lib, bu ta'lim berish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvda bayon kilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv jarayonlarini o'z ichiga olgan o'qitish texnologiyasidir. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, yoshlarga fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilmokda. Innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari etarlicha rivojlanib borayotgan bir paytda o'z-o'zidan ularning integratsiyasi vujudga keladi. Tasviriy san'atda kompozitsiya juda keng ma'noga va o'ziga xos, ayni paytda juda muhim bo'lgan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatning diqqatga sazovor jihati shuki, tasviriy san'atning har bir yo'nalish yoki janrida kompozitsion tuzilishining ma'lum darajada umumiylik va ayni paytda bir-biridan farqli jihatlari mavjud bo'lib, yo'nalishi yoki janrga ko'ra kompozitsiyaning muayyan konuniyatlariga amal qiladi. Tasviriy san'at asari kompozitsiyaning oddiy qonunlaridan to uning murakkab me'yoriy talablarigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Kompozitsion tugallangan tasviriy san'at asarida rassomning maqsadi, o'y-fikrlari namoyon bo'ladi. Asar mazmunini ochib beruvchi tasviriy vositalar uning kompozitsion echimini favqulodda hal etadi. Asar kompozitsiyasini hal etishda

rassomning dunyoqarashi o'ziga xos uslubda ifoda etiladi, ayni paytda rassom o'z asari orqali tomoshabinlarni estetik mulohaza qilishga chorlaydi. Tasviriy san'at ustalarining dunyoqarashi, shuningdek, ularning mahorati yaratilayotgan asar kompozitsiyasining mukammalligi bilan belgilanadi. Asar tomoshabin tomonidan idrok qilinayotganda ba'zan ijodkor xayoliga kelmagan fikr-mulohazalar ham yuzaga kelishi mumkin. Buning uchun, avvalo, tomoshabin, tasviriy san'at ixlosmandlari klassik namunalari hamda tasviriy san'at tarixidagi va zamonaviy namunalarni estetik idrok etish va to'g'ri tahlil qila olish uchun ulardan kompozitsiya haqidagi nazariy tushuncha va bilimga ega bo'lishni talab qilinadi.

NATIJARLAR. Tasviriy san'at asarida mazmun va shaklni birlashtirish uchun qo'llanilgan vositalarni asarning bosh g'oyasiga bo'ysundirish kompozitsiyaga xos asosiy qonunlardandir. Rassomning bosh mavzusi doimo inson, insonni har jihatdan o'rganish bo'lib kelgan. SHuning uchun insonni tasvirlashda ijodkorlar va barcha tasviriy san'at ixlosmandlari plastik anotomiyani bilishi o'ta muhim hisoblanadi. Ana shunda inson obrazi, odamning ma'naviy, ruhiy qiyofasini ifodalovchi asar yaratilayotgan bir paytda musavvir uning kompozitsiyasini innovatsion texnologiyalar asosida to'la-to'kis yoritadi. O'zbekiston tasviriy san'at tarixida kompozitsiya jihatidan mukammal, badiiy qimmatga ega asarlar mavjud. Ayniqsa, miniatyura san'atiga oid murakkab namunalarda ham o'ziga xos kompozitsiyalar zamirida ma'lum bir g'oyalarda namoyon bo'ladi. Jumladan, Kamoliddin Behzodning mashhur asarlaridan biri – Sulton Husayin Boyqaro portretidagi reallik bu mumtoz musavvirning inson qiyofasini yaratish borasida tengsiz san'atkor ekanligini ko'rsatadi. Behzod Alisher Navoiy, Sulton Husayin Boyqaro, Muhammad SHayboniyxon, Abdurahmon Jomiy, Abdulla Xotifiy portreti kabi asarlarini mahorat bilan chizishda o'sha paytda urf bo'lmagan innovatsion texnologiyalarni o'zi bilmagan holda qo'llagan bo'lishi mumkin. Tasviriy san'atning o'ziga xos sirli olamini falsafiy anglash salohiyati musavvirni ma'naviy kamolotga etaklaydi. Kezi kelganda yana shuni takidlash kerakki, tasviriy san'at zamon va makonda hech qachon qotib qolmaydi. Davr taqozosi, san'atkorning ijodiy izlanishlari natijasida ma'lum darajada o'zgarib

boraveradi. Aslida, tasviriy san'atda kompozitsiya o'ta murakkab va shunday serqirradi, bu borada zamonaviy san'atshunos, rassomlarning munozara va mulohazalari, qarashlari har xil bo'ladi. SHunday ekan, san'atshunoslik hamda pedagogika fani uni ilmiy-nazariy va boshqa jihatlardan ham o'rganadi. Bu ijod turi ma'lum bir mezonlar asosida pedagogdan fan va metodika usullarini muttasil takomillashtirib borishini taqazo etadi. Kompozitsiyadagi muhim jihatlarga ega bo'lgan sohalardan biri badiiylik, nur va bo'yoqlar muammosidir. Kompozitsion jiddiy saviyaga ega bo'lgan har bir san'at asarida ma'lum darajada o'ziga jalb qiluvchi badiiy nur qiyofasi mavjud bo'ladi. Bu, albatta, rassomning bo'yoqlarni ishlatish mahorati, nur va soya imkoniyatlaridan foydalanish mahoratiga ham bog'liq. Ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar innovatsion jarayonlarning faollashuviga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ta'limning innovatsion rivojlanish tartibotiga o'tishi faqat nazariyotchi pedagoglarninggina emas, balki uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga taalluqlidir.

MUHOKAMA. Endilikda pedagogik yangiliklardan foydalanishga bo'lgan xohish-istak, ularni qo'llashdagi faollikgina emas, balki pedagogik ijodiyot bilan shug'ullanish, o'zlari yangiliklarni yaratish amaliyotchi pedagoglar faoliyatining muhim belgilaridan biriga aylanmoqda. Ayni chog'da pedagogik yangiliklarni yaratish, ularning pedagogik jamoatchilik tomonidan o'zlashtirilishi hamda baholanishi, o'qitish va tarbiyalash jarayoniga qo'llash va tatbiq etish uzviylikni taqozo etadi. Ta'lim muassasalaridagi innovatsion faoliyatni tashkillashtirish tajribasini atroflicha tahlil qilish pedagogik jamoalar, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'z faoliyatiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga intilishlarini ko'rsatadi.

Muammoga ijtimoiy ahamiyat va mohiyat nuqtai-nazardan qaraydigan bo'lsak, xalq pedagogikasi ta'limidagi innovatsion jarayonlarda "pedagogik yangilik" sifatida o'zining munosib o'rnini olishi kerak. CHunki ta'lim muassasalaridagi yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq har qanday yangilanishlar milliy ta'limning tub mohiyatini, uning ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarini inkor etolmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni, jahon xalqlarining ilg'or tajribasini

o'zlashtirish vazifasi ham hech qachon o'quvchi-yoshlarning milliy o'zligini tarkib toptirish vazifalariga zid bo'lmaydi. Demak, ta'limdagi innovatsion jarayonlar milliy ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish bilan hamohang bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarda, ayniqsa, ko'proq xorijdan kirib kelayotgan ta'lim-tarbiya usullarida o'zbekona tarbiya tizimiga to'g'ri kelmaydigan xususiyatlar ham tiqilib yotibdi. SHuning uchun tasviriy san'atda innovatsion texnologiyalarga berilib ketish, milliy an'analarimizga xos bo'lmagan, sharqona tarbiyaga zid bo'lgan "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qilish, ustozga hurmat, qat'iy intizom kabi sharqona odatlarimizning e'tibordan chetda qolishi yomon natijalarga olib keladi.

XULOSA. Xulosa o'rnida aytish kerakki, zamonaviy ta'lim jarayonida, tasviriy san'atda innovatsion texnologiyalarni qo'llash hozirgi davrda ayniqsa dolzarblik kasb etmoqda. Butun dunyo taraqqiyotning mazkur bosqichida ta'limga innovatsion jarayonlarning tatbiq etilishi jamiyatni rivojlantirishga, Vatan kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni. "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
2. Zaxidov P.Sh. Me'mor san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
3. Kulibokim T.M. Risunok i osnovy kompozitsii. – M.: Vysshaya shkola, 1988.
4. Oydinov N. Uzbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavxalar. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Tursunqulov, A. (2024). XALQ TERMALARIDA DO'MBIRA MAQTOVI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 4–9. https://doi.org/10.5281/zenodo.14174339
2	Jo'rayev, M. A. (2024). KOMIK HOLAT VA KOMIK OBRAZ HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR. GOLDEN BRAIN, 2(20), 10–13. https://doi.org/10.5281/zenodo.14174343
3	Rixsiboyev, U. T. (2024). GEOMETRIK MASALALARNI BAJARISHNING ENG QULAY ALGORITMLARI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 14–20. https://doi.org/10.5281/zenodo.14174365
4	Amirqulov, M. G. (2024). SURXON VOHASIDAGI CHO'L YERLARINI O'ZLASHTIRISHDA TUMANLARNING TASHKIL ETILISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 21–27. https://doi.org/10.5281/zenodo.14174372
5	Ergashev, A. J., & Nabiyev, A. A. (2024). KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ORQALI FIZIKA FANINING BO'LIMLARINI O'RGANISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 28–30. https://doi.org/10.5281/zenodo.14174375
6	Ergashev, A. J., Masharipova, S. M. qizi ., & Rajapboyeva, N. D. qizi . (2024). TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IONLOVCHI NURLANISHLARNING TABIIY MANBALARI. SURUNKALI VA O'TKIR NUR XASTALIKLARI MAVZUSINI "KLASTER METODI" YORDAMIDA O'QITISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 31–35. https://doi.org/10.5281/zenodo.14174380
7	Ergashev, A. J., Boyqobilova, Z. B. qizi ., & Abdugafforova, M. A. qizi . (2024). IONLASHTIRUVCHI NURLANISH MANBALARI BILAN ISHLASHDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 36–40. https://doi.org/10.5281/zenodo.14174384

8

Mirzakbarova, T. (2024). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI RAQAMLI DUNYO UCHUN TAYYORLASH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 41–44. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174395>

9

Khabirova, S. (2024). HOW TO HELP CHILDREN WITH ORAL LANGUAGE DEVELOPMENT AT 1 TO 2 YEARS OF AGE?. GOLDEN BRAIN, 2(20), 45–51. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174401>

10

Abdujalilova, F. S. (2024). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA QO'LLANILGAN MENTALITET TUSHUNCHALARI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 52–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174403>

11

Rajabaliyeva, I. A. (2024). FOOD SECURITY PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE DIGITAL ECONOMY. GOLDEN BRAIN, 2(20), 57–63. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174413>

12

Jumayeva, S. S. (2024). MA'NAViy TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 64–69. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174416>

13

Mo'minova, S. G. (2024). TA'LIMDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 70–75. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174419>

14

Sotimov, O. R. (2024). QORAQALPOQ SHOIRI AJINIYOZ QO'SIBOY O'G'LINING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 76–80. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174425>

15

Olimboyeva, Z. J. qizi . (2024). ARAB YOZUVI TURLARINING SHAKLLANISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 81–85. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174429>

16

Husanov G'aybulla Usmanovich. (2024). BASKETBOL SPORTINING PAYDO BO'LISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 86–90. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174438>

17

Husanov, G. U. (2024). BASKETBOLNING INSON SALOMATLIGI UCHUN FOYDASI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 91–96.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174444>

18

Jurayev, A. X. (2024). DZYUDO KURASHINING QOIDALARI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 97–101. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174458>

19

Jurayev, A. X. (2024). FUTBOLNING INSON SALOMATLIGI UCHUN FOYDASI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 102–106.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174465>

20

Suyunov, T. N. o'g'li . (2024). GANDBOLNING PAYDO BO'LISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 107–111. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174471>

21

Suyunov, T. N. o'g'li . (2024). KURASH SPORTINING QOIDALARI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 112–116. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174479>

22

To'xtayev, J. J. (2024). KURASHNING INSON SALOMATLIGI UCHUN TA'SIRI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 117–121.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174482>

23

To'xtayev Juma Jo'rayevich. (2024). O'ZBEKISTONDA FUTBOLNING RIVOJLANISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 122–126.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174486>

24

Rajapov, G. O. (2024). O'ZBEKISTONDA KURASH SPORT TURINING RIVOJLANISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 127–131.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174508>

25

Rajapov, G. O. (2024). O'ZBEKISTONDA VOLEYBOLNING RIVOJLANISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 132–136.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174511>

26

Davranov, E. O. (2024). O'ZBEKISTONDA XOKKEYNING RIVOJLANISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 137–141.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174526>

27

Davranov, E. O. (2024). TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 142–146.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174535>

28

Amirkulov, O. I. (2024). VOLEYBOLNING INSON SALOMATLIGI UCHUN TA'SIRI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 147–151.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174546>

29

Amirkulov Otabek Ismoilovich. (2024). VOLEYBOLNING PAYDO BO'LISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 152–156.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174559>

30

Xidirova, N. B., Sunatov, J. T. o'g'li ., Oromova, S. S. qizi ., & Otajonova, K. R. (2024). MULTIMEDIALI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING PSIXOLOGIYADA QO'LLANILISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 157–161.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174563>

31

Xidirova, N. B., Sunatov, J. T. o'g'li ., Nomozova, F. A. qizi ., & Zayriyeva, Z. O. qizi . (2024). RAQAMLI MATERIALLAR VA INTERAKTIV PLATFORMALAR YORDAMIDA TABIIY FANLARNI O'QITISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 162–166.

32

Xidirova, N. B., Sunatov, J. T. o'g'li ., & Muqimova, G. Z. qizi . (2024). EXCELDA DIAGRAMMALAR BILAN ISHLASH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 167–171.

33

Elchin, G. T. (2024). THE IMPACT OF HELICOPTER PARENTING ON PSYCHOLOGICAL DEPENDENCY. GOLDEN BRAIN, 2(20), 172–178.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174584>

34

Nazarova, C. D. qizi . (2024). TALABALARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH MASALALARI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 179–182.

35

Elubaeva, S., & Hamrayev, M. A. (2024). 1-SINF ONA TILI DARSLIKLARIDA ATAMALAR VA ULARNING IZOHLARI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 183–187.

36

Nurillayeva, S. O., & Aralov, M. M. (2024). QARSHI TUMANINING RAQAMLI EKOLOGIK KARTASINI GEOAXBOROT TIZIMI ASOSIDA YARATISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 188–193.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174604>

37

Ro'zmetova, M., & Hamrayev, M. A. (2024). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IZOHLI LUG'AT BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 194–197.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14181738>

38

Yernazarova, G. P., Salimova, I. N., & Sherboyev, M. S. o'g'li . (2024). OLIY O'QUV YURTI BINOLARINI REKONSTRUKSIYA QILISHDA TASHKILY-TEXNOLOGIK MODELLASHTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 198–203. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14181814>

39

To'xtayev, U. H. o'g'li ., & Safarov, D. S. o'g'li . (2024). AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA AXBORIY TAHDIDLAR. GOLDEN BRAIN, 2(20), 204–209.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14194715>

40

To'xtayev, U. H. o'g'li ., & Safarov, D. S. o'g'li . (2024). GLOBAL AXBOROT MAKONDA KIBERXAVFSIZLIK MASALALARI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 210–215. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14194717>

41

Sharipova, S. K. (2024). USING PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGY IN MUSIC LESSONS IN A COMPREHENSIVE SCHOOL. GOLDEN BRAIN, 2(20), 216–222. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14202489>

42

Raximova, M. B., & Sariyev, S. U. (2024). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 223–226.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14203027>

43

Olimova, D. B., & Sariyev, S. U. (2024). BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH – IJTIMOY ZARURAT SIFATIDA. GOLDEN BRAIN, 2(20), 227–230. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14203090>

44

Azimov, F. T. (2024). TASVIRIY SAN'ATDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 231–235.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14211254>